8. Suk-Joong L. Kang. Sintering. Densification, Grain Growth, and Microstructure. Elsevier Butterworth-Heinemann Linacre House, Jordan Hill, Oxford. 2005. <https://cejsr.academicjournal.io/index.php/journal/article/view/895/825>.
9. Nurmurodov T.I., Akhtamova M.Z. Thermal-alkali fertilizers by low-grade phosphate mineral processing. XVI International forum-contest of students and young researchers “Topical issues of rational use of natural resources”. Saint-Petersburg Mining University. 17-19 June 2020y. 201-203.
10. Нурмуродов Т.И., Ахтамова М.З.,Рахимова Г.С. Описание результатов термогравиметрических анализов термофосфатов полученных из фосфоритов Центрального Кызылкума. Universum: Химия и биология. №5(83).Россия 2021.

## TEXNIKA FANLARI

**QASHQADARYO TUPROQLARI SHAROITIDA G'O'ZA QATOR ORALARIGA ISHLOV BERISHNING OPTIMAL CHUQURLIGI VA SONINI ANIQLASH***Abduraximov Shavkat**ToshDAU Dehqonchilik va melioratsiya kafedrasida dotsenti q.x.f.n.**Furqatov Temur**ToshDAU Dehqonchilik va melioratsiya kafedrasida magistri*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyati tuproqlari sharoitida g'o'za qator oralariga ishlov berishning optimal chuqurligi va sonini aniqlash va g'o'za yetishtirishning maqbul usullarini ishlab chiqish haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** G'o'za, tuproq, biogumus, qator orasi, sanoat plantatsiyalari, pH ko'rsatkich, g'o'za ko'saklari.

**Аннотация.** В данной статье говорится об определении оптимальной глубины и количества междурядий хлопчатника в почвенных условиях Кашкадарьинской области и разработке оптимальных приемов возделывания хлопчатника.

**Ключевые слова:** Хлопок, почва, биогумус, междурядья, промышленные насаждения, pH-индикатор, хлопковые мешки.

**Abstract.** This article talks about determining the optimal depth and number of row spacings of cotton in the soil conditions of the Kashkadarya region and the development of optimal methods of cotton cultivation.

**Key words:** Cotton, soil, vermicompost, sorghum, plantation industry, p-ash indicators, cotton bags.

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyo hamjamiyatida g'o'za agrotexnikasida qator oralariga ishlov berishni sug'orish tartibiga, tuproq va iqlim sharoitiga mos holda amalga oshirish, ishlov chuqurligini g'o'za ildizining rivojlanish darajasini hisobga olib belgilash nihoyatda muhimdir. Zero, g'o'za qator oralarini ishlash hamda sug'orish bir-biriga bevosita bog'liq agrotadbirlar hisoblanib, g'o'za amal davrini deyarli to'la qamrab oladi. Binobarin, g'o'za o'simligi ildizining maqbul rivojlanishi, tuproq namligi bilan to'la ta'minlanishi, tuproqni issiqlik va havo rejimlarini yaxshilanishida g'o'za qator oralariga ishlov berish boshqa agrotexnik tadbirlar qatorida yuqori, sifatli hamda ertagi hosil olishga bevosita dahldor hisoblanadi. Qishloq xo'jaligida, xususan g'o'zadan yuqori va sifatli paxta hosili yetishtirib xarajatlarni kamaytirishda, mahsulot tannarxini arzonlashtirishda, g'o'zani parvarishlash agrotexnikasini doimo mukammallashtirib, zamonaviy texnika va texnologiyalarga moslab borish talab etiladi.

Respublikamizda g'o'za agrotexnikasining muhim tadbirlaridan sug'orish tartibi hamda qator oralariga ishlov berish chuqurligi mamlakatimiz olimlari tomonidan keng o'rganilgan. Mazkur ikki muhim agrotadbirni o'zaro bog'liqligini

hisobga olib, bir-biriga mutanosiblab o'tkazilgan tadqiqotlar nihoyatda kam. Qolaversa, g'o'za qator oralarini ishlashga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarda ishlov chuqurligi bo'yicha hanuz aniq bir xulosa qilinmagan. Ayrim tadqiqotchilar g'o'za qator orasi qancha chuqur ishlansa paxta hosili shuncha yuqori bo'ladi deb xulosa qilishgan bo'lsa, boshqa tadqiqotchilar bu xulosaga tamoman zid tavsiya berganlar. Yana bir qator tadqiqotchilar esa g'o'za qator orasini dastlab sayoz, keyin chuqur ishlov berishni maqbul hisoblashgan. Demak, g'o'za qator oralarini ishlash chuqurligini turli sug'orish tartiblari muhitida o'rganib, ularni g'o'za hosildorligi va hosil sifatiga ta'sirini ilmiy asoslash nihoyatda dolzarb mavzu xisoblanadi.

**Tuproq tasnifi.** Qashqadaryo viloyati har bir hududi bir-biridan keskin farq qiladigan bir necha tuproq-iqlim sharoitiga ega bo'lganligi bois eskidan foydalanib kelinayotgan va yangidan o'zlashtirilgan hududlarga bo'linadi. Bu hududlar o'zining geografik joylashishiga qarab, yuqori tog' oldi, hamda pastki cho'l qismlariga bo'linadi. Birinchi hududga (yuqori tog' oldi qismiga) SHaxrisabz guruhiga kiruvchi G'uzor tumani hududi bilan chegaralanuvchi tumanlar yer maydonlari kirs, ikkinchi hududga (pastki cho'l qismiga) Qarshi guruhiga kiruvchi pastki qo'riq tumanlarning yer maydonlari kiradi.

Qarshi cho'li O'zbekiston janubida  $37^{\circ}58'1''-39^{\circ}32'1''$  shimoliy kenglik va  $64^{\circ}23'1''-67^{\circ}42'1''$  sharqiy uzoqlik orasida joylashgan bo'lib, uning umumiy yer maydoni 13,6 ming kv km tekislikdan iborat. SHundan 306,3 ming gektari taqirsimon tuproqlar tarqalgan maydonlardan iborat. Bu tuproqlarning tarkibida chirindi miqdori 0,5% dan 1,0% gacha bo'lib, ularda kaliy 2,0% gacha va fosfor 0,15% gacha azot miqdori esa 0,02-0,07% ni tashkil etgan (A. Rasulov, 1976).

L.N. Babushkin (1959) ma'lumotlari Qarshi cho'lining iqlimi keskin o'zgaruvchan kontinental va shu bilan birga yozi issiq, qishi ancha sovuq ekanligini ko'rsatgan. Qishda shimoliy Arktika sovuq havo oqimlari kelib, haroratni ancha pasaytirib yuboradi. Yanvar oyida o'rtacha havo hororati  $0^{\circ}\text{S}$  dan  $+2^{\circ}\text{S}$  ga, qishda ba'zan  $-15^{\circ}\text{S}$  dan  $-25^{\circ}\text{S}$  gacha pasayishi mumkin. Yozi issiq va quruq bo'lib, uzoq davom etadi. Iyul oyida harorat kunduz kunlari ba'zan  $+44^{\circ}\text{S}$  dan  $+47^{\circ}\text{S}$  gacha ko'tariladi. Yozning ikkinchi yarmiga kelib, 7-15 kun davomida garmsel shamollar esib, u qishloq xo'jalik ekinlariga sezilarli zarar yetkazadi.

Tuproqning hajm vazni va g'ovakligi g'o'za ildizining o'sishi, rivojlanishi hamda faolligi bilan bevosita aloqador. Ko'plab tadqiqotchilarni aniqlashicha g'o'zaning ildiz tizimi maqbul rivojlanishi, tuproqning havo almashuvi mo'tadil bo'lishi uchun tuproqning hajm vazni  $1,25-1,35 \text{ g/sm}^3$  kerak deb hisoblaydilar. Aksincha, zichligi yuqori, g'ovakligi kam tuproqlarda havo aeratsiyasi yaxshi bo'lmaydi, namlik ko'p bug'lanadi. Oqibatda tuproq mikroolami hayoti uchun havo yetarli bo'lmaydi, ildiz tizimi sekin rivojlanib o'simlikni yer ustki qismlarga yetarli suv va oziqa yetkazib beraolmaydi. SHu boisdan tuproq qatlami hajm vaznini kamaytirish, g'ovakligini oshirish uchun yerga ishlov beriladi, hususan qator oralari ishlanadi.

Tuproqni suv o'tkazuvchanligiga ma'lumotlariga to'xtaladigan bo'lsak g'o'za qator oralariga ishlov berish chuqurligi tuproqning suv-fizik xossalari ta'sir qiladi. Tajriba dalasi tuprog'ini eroziyaga chalinish darajasiga bog'liq holdagi dastlabki tahlillar amal davri boshida, ya'ni g'o'zani yaganalashdan oldin, hamda amal davri oxirida, birinchi terimdan so'ng aniqlanib, bunda qo'llanilgan agrotexnologiyalarning tuproqning suv o'tkazuvchanligiga ta'siri barcha variantlarda aniqlanadi.

**Tajriba dalasida olib borilgan agrotexnik tadbirlar.** Mavsumda 4 marta qator oralari ishlanib, 1 marta oziqlantirildi va 3 marta sug'orildi. Shu bilan birga 3 marta begona o'tlardan tozalanib, bir marta yagona qilindi. G'o'za qator orasiga har bir ishlovdan oldin va keyin begona o'tlar soni aniqlab borildi. Asosan tajriba dalasida ko'p yillik – g'umay, qamish, qo'ypechak, ajriq, assalomaleykum, yantoq, bir yillik – semizo't, nichansho'ra, oqsho'ra, ituzum, kabi o'simliklar borligi aniqlandi. Olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, ishlov chuqurligi ortgan sayin ko'p yillik va bir yillik begona o'tlarni sonini kamayishiga olib keldi. SHu bilan birga chuqurroq ishlov o'tkazilgan variantlarda begona o't urug'lari yuzaga chiqib, sug'orishdan keyin ko'karish xolatlari kuzatildi. Chilpish avgust oyining birinchi o'n kunligi boshida o'tkazildi. G'o'zaning barglarini sun'iy to'ktirish xlorat magniy defolianti bilan gektariga 10 kg/ga me'yorda amalga oshirildi. Paxta hosilini aniqlashda 2 marta qo'l terimi o'tkazildi

Tadqiqot yillarida qator orasiga ishlov berishni turli chuqurlikda o'tkazib, uning sonini aniqlash va qaysi haydov chuqurligi va kultivatsiya soni yuqori samarali ekanligini bilish maqsadida 3 yil davomida 5.3 gektarli maydonda tadqiqot ishlari o'tkazildi. Tajriba dalasida quyidagi agrotexnik tadbirlar olib borildi.

**3.2-§ Tahlil qilingan tajriba tizimi.** Dala tajribalari 11 variantdan iborat bo'lib, bir yarusda 3 qaytariqda joylashtirildi, har bir variant uzunligi 100 m, eni 4,8 m ni, umumiy maydoni 1,6 gektarni tashkil etadi (2.2.1-jadval).

**1-jadval.**

**Tajriba tizimi (2021-2022yy)**

No	Variantlar	Birinchi kultivatsiya, sm	Keyingi kultivatsiyalar, sm
1	Xo'jalikda olib boriladigan kultivatsiya (nazorat)	8-10	12-14
2	Kultivatsiya chuqurligi	5-6	5-6
3	Kultivatsiya chuqurligi	10-12	10-12
4	Kultivatsiya chuqurligi	10-12	14-16
5	Kultivatsiya chuqurligi	14-16	10-12
6	Kultivatsiya chuqurligi	14-16	14-16
7	Kultivatsiya chuqurligi	10-12	16-18
8	Kultivatsiya chuqurligi	10-12	18-20
9	Kultivatsiya chuqurligi	14-16	16-18
10	Kultivatsiya chuqurligi	16-18	16-18

11	Kultivatsiya chuqurligi <sup>x)</sup>	16-18	14-16
----	---------------------------------------	-------	-------

Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, 1-variantda, ya'ni xo'jalikda qabul qilingan chuqurlikda amal davri davomida jami 6 marta kultivatsiya ishlari amalga oshirilgan bo'lsa, qolgan variantlarda 5 marta qator oralariga ishlov berildi hamda 11-variantimizda bunga qo'shimcha ravishda g'o'za 4-5 chin barg chiqargan davrda qator oralari 20-22 sm chuqurlikda chizel moslama bilan yumshatildi.

Mineral o'g'itlarni qo'llash muddatlari: o'g'it me'yorlari gektariga azot 200 kg, fosfor 140 kg, kaliy 100 kg bo'lganda fosforli o'g'itlarning 70 % i va kaliy o'g'itlarining 50 % i kuzgi shudgor va ekish oldidan, qolgan 30 % i g'o'zaning shonalash fazasida, kaliyning 50 % g'o'zaning gullash fazasida berildi.

Azotli o'g'itlarning yillik me'yorlari quyidagi muddatlarda solindi: 2-3 chinbarg chiqarganda 50 kg/ga; shonalash fazasida 150 kg/ga berildi.

Tajribani qo'yish, g'o'zaning o'sishi va rivojlanishi, fenologik kuzatuvlar, ko'chat qalinligi, sug'orish tartibi va me'yorlari, o'g'it me'yorlari, hosildorlik va boshqa hisoblashlar kabi tadqiqot ishlari O'zPITI da ishlab chiqarilgan «Методы агрохимических, агрофизических и микробиологических исследований поливных хлопковых районов» (1973 g. 21), «Методика полевых опытов с хлопчатником» (1981 g., 22) va «Dala tajribalarini o'tkazish uslublari» 2007 yil (23) uslubiy qo'llanmasiga rioya qilingan holda amalga oshirildi.

**Xulosalar.** 1. G'o'za qator oralariga ishlov berish chuqurligining ortib borishi, tuproqning agrofizik hamda suv fizik xususiyatlarini yaxshi saqlanib qolishiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Bunda tuproq hajm og'irligining eng yuqori zichlashishi, qator oralariga minimal (5-6 sm) ishlov berilganda kuzatilib, bu ko'rsatkich 0-30 sm haydov qatlamida 1,34 g/sm<sup>3</sup> dan 1,43 g/sm<sup>3</sup> gacha ortishiga olib keladi.

Barinchi kultivatsiyani 16-18 sm, keyingilarini 14-16 sm hamda g'o'zaning 4-5 chin barg davrida qator oralariga 20-22 sm chuqur yumshatish o'tkazilishi, tuproq hajm og'irligini yaxshi saqlanib qolishiga xizmat qilib, amal davri davomida tuproqning 0-30 sm haydov qatlamida bu ko'rsatkich 0,01 g/sm<sup>3</sup> ga ortgan.

2. Qator oralariga minimal ishlov (amal davri davomida 5-6 sm chuqurlikda kultivatsiya o'tkazish) berilganda g'o'zaning o'sib-rivojlanishiga salbiy ta'sir etib, paxta hosildorligi keskin kamayadi (24,6 ts/ga), birinchi kultivatsiyani 14-16 sm, keyingilarini 16-18 sm chuqurlikda amalga oshirish, shuningdek, birinchi kultivatsiyani 16-18 sm va 3-4 chin barg davrida 20-22 sm chuqur yumshatish olib borish paxtadan yuqori (32,2 ts/ga) hosil olishga xizmat qiladi.

3. G'o'za qator orasiga chuqur ishlov (18-20 sm) berish tuproqdagi oziq moddalarni samarali o'zlashtirishini ta'minlanadi.

4. Tajriba dalasining cheklangan dala nam sig'imi (CHDNS) 0-70 sm tuproq qatlamida 22,5 % ni va 0-100 sm qatlamda esa 21,0 % ni tashkil etadi.

5. Haydov chuqurligining qanday chuqurlikda haydalanishiga qarab, tuproqning zichlashishi, 5-6 sm chuqurlikda haydalgan 2-variantda o'rganilayotgan boshqa

variantlarga nisbatan tuproqning 0-50 smli qatlamida og'irlashganligi(bahorda 1.43 g/sm<sup>3</sup>; kuzda 1.50 g/sm<sup>3</sup>) aniqlanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PQ-4947-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2017
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 31 maydagi PF-5065-son «Yerlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish borasida nazoratni kuchaytirish, geodeziya va kartografiya faoliyatini takomillashtirish, davlat kadastrlari yuritishni tartibga solish chora- tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni 2009.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyundagi PF-5742 son «Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni 2019
4. I.4 Avliyoqulov A., Battalov A., Axmedov J. Buxoro-6 navi parvarishi // O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali. - Toshkent, 2003. - № 5. - 11 b.
5. Bojinov M., Nikolov G., Vichayev J., Dimitrova L., Saldjiev I., Stoilova A. Pamukproizvodstvo. - B.G.Danov.: Nauka i texnika, 1995. - 87 s.
6. Muhammadjonov M.V. Mo'l paxta hosili olish va uni barvaqt yetishtirishning agrobiologik asoslari. - Toshkent: O'zDav nashr, 1963. - 60 b.
7. <https://pochva.com>
8. <https://www.ziyonet.uz>
9. <https://www.Sciencedirect.com>
10. <https://www.scopus.com>

## KIBERXAVFSIZLIKNING ELEMENTLARI

*Abduvaxobova Robiyaxon Abdusamat qizi*  
*TJB va KT fakulteti talabasi*

**Annotatsiya.** "Kiberxavfsizlik" atamasi juda ko'p turli narsalarni o'z ichiga oladi. Kiberxavfsizlik xizmatlari texnologiyadan foydalanishning barcha usullari va bir nechta himoya qatlamlarini o'z ichiga oladi.

**Kalit so'zlar:** kiberxavfsizlik, eng so'nggi texnologiyalar, axborotlarning o'g'irlanishi, birlik.

**Аннотация.** Термин «кибербезопасность» включает в себя множество разных вещей. Услуги кибербезопасности включают в себя все виды использования технологий и несколько уровней защиты.

**Ключевые слова:** кибербезопасность, новейшие технологии, кража информации, единство.

**Abstract.** The term "cybersecurity" includes many different things. Cyber security services include all types of technology use and multiple layers of protection.

**Key words:** cyber security, latest technologies, information theft, unity.

Nega kiberxavfsizlik har qanday biznes operatsiyalarining muhim qismi hisoblanadi? Chunki faqat bitta kiberhujum qurboni bo'lish biznesni moliyaviy jihatdan vayron qilishi mumkin. Kichik biznesning 60% ga yaqini ma'lumotlar buzilishi yoki zararli dastur infeksiyasiga uchraganidan keyin 6 oy ichida o'z faoliyatini to'xtatadi.

#### **KIBERXAVFSIZLIKNING TURLI ELEMENTLARI:**

- Ilova xavfsizligi
- Axborot xavfsizligi
- Tarmoq xavfsizligi
- Foydalanuvchi xavfsizligi
- Operativ xavfsizlik

Yuqoridagi elementlarning har biri infratuzilmangizning turli sohalarini ifodalaydi va har birini turli xil taktikalar bilan himoya qilish muhimdir. Quyida har birini batafsilroq tasvirlab beramiz.

**Ilova xavfsizligi.** Ilovalar xavfsizligi dasturiy ta'minot ilovalarini tahdidlardan himoya qilishdan iborat. Bu o'z ilovalari va bulutli xizmatlarini ishlab chiqadigan va sotadigan kompaniyalarning asosiy yo'nalishi bo'lsa-da, bu biznes uchun ham muhimdir.

Xavfsizlik sozlamalarining noto'g'ri konfiguratsiyasi bulutli hisob ma'lumotlarining buzilishining asosiy sababidir. Kompaniyalar Microsoft 365 kabi yirik bulut xizmatidan foydalanadilar, ammo xavfsizlik sozlamalarini standart sozlamalardan sozlashlari kerakligini tushunmaydilar.

Bulutli ilovaning noto'g'ri konfiguratsiyasining asosiy sabablari:

- Bulutli xavfsizlik siyosati haqida xabardorlikning yo'qligi
- Tegishli nazoratning yo'qligi
- Boshqarish uchun juda ko'p interfeyslardan foydalanish
- Insaydarning beparvo xatti-harakati (masalan, foydalanuvchi xatosi)

Ko'p faktorli va ma'muriy imtiyozlar nazoratini o'rnatish kabi ishlarni bajarish, kiberxavfsizlik bo'yicha maslahat xizmatlari ilovalaringiz buzilishining oldini olish uchun ilovalar xavfsizligini kuchaytirishga yordam beradi.

**Axborot xavfsizligi.** Axborot xavfsizligi kompaniya ma'lumotlarini va mijozlar yoki sotuvchilar to'g'risidagi ma'lumotlarni himoya qilishni o'z ichiga oladi. Ma'lumotlar maxfiyligi va maxfiylik qoidalari axborot xavfsizligi uchun asosiy qoidalarni o'rnatadi.

Aksariyat kompaniyalar bir yoki bir nechta axborot xavfsizligi standartlariga rioya qilishlari kerak. Beparvolik shaxsni identifikatsiyalash mumkin bo'lgan ma'lumotlarning buzilishiga olib keladi.

**Tarmoq xavfsizligi.** Tarmoq xavfsizligi jismoniy tarmoq va unga ulangan barcha qurilmalarni himoya qilishni o'z ichiga oladi. Aksariyat kompaniyalar kiruvchi va chiquvchi trafikni tahdidlar uchun nazorat qilish uchun xavfsizlik devorlaridan foydalanadilar. Bu tarmoq xavfsizligining bir shakli.

Tarmoq xavfsizligini qal'aning tashqarisidagi qo'riqchi sifatida tasavvur qilishingiz mumkin. U faqat avtorizatsiya qilingan foydalanuvchilar tarmoqqa

kirishini va tarmoq ichida shubhali xatti-harakatlar sodir bo'lmasligini ta'minlash uchun mo'ljallangan.

**So'ngi foydalanuvchi xavfsizligi.** Yakuniy foydalanuvchi xavfsizligi, shuningdek, oxirgi nuqta xavfsizligi sifatida ham tanilgan. Bu foydalanuvchilar bilan ishlaydigan qurilmalarni va foydalanuvchilarning o'zlarini himoya qilish haqida. Yakuniy foydalanuvchi xavfsizligi juda muhim, chunki kiberhujumlarning 91% elektron pochta orqali boshlanadi.

Agar siz so'ngi foydalanuvchi xavfsizligidan foydalanmasangiz, zararli dastur bilan zararlangan himoyalangan xodimning qurilmasi orqali osongina kiberhujumdan aziyat chekishingiz mumkin va keyin bu infeksiyani butun kompaniya tarmog'iga tarqalishiga olib kelishi mumkin.

**Operatsion xavfsizlik.** Operatsion xavfsizlik butun xavfsizlik strategiyangizni bir butun sifatida ko'rib chiqishni o'z ichiga oladi. Bu sizning operatsiyalaringiz davomida barcha xavfsizlik taktikalarining uyg'un ishlashini va hech biri bir-biriga zid bo'lmasligini ta'minlaydi.

Operatsion xavfsizlik bo'yicha maslahatlar berishda kiberxavfsizlik xizmatlari kiberhujumchi kabi o'ylashga harakat qiladilar. Ular potentsial buzilish qerda sodir bo'lishi mumkinligini ko'rish uchun texnologiya muhitingizning barcha turli sohalarini tekshiradilar.

Operatsion xavfsizlik barcha AT xavfsizligi jarayonlarini qamrab oluvchi soyabondir. Bu, umuman olganda, operatsiya nafaqat potentsial buzilishning barcha sohalarini himoya qilishini, balki so'nggi tahdidlar va xavfsizlik yutuqlaridan xabardor bo'lish uchun xavfsizlik strategiyalarini muntazam yangilab turishini ta'minlaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Akbarov D.Y. Axborot xavfsizligini ta'minlashning kriptografik usullari va ularning qo'llanilishi. „O'zbekiston markasi“ - Toshkent-2009yil.
2. S.K.G'aniyev, A.A.G'aniyev, Z.T. Xudoyqulov. „Kiberxavfsizlik asoslari“ o'quv qo'llanma. Toshkent-2020yil.
3. D.E. Akbarov, P.F. Hasanov, H.P. Hasanov, O.P. Axmedova. „Kriptografiyaning matematik asoslari“ elektron o'quv qo'llanma. 2010yil.

#### **АКТИВ ВА ПАССИВ СЕЙСМИК УСУЛЛАРИ ҲАМДА УЛАРНИНГ АСОСИЙ ВАЗИФАЛАРИ**

*Ҳакимов Содиқжон Расулжон ўғли*

*Наманган муҳандислик-қурилиш институти  
стажёр-тадқиқотчиси.*

*[hakimovsodiqjon@gmail.com](mailto:hakimovsodiqjon@gmail.com)*

**Аннотация.** Мақолада жаҳон амалиётида қўлланиладиган актив ва пассив сейсмик химоя усуллари ҳақида тўхталиб ўтилган. Уларнинг турлари ва классификациялари ҳақида маълумотлар берилган.

**Таянч сўзлар:** актив; пассив; изолатсия; деформатсия; демферлаш; эгилувчанлик.

**Аннотация.** В статье рассматриваются активные и пассивные методы сейсмозащиты, используемые в мировой практике. Даны сведения об их видах и классификациях.

**Ключевые слова:** Актив; пассив; изоляция; деформация; демпфирование; гибкость.

**Abstract.** The article discusses active and passive seismic protection methods used in world practice. Information about their types and classifications is given.

**Keyword:** Active; passive; isolation; deformation; damperlash; elasticity.

**Кириш.** Биноларни сейсмик ҳимоялаш ғоялари қадимги даврларда пайдо бўлган. Бунга мисол қилиб қадимги Рим меъмори Витрувиянинг китобида кўрсатилган сейсмик изоляцияларга мўлжалланган шарлар устидаги бино келтирилган [1]. Баъзи холларда қурувчилар зилзилаларни иншоотларга таъсирини камайтириш учун пойдеворнинг юқорисига юмшоқ прокладкаларни ўрнатиб, биноларни пойдеворлардан ажратишга ҳаракат қилганлар. Қадим замонлардан бери Ўрта Осиёда биноларни қуриш пайтида улар қуйидагиларни ишлатганлар: синч (ёғоч каркас) - у тўлдирилган хом ғишт билан қуруқ ишқаланишни таъминлайди ва бино бутунлай бузилиб кетмаган ҳолда туташган жойларни катта силжишига имкон беради; баъзи ёдгорлик иншоотлари қумли ёстикларга, сўнгра соф лойдан ясалган ёстикларга қурилган; деворларнинг асосларига юмшоқ қамишдан ёки ёғочдан қатламлар ётқизилган, қуруқ ишқаланиш ҳисобига сейсмик кучни камайтиришга имкон беради; иншоот деворларининг қайишқоқлиги (ёпишқоқлиги) юқори бўлган. Бу ерда Республика территориясидаги грунтларнинг айрим турлари ўзлари томонидан тебранишларни сўндириш (демферлаш) хусусиятига эга эканлигини ва булардан оқилона ва тўғри фойдаланиш зарурлигини таъкидлаб ўтиш лозим.

**Татқиқот методологияси.** Бироқ, бу қатламларни қурилган деворларнинг оғирлиги билан пресланиб ва вақт ўтиши билан эскириб бориши, бу қатламларни иншоотлар ва бинолар учун ишончли сейсмик изоляция сифатида хизмат қилишига ишониб бўлмайди.

**Таҳлил ва натижалар.** Юқоридагиларга давоми сифатида юртимизда қад кўтарган меъморий ёдгорликларни мисол қилиш мумкин. Унга кўра меъморий ёдгорликларда ҳам зилзила таъсирини сўндириш мақсадида турли хил конструктив чора-тадбирлар қўлланилган. Пойдевор сатҳида қамишдан қатлам, пойдевор остида қум қатлам, лойдан тўшама, қия қилиб терилган ғиштли деворларда қоришма қатлами қалинлигининг ўзгариши, эластик қоришмаларни қўллаш ва бошқалар зилзила таъсирини сўндириш мақсадида қўлланилган [2]

Пассив сейсмик муҳофаза қилиш принциплари анча анъанавий, кенг тарқалган ва сейсмик таъсирлар натижасида юзага келадиган қўшимча кучларни идрок этишни таъминлашга қаратилган. Шунингдек, пассив сейсмик ҳимоя принципларига меъёрий ҳужжат қоидалари билан тартибга солинадиган бир қатор конструктив чоралар ҳам жавоб беради [3]. Пассив

сейсмик муҳофаза қилиш усуллари ва воситаларидан фойдаланиш, ишнинг характери ва муҳофаза қилинаётган объектни кўтариб турувчи система ўзармаслигини таъминлайди.

Фаол сейсмик муҳофаза қилиш системаларини тадқиқи қилиш ва улардан бино ва иншоотларни қуришда фойдаланишнинг бошланиши ва интенсив ривожланиши XX асрнинг бошларига тўғри келади. Сан-Франциско ва Токио шаҳарларида содир бўлган zilzilалардан кейин бинонинг ер устидаги қисмида инерция кучларини камайтира оладиган унинг ер остидаги қисми конструкцияларига қизиқиш уйғотди. Шундай қилиб, 1925 йилда М.Вискординининг биноларнинг ер ости қисмида ғўлал таянчлар ёки устки ва пастки таянчли сферик колонналар қуриш бўйича таклифлари нашр этилди.

Сейсмик изоляциялаш системаларининг асосий хусусиятларини аниқлаш бўйича таҳлиллар [4] келтирилган.

Мутахассислар томонидан тебраниш жараёни энергиясини сўндириш ва бинони сейсмик таъсирлардан ишончли муҳофаза қилишни таъминлаш имконини берадиган сейсмик изоляция системалари ва тебранишларни сўндиргичларини турли хил қурилмалари таклиф қилинмоқда. Қабул қилинган классификацияга [5, 6] кўра фаол сейсмик муҳофаза системалари куйидаги асосий гуруҳларга бўлинади:


1) қоидага кўра пастки қаватларга жойлаштириладиган биноларни сейсмик изоляциясини қўллаш. Булар турли хил материалларни қўллаган ҳолдаги кўрғошин ўзакли, паст ва юқори тебранишларни сўндирувчи турли модификацияли резинаметал таянчлардир. Кучли таъсир остида бинонинг ер усти қисмини ишқаланиш билан сирғаниш имконини берадиган фриктсион сирғанувчи таянчлар ҳам кўп қўлланилади;

2) zilzilлада асосий юкламани ўзига оладиган жойларда жойлашган, энергияни ютишга имкон берадиган демферловчи мосламаларни қўллаш;

3) zilzilанинг эпицентрал зонасида жойлашган баланд биноларнинг юқори қаватига тебранишларни динамик сўндиргичларини (ТДС) ўрнтаиш. Вертикал сейсмик таъсир устун бўлган бундай ҳолда юқори қаватга динамик сўндиргичларни ўрнатиш, бинони горизонтал таъсирлардан муҳофаза қилувчи пойдеворни сейсмоизоляциясига нисбатананча эффектив сейсмик муҳофаза қилиш усули бўлиши мумкин. ТДС кичик сўнишга эга бўлган конструкциялардаги резонанс характерли тебранишларни сўндиришда ҳам самарали бўлади ва баланд эгилувчан (қайишқоқ) биноларни тебранишларини логарифмик декрементини сезиларли даражада (5-10 марта) оширади; [7.8]


4) баланд қурилишлар учун қўллаш, асосан сейсмоизоляция комбинацияси- пастки қаватда, турли конструкцияли демферлар – бино баландлиги бўйича ва ТДС – юқорида тўлқинни қайтиш эффектини бартараф этиш ва резонанс тебраниш амплитудасини камайтириш учун.

Актив ва пасив сеймик ҳимоя тизимининг таснифланиши куйида 2.10-расмда тўлиқ ифода этилган.



2.10-расм. Сеймик ҳимоя тизимларининг классификацияси ва уларнинг ишлаш тамойиллари

Конструктив амалга ошириш принципларига ёки бинонинг ҳимояланаётган конструкцияси билан динамик ўзаро таъсирнинг характерига кўра ушбу гуруҳларнинг ҳар бири кичик гуруҳларга бўлинади.[9] Масалан сеймик изоляция принципларини амалга оширувчи системалар пастки қисми эгилувчан бўлган системаларга, кинематик, осма ва сирғанувчан таянчли системаларга бўлинади. Адаптив системалар ёқилувчи ва ўчирилувчи алоқали системаларга бўлинади. Юқори демпферли системалар орасида ёпишқоқ ва қуруқ ишқаланиш демпферли системаларни, шунингдек юқори пластик деформация элементли системаларни ажратишади. Тебранишларни сўндирадиган системалар орасида тўлқинларни зарбали ва динамик сўндирувчиларини ажратишади. Фаол сеймик муҳофаза системалари классификацияси 2.11-расмда келтирилган.



2.11-расм. Фаол сейсмик ҳимоя системаси классификацияси

Сейсмик изоляциялаш принципини амалга оширадиган бир нечта мисолларни тавсифлаб берамиз. [43] тасвирланган сейсмик изоляциялашнинг турли усулларнинг афзалликлари ва камчиликлари ҳар бир сейсмик изоляциялаш усули учун қуйида келтирилган.

Биринчи эгилувчан қаватдаги мослама ёрдамида биноларни сейсмик изоляция қилиш ғояси, zilzilalar пайтида эгилувчан конструктив схемали биноларнинг сейсмик реакцияси каттиқ конструктив схемага эга бўлган биноларга қараганда ҳар доим камроқ бўлади деган тушунчага асосланган.

Эгилувчан биринчи қаватли биноларни қурилиши 1930- йилларда АҚШнинг Тинч океан соҳилларида бошланган, кейинчалик улар Италия, Югославия ва СССРда қурила бошланган. Ушбу конструкцияни zilzilabardoш қурилиш амалиётига тадбиқ этишда унинг барча хусусиятлари ва бўлиши мумкин бўлган zilzila турлари ҳисобга олинмаган. Бир қатор zilzilalarнинг оқибатларини ва кучли zilzilalarнинг ёзувларини таҳлили 1-2 с, баъзан 4-5 с гача бўлган даврларда сезиларли тезлашишлар содир бўлганлигини кўрсатди. Агар эгилувчан биринчи қаватли бинолар бундай zilzilalar зонасида жойлашган бўлса, 1967 йилда Каракада содир бўлгани каби уларни халокатли бузилиб кетишига олиб келиши мумкин. 1963 йилда Скопле ва 1977 йилда Бухарестда биринчи қавати тўлдирилмаган каркасли бинолар жиддий зарак кўрган ва вайрон бўлган. Паст частотали тебранишлари устун бўлган zilzilalar жуда кам учрашини ҳисобга олган ҳолда, эгилувчан биринчи қаватли бинолардан сейсмик изоляция воситаси сифатида фойдаланиш мумкин, аммо фақат

қўшимча сейсмик муҳофаза воситалари билан биргаликда. Хусусан, тебранишларнинг динамик сўндирувчилари, ёкилувчи ёки ўчирилувчи алоқалар, ёкилувчи демпферлар ва бошқалар қўлланилиши мумкин.

Биринчи эгилувчан қаватдаги мослама ёрдамида биноларни сейсмик изоляция қилиш ғояси, зилзилалар пайтида эгилувчан конструктив схемали биноларнинг сейсмик реакцияси каттиқ конструктив схемага эга бўлган биноларга қараганда ҳар доим камроқ бўлади деган тушунчага асосланган.

Эгилувчан биринчи қаватли биноларни қурилиши 1930- йилларда АҚШнинг Тинч океан соҳилларида бошланган, кейинчалик улар Италия, Югославия ва СССРда қурила бошланган. Ушбу конструкцияни зилзилабардош қурилиш амалиётига тадбиқ этишда унинг барча хусусиятлари ва бўлиши мумкин бўлган зилзила турлари ҳисобга олинмаган. Бир қатор зилзилаларнинг оқибатларини ва кучли зилзилаларнинг ёзувларини таҳлили 1-2 с, баъзан 4-5 с гача бўлган даврларда сезиларли тезлашишлар содир бўлганлигини кўрсатди. Агар эгилувчан биринчи қаватли бинолар бундай зилзилалар зонасида жойлашган бўлса, 1967 йилда Каракасда содир бўлгани каби уларни ҳалокатли бузилиб кетишига олиб келиши мумкин. 1963 йилда Скопле ва 1977 йилда Бухарестда биринчи қавати тўлдирилмаган каркасли бинолар жиддий зарар кўрган ва вайрон бўлган. Паст частотали тебранишлари устун бўлган зилзилалар жуда кам учрашини ҳисобга олган ҳолда, эгилувчан биринчи қаватли бинолардан сейсмик изоляция воситаси сифатида фойдаланиш мумкин, аммо фақат қўшимча сейсмик муҳофаза воситалари билан биргаликда. Хусусан, тебранишларнинг динамик сўндирувчилари, ёкилувчи ёки ўчирилувчи алоқалар, ёкилувчи демпферлар ва бошқалар қўлланилиши мумкин.

Эгилувчан биринчи қаватли биноларни ҳисоблашда сейсмик таъсирларни тўлқинли характерини ҳисобга олган ҳолда бажариш зарур, чунки эгилувчан биринчи қаватли биноларнинг баъзи қисмларида йиғинди сейсмик кучлар интенсив айланма ҳаракатлар ҳисобига оддий бинога нисбатан хатто кучайиб кетиши мумкин.

**Хулоса ва таклифлар.** Эгилувчан биринчи қаватли сейсмик муҳофаза ечимларининг принципал афзалликлари ва камчиликлари: 1) темирбетон тавсия этилмайди. Чунки бетон майдаланиб кетади ва устунлар яроқсиз ҳолга келади; 2) пўлат устунлар тавсия этилади.

#### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ильичев В. А., Юлдашев Ш. С., Саидов С. М. Исследование распространения вибрации при прохождении поездов в зависимости от расположения железнодорожного полотна // Основания, фундаменты и механика грунтов. – 1999. – №. 2. – С. 12-13.
2. Yuldashev S. S., Boytemirov M. Influence of the level of the location of the railway canvas on the propagation of waves from train motion // ISJ Theoretical & Applied Science, 05 (85). – 2020. – С. 140-143.

3. Yuldashev S. S., Karabaeva M. U. Soil surface vibrations in the training of metro trains in parallel tunnels // ISJ Theoretical & Applied Science, 05 (85). – 2020. – С. 117-121.
4. Mirsaidov M., Boytemirov M., Yuldashev F. Estimation of the Vibration Waves Level at Different Distances // Proceedings of FORM 2021. – Springer, Cham, 2022. – С. 207-215.
5. Yuvmitov A., Hakimov S. R. Influence of seismic isolation on the stress-strain state of buildings // Acta of Turin Polytechnic University in Tashkent. – 2021. – Т. 11. – №. 1. – С. 71-79.
6. Ювмитов А. С., Хакимов С. Р. ИССЛЕДОВАНИЕ ВЛИЯНИЯ СЕЙСМОИЗОЛЯЦИИ НА ДИНАМИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ЗДАНИЯ // Acta of Turin Polytechnic University in Tashkent. – 2020. – Т. 10. – №. 2. – С. 14.
7. Шаропов Б. Х., Хакимов С. Р., Рахимова С. Оптимизация режимов гелиотеплохимической обработки золоцементных композиций // Матрица научного познания. – 2021. – №. 12-1. – С. 115-123.
8. Хакимов С., Шаропов Б., Абдуназаров А. Бино ва иншоотларнинг сейсмик мустаҳкамлиги бўйича хорижий давлатлар (россия, япония, хитой, ақш) меъёрий хужжатлари таҳлили // barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – С. 806-809.
1. Юлдашев Ш. С. и др. Влияние высоты расположения железнодорожного полотна на уровень колебания грунта, возникающего при движении поездов // Научное знание современности. – 2018. – №. 10. – С. 55-57.
9. Юлдашев Ш. С., Карабаева М. У. Прогнозирование уровня вибрации в грунтах, распространяющейся от тоннелей метрополитена круглого сечения // Молодой ученый. – 2016. – №. 6. – С. 249-253.

**BASED ON ACCEPTABLE PARAMETERS OF CLEANING EFFICIENCY  
OF A ROTOR-FILTER DEVICE EQUIPPED WITH A SURFACE  
CONTACT ELEMENT**

*Alizafarov Bekzod Musajonovich*  
assistant, Ferghana Polytechnic Institute,  
Republic of Uzbekistan  
ORCID:0000-0002-4637-7124  
[b.alizafarov@ferpi.uz](mailto:b.alizafarov@ferpi.uz)

*Madaminova Gulmira Ikromaliyevna*  
assistant, Ferghana Polytechnic Institute  
Republic of Uzbekistan  
(ORCID:0000-0002-4112-7839)  
[g.madaminova@ferpi.uz](mailto:g.madaminova@ferpi.uz)

*Abdulazizov Abdulloh Abduqaxxor o'g'li*  
assistant, Fergana Polytechnic Institute  
Republic of Uzbekistan  
[abdulloh.abdulazizov@ferpi.uz](mailto:abdulloh.abdulazizov@ferpi.uz)

**Abstract.** In the article, the influence of various parameters of the surface contact element of the rotor-filter apparatus for dust gas cleaning in the wet method on the cleaning efficiency of the device is studied. Variable factors in experimental studies are the diameter of the liquid nozzle  $d_n=2$  mm, liquid consumption  $Q_{liq}=0.071\div 0.272$  m<sup>3</sup>/h, the diameter of the filter hole  $d_f=3$  mm, the angle of installation of the contact element on the rotor  $\alpha = 30^\circ$ ; The number of  $45^\circ$  and  $60^\circ$  contact elements is 12, corresponding to the installation angle; 8 and 6 units, gas velocity  $v_g=5\div 25$  m/s is selected. gas density is determined as  $\rho_g=1.89$  kg/m<sup>3</sup> and 360.3 mg/m<sup>3</sup> for a mixture of air and dolomite dust.

The obtained results showed that it is possible to achieve a 23.45% higher efficiency in cleaning dust particles up to  $1\div 5$  mkm and 3.05% in cleaning dust particles up to  $5\div 20$  mkm compared to the existing structure.

**Keywords:** hydraulic resistance, liquid consumption, liquid film layer, surface contact element, rotor-filter, mass exchange, cleaning efficiency.

**Аннотация.** В статье исследовано влияние различных параметров поверхности контактного элемента роторно-фильтрующего аппарата для очистки пылегазогаза мокрым способом на эффективность очистки аппарата. Варьируемыми факторами в экспериментальных исследованиях являются диаметр жидкостного сопла  $d_n=2$  мм, расход жидкости  $Q_{ж}=0,071\div 0,272$  м<sup>3</sup>/ч, диаметр отверстия фильтра  $d_f=3$  мм, угол установки контактного элемента на роторе.  $\alpha = 30^\circ$ ; Количество контактных элементов  $45^\circ$  и  $60^\circ$  — 12, что соответствует углу установки; 8 и 6 ед. выбирается скорость газа  $v_g=5\div 25$  м/с. плотность газа определяется как  $\rho_g=1,89$  кг/м<sup>3</sup> и 360,3 мг/м<sup>3</sup> для смеси воздуха и доломитовой пыли.

Полученные результаты показали, что можно достичь повышения эффективности очистки пыли размером до  $1\div 5$  мкм на 23,45 % и очистки пыли размером до  $5\div 20$  мкм на 3,05 % по сравнению с существующей конструкцией.

**Ключевые слова:** гидравлическое сопротивление, расход жидкости, пленочный слой жидкости, поверхностный контактный элемент, ротор-фильтр, массообмен, эффективность очистки.

**Annotatsiya.** Maqolada chang gazini nam usulda tozalash uchun rotor-filtr apparatining sirt aloqa elementining turli parametrlarining qurilmaning tozalash samaradorligiga ta'siri o'rganiladi. Eksperimental tadqiqotlarda o'zgaruvchan omillar sifatida suyuqlik soplosining diametri  $d_n=2$  mm, suyuqlik sarfi  $Q_{liq}=0,071\div 0,272$  m<sup>3</sup>/soat, filtr teshigi diametri  $d_f=3$  mm, kontakt elementining rotorga o'rnatilishi burchagi hisoblanadi.  $\alpha = 30^\circ$ ;  $45^\circ$  va  $60^\circ$  aloqa elementlarining soni 12 ta, o'rnatish burchagiga mos keladi; 8 va 6 birlik, gaz tezligi  $v_g=5\div 25$  m/s

tanlangan. gaz zichligi  $\rho_g=1,89 \text{ kg/m}^3$  va havo va dolomit chang aralashmasi uchun  $360,3 \text{ mg/m}^3$  deb aniqlanadi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, mavjud tuzilishga nisbatan  $1\div 5 \text{ mkm}$  gacha bo'lgan chang zarralarini tozalashda  $23,45\%$  va  $5\div 20 \text{ mkm}$  gacha bo'lgan chang zarralarini tozalashda  $3,05\%$  yuqori samaradorlikka erishish mumkin.

**Kalit so'zlar:** gidravlik qarshilik, suyuqlik iste'moli, suyuqlik plyonka qatlami, sirt aloqa elementi, rotor-filtr, massa almashinuvi, tozalash samaradorligi.

**Introduction.** It is urgent to increase the contact surfaces in wet gas cleaning devices and thereby justify the optimal parameters of hydraulic resistance, cleaning efficiency and energy consumption. Therefore, most of the scientific and research works carried out in this field are aimed at increasing the contact elements of the device, creating a simple construction of the element, and studying the hydrodynamic and mass machining processes. It is known from the results of previous scientific research that the simplification of the design of the surface contact element reduces the hydraulic resistance in the device, but has a negative effect on the cleaning efficiency of the device. In addition, it increases the outflow of liquid droplets along with the purified gas from the device.

Taking into account the information given above, the constructive scheme of the rotor-filter device was developed [1], the existing device belongs to the technique of wet cleaning of dusty gases generated in the chemical industry and construction materials production enterprises.


The device consists of a rotating rotor and a filtering mesh material covered on its upper part, a diffuser that directs dusty gases perpendicular to the surface of the mesh material, a nozzle that disperses the liquid in the ejection method, a screen that spreads the liquid evenly on the surface of the filter, a cylindrical body equipped with a bath for collecting the working fluid and a sludge discharge pipe, and purified air. consists of a confusor that discharges into the atmosphere. When the dusty gas flow moves through the diffuser and hits the filter surface perpendicularly, the liquid film formed on the working surface of the filter is cleaned of dust particles. The purified gas is released into the atmosphere through the condenser.

In the conducted research [2,3,4], the effect of hydraulic resistance of the device on cleaning efficiency and energy consumption was studied. A rotating rotor in the form of a cylinder was used as a contact element. The upper part of the rotor is covered with poronite material as a filter and small diameter holes are opened [2,5,6]. Based on the research, the optimal parameters of the device are based and mathematical connections are obtained.

However, the laws of change of hydraulic resistance of the device, cleaning efficiency and energy consumption in different designs of surface contact elements in the rotor-filter device have not been studied. Therefore, this research work is aimed at the application of the surface contact element of a new design in the rotor-filter device and the justification of its optimal parameters.


**Research object.** Based on the above, a new design scheme of the surface

contact element to be installed on the rotor of the device was developed. The advantage of the surface contact element over the surface contact elements of the existing wet dust cleaning devices is that, firstly, its working surface is changed quickly and provides an increase in the contact surface of the filter. Secondly, the installation of the filtering nets on the shaft at a certain degree of inclination makes it possible to completely cover the gas flow on the working surface. The device equipped with the surface contact element of the new design and the overview of the surface contact element are shown in Figures 1 and 2. Experimental studies were conducted in two stages.



1–diffuser; 2–cylindrical body; 3–confuser; 4–working fluid nozzle; 5–probe; 6–surface contact element; 7–liquid bath; 8–slurry pipeline; 9–straightening pipe.

**Figure 1. Scheme of the device equipped with a surface contact element.**




1–shaft; 2–pole rod; 3–filter; 4–connecting rod.


**Figure 2. Overview of the surface contact element.**

**Research results.** At the first stage, the hydraulic resistance of the device was determined for various parameters of the surface contact element. The study of hydraulic resistance in the following limits of variable factors, the diameter of the liquid nozzle  $d_n=2$  mm, the liquid consumption  $Q_{liq}=0.071\div 0.272$  m<sup>3</sup>/h, the intermediate step increased to 0.060 m<sup>3</sup>/h, the diameter of the filter hole  $d_f=3$  mm, the angle of installation of the contact element on the rotor  $a=30^\circ$ ; The number of


45° and 60° contact elements is 12, corresponding to the installation angle; 8 and 6 pieces, gas speed  $v_g=5\div 25$  m/s, the intermediate step was increased by 5 m/s. In the experiments, the frequency of rotation of the rotor at an average value of  $n=25$  rev/min, the gas density  $\rho_g=1.29$  kg/m<sup>3</sup> for air and  $\rho_g=1.89$  kg/m<sup>3</sup> for the mixture of air and dolomite dust (in which 1 m<sup>3</sup> of air contains dolomite dust PDK demand and 360.3 mg/m<sup>3</sup>) according to GOST-23672-79. Taking into account the influence of the external environment during the experiments, the temperature for the water and gas system was set at 20<sup>0</sup>C±2. Based on the results of the experiment, comparison graphs were built on the dependence of hydraulic resistance on fluid consumption. (Figures 3; 4 and 5).



1 –  $v_g=5$  m/s; 1 –  $v_g=10$  m/s; 1 –  $v_g=15$  m/s; 1 –  $v_g=20$  m/s; 1 –  $v_g=25$  m/s.  
**Figure 3.**  $a= 30^\circ$  and  $\rho_g=1.89$  kg/m<sup>3</sup> Dependence of hydraulic resistance  $DP_s$  on liquid consumption  $Q_{liq}$  at



1 –  $v_g=5$  m/s; 1 –  $v_g=10$  m/s; 1 –  $v_g=15$  m/s; 1 –  $v_g=20$  m/s; 1 –  $v_g=25$  m/s.  
**Figure 4.**  $a= 45^\circ$  va  $\rho_g=1.89$  kg/m<sup>3</sup> hydraulic resistance  $DP_s$  dependence of liquid consumption  $Q_{liq}$



1 – v<sub>g</sub>=5 m/s; 2 – v<sub>g</sub>=10 m/s; 3 – v<sub>g</sub>=15 m/s; 4 – v<sub>g</sub>=20 m/s; 5 – v<sub>g</sub>=25 m/s.  
**Figure 5.** a= 60° va ρ<sub>g</sub>=1.89 kg/m<sup>3</sup> hydraulic resistance Dependence of fluid consumption Q<sub>liq</sub>

3; From the comparison graphs in Figures 4 and 5, it can be seen that gas density ρ<sub>g</sub> =1.29 kg/m<sup>3</sup>, liquid consumption Q<sub>liq</sub>=0.071÷0.168 m<sup>3</sup>/h, intermediate step 0.060 m<sup>3</sup>/h, v<sub>g</sub> =5÷25 m/s intermediate step 5 m when increasing with /s and at the angle of installation of the surface contact element to the rotor at a=60°, the hydraulic resistance DP=55.3 Pa to DP<sub>s</sub>=4555 Pa, at the installation angle of the surface contact element to the rotor at the angle a=45°, the hydraulic resistance from DP=64.5 Pa It was observed that the hydraulic resistance increased from DP<sub>s</sub>=4716 Pa and at the mounting angle of the surface contact element to the rotor a=30° from DP<sub>s</sub>=80 Pa to DP<sub>s</sub>=5116 Pa. At the gas density ρ<sub>g</sub>=1.89 kg/m<sup>3</sup>, the hydraulic resistance DP=81 Pa to DP<sub>s</sub>=6674 Pa at the angle of installation of the contact element on the rotor a=60°, the hydraulic resistance DP=94 at the installation angle of the surface contact element on the rotor a=45°,

This situation can be explained by the thickening of the liquid film layer formed on the surface of the contact element with increasing liquid consumption, as a result of which the resistance of the contact element increases. In addition, the increase in the density of the gas and dust mixture has a significant effect on the hydraulic resistance. Therefore, it is necessary to take into account the type of dust, its physico-chemical properties and PDK requirement, as well as the density of the gas and dust mixture, when studying the cleaning efficiency of the device.

3; To the graphical relationships presented in Figures 4 and 5 (gas density supplied to the device ρ<sub>g</sub>=1.89 kg/m<sup>3</sup> and liquid consumption Q<sub>liq</sub>=0.071÷0.168 m<sup>3</sup>/h when the intermediate step increases by 0.060 m<sup>3</sup>/h) using the method of least squareempirical formulas were obtained[2,13,14];

**When the angle of installation of the contact element on the rotor is a=30o and the number of elements is 12 pieces.**

$$v_g = 5 \text{ m/s, } y = 18805x^2 - 3366.6x + 233.66R^2 = 0.9560(1)$$

$$v_g = 10 \text{ m/s, } y = 75390x^2 - 13507x + 936.76R^2 = 0.9559$$

(2)

$$v_g = 15 \text{ m/s}, y = 169750x^2 - 30417x + 2109R^2 = 0.9559(3)$$

$$v_g = 20 \text{ m/s}, y = 301553x^2 - 54016x + 3745.3R^2 = 0.9559(4)$$

$$v_g = 25 \text{ m/s}, y = 464987x^2 - 83369x + 5842.5R^2 = 0.9446(5)$$

**When the angle of installation of the contact element on the rotor is  $\alpha = 45^\circ$  and the number of elements is 8 pieces.**

$$v_g = 5 \text{ m/s}, y = 19680x^2 - 3548.8x + 224.56R^2 = 0.9734(6)$$

$$v_g = 10 \text{ m/s}, y = 79085x^2 - 14293x + 903.72R^2 = 0.9719(7)$$

$$v_g = 15 \text{ m/s}, y = 177793x^2 - 32120x + 2031.4R^2 = 0.9719(8)$$

$$v_g = 20 \text{ m/s}, y = 313574x^2 - 56509x + 3580.8R^2 = 0.9718(9)$$

$$v_g = 25 \text{ m/s}, y = 493622x^2 - 89164x + 5639.3R^2 = 0.9719(10)$$

**When the angle of installation of the contact element on the rotor is  $\alpha = 60^\circ$  and the number of elements is 6 pieces.**

$$v_g = 5 \text{ m/s}, y = 21218x^2 - 3897.3x + 233.32R^2 = 0.9706(11)$$

$$v_g = 10 \text{ m/s}, y = 84722x^2 - 15550x + 931.23R^2 = 0.9707(12)$$

$$v_g = 15 \text{ m/s}, y = 190553x^2 - 34971x + 2094.1R^2 = 0.9705(13)$$


$$v_g = 20 \text{ m/s}, y = 338856x^2 - 62209x + 3726.2R^2 = 0.9706(14)$$

$$v_g = 25 \text{ m/s}, y = 529680x^2 - 97253x + 5824.8R^2 = 0.9706(15)$$

In the second stage, the influence of the hydraulic resistance of the device on the cleaning efficiency was studied. The results of the experiment on determining the hydraulic resistance and the research work of KTSemrau [2,7] were used in the research of the cleaning efficiency of the device. From the research work of KTSemrau, it is known that the cleaning efficiency depends on the hydraulic resistance of the device and does not depend on the size and construction of the device. In this case, the total energy consumption should be spent on the cleaning of dusty gases with the help of liquids. Based on the above, the influence of the hydraulic resistance of the structure on the cleaning efficiency was studied. In the experiments, the following limits of the variable factors, the diameter of the liquid nozzle  $d_n = 2 \text{ mm}$  [8,9,10,11,12], the liquid consumption  $Q_{liq} = 0.071 \div 0.272 \text{ m}^3/\text{h}$ , the intermediate step increased by  $0.060 \text{ m}^3/\text{h}$ , the diameter of the filter hole  $d_f = 3 \text{ mm}$ , the angle of installation of the contact element to the rotor  $\alpha = 30^\circ$ ; The


number of 45o and 60o contact elements is 12, corresponding to the installation angle; 8 and 6 pieces, gas speed  $y_g=5\div 25$  m/s, the intermediate step was increased by 5 m/s. In the experiments, the frequency of revolutions of the rotor was measured at an average value of  $n=25$  rev/min, gas density  $\rho_g=1.89$  kg/m<sup>3</sup> for a mixture of air and dolomite dust (in which 1m<sup>3</sup> of air contains dolomite dust according to PDK requirements and 360.3 mg/ m<sup>3</sup>) was determined. Taking into account the influence of the external environment during the experiments, the temperature for the water and gas system was set at  $20^{\circ}\text{C}\pm 2$ . Based on the obtained experimental results, comparison graphs were constructed on the effect of hydraulic resistance on cleaning efficiency. (Figures 6; 7 and 8). Taking into account the multifactorial nature of the experiments, graphs were constructed for lower and higher gas velocity loads.

6; 7 and 8- it can be seen from the information given in the pictures made up 14%. The intermediate increase did not exceed 15%.




<sup>3</sup> Носируддин Бурҳонуддин Рабғузий. Қиссаси Рабғузий. –Тошкент: Ёзувчи, 1990. – 103 б.

Адабиётшунос ва ёзувчи Улуғбек Ҳамдамнинг ҳам худди шу ном билан аталадиган асари мавжуд. Унда Юсуф ва Зулайҳо бозорга киришади, аммо бозордан чиқиб кетиш йўлини топа олишмайди. Асар бошдан-охир рамзий-мажозийликка йўғрилган. Уларнинг бир-бирларини йўқотиб қўйишлари, чойхоначи томонидан бозордан фақат қабристон орқали чиқиш мумкинлиги, Зулайҳонинг тилла буюмлар сотиладиган дўконда пайдо бўлиб қолиши, Юсуфнинг бозорбоши бўлиши, барча-барча воқеалар рамзий-мажозий характерга эга. Асарда бўлиб ўтадиган воқеалар синчковлик билан кузатилса, машҳур қиссанинг бадий синтези эканлиги сезилади. Ижодкорнинг вазифаси барча замонларда бир хил бўлган. Инсонни тўғри йўлга бошлаш, хидоят йўлини кўрсатиш, уни чин саодатга бошлаш демакдир.

Шарқ халқлари адабиётларида Ибн Синогача ва ундан кейин ҳам хаёлий сайр, илоҳий олам тасаввурлари воситасида асар ёзиш анъана бўлган. Эроншунос олим Э.Блошэ «Илоҳий комедия»нинг шарқий манбалари» мақоласида келтиришича, Дантенинг «нариги дунё»га саёҳати Зардушт динидаги тақводор Вираф тушларининг акс - садосидир. Шоир буни ислом ақидалари орқали қабул қилган бўлиши керак, дея таъкидлайди олим<sup>[4]</sup>.

Шарқ халқлари орқасида араб, форс ва туркий тилларда кенг тарқалган «Меърожнома» деб номланган яратмалар шундай асарлардандир. Уларда Муҳаммад Мустафо Пайғамбарнинг осмонга кўтарилиб, Аршда Худо даргоҳига ташрифи дўзаху жаннатни айланиб чиққани, гуноҳкорларнинг укубату ҳасратлари, покдомон руҳларнинг эса беҳиштдаги роҳат - фароғатлари куйланади.

Диний эзгу мақсадларни кўзлаб, ислом динини янада мустаҳкамлаш каби улуғ ниятда битилган бу хаёлий - илоҳий қиссаларда зўр эхтирос билан яратилган эпизодлар сон - саноксиз.

X аср шоири Шайх Авҳаддин Кирмонийнинг «Мисбоҳул арвоҳ» (Руҳлар чироғи) асарида ҳам хаёлий - илоҳий саёҳат воситаси орқали аллегорик маъно - мазмун ўз ифодасини топган.

Академик А.Веселовский фикрича, бундай асарлар ўрта аср христиан адабиётида ҳам, Шарқда ҳам кўп бўлган. Чунончи, руҳлар гўдаклигида у дунёга олиб кетган бола ҳақидаги осетин эртаги, ўлдирилган акасини излаб, дўзахга йўл олган Кубайко исмли қиз тўғрисидаги татар халқ эртаги ва баъзи хинд афсоналари «Илоҳий комедия» асарининг муштарак шаклга оид параллелларини ташкил этадилар<sup>[5]</sup>.

IX асрда яшаб ижод этган улуғ мутафаккир, буюк инсонпарвар шоир Абу Аълоал - Мааррий «нариги дунё» тўғрисидаги диний афсоналардан кенг фойдаланиб, «Рисолатул –уфрон», («Миннатдорлик мактублари»), «Рисолатул малоик» («Малоикалар (фаришталар хабари)» дostonларини ёзиб, уларда замонасининг жоҳил, нодон руҳонийларини, ҳовлиқма, лақма

<sup>4</sup> Қаранг: «Арабская средневековая культура и литература» (Статьи зарубежных ученых). – Москва.: Наука, 1978. – 204 с.

<sup>5</sup> Қаранг: «Дантевская чтения». – Москва: Наука, 1973. – 115-116 с.

одамларни сатирик тарзда мазах қилган. Абу Аъло гўё у дунёга саёхат қилиб, ўз муҳолифларини учратиб қолади. Уларнинг аҳволи, дўзах дарвозабони иблис Молик қилаётган ишларни бевосита кузатади. Ва ўзининг ёвуз, иккиюзламачи нокасларга нисбатан нафратини талқин этади<sup>[6]</sup>.

Шарқнинг атоқли санъаткорларидан бири Абулмажид Санойининг «Сайрул ибод илал маод» («Бандаларнинг сайр қилиб, ўз жойларига қайтишлари») достони бунинг яна бир ёрқин мисолидир. Туб мазмуни, образлари ва тузилиши билан бу асар «Илоҳий комедия»га ҳам шаклан, ҳам мазмуни билан яқиндир. Шарқшунос олим профессор Е.Бертельс ўз вақтида бу асарга илмий жамоатчилик эътиборини қаратган ва анча батафсил таҳлил қилган эди<sup>[7]</sup>.

Қатор фалсафий ҳамда орифона дostonлари билан шуҳрат қозонган Санойи Балхий (XI-XII асрлар)нинг мазкур асари 23 фасл, муқаддима ва хотима бобларидан иборат. Унда шоирнинг ҳаёлан нариги дунёга саёхати тасвирланган. «Дўзах» қатламларидаги азоб - қийноқлар манзараси чизилади. Муқаддимада ўсимлик жони («нафси нумўя»), ҳайвон жони («руҳи ҳайвоний»), инсоний руҳ ҳақида фикр юритилади.

**Тадқиқот методологияси Research Methodology.** Инсоний руҳ олами асарда бир афсонавий шаҳар сифатида тасвирланган. Бу шаҳар аҳли ўзлари ва ўз авлодларидан бошқани ўйламайдилар. Бинобарин, ўзаро курашлар, уруш ва жанжаллар чангалида яшайдилар. Шаҳарнинг ташқи кўриниши гўзал, аммо ичкараси хунук, жирканчдир. Шаҳарнинг нур, олов ва қоронғиликдан иборат учта ҳокими бор. Булар ҳам фақат ўз манфаатларини ўйлайдилар. Иккита отлари (кеча ва кундуз) борки, улар ўз суворийларини ейиш пайида юрадилар. Бу босқичда инсон ҳаёти ҳайвоний ҳаётга ўхшашдир. Фақат нафси гўё (руҳи нотика)гина уни бу «биродарлари»дан халос қила олади.

Шоир қоронғулик оламида юзидан нур ёғилиб турган мўйсафидни кўриб қолади. Бу нафси оқила (ақл)дир. Мўйсафид шоирни рамзий мамлакат сайрига бошлайди. Сафар энг қуйи унсур – ер (ҳаюло)дан бошланади. Бу жойда зулумот ҳам қоронғулик ҳукмрон. Одамхўр махлуқлар, заҳарли илонлар, бўри, аждарҳо, ғуж-ғуж чаёнлар ваҳима солиб турибдилар. Уларнинг ҳаммасини Кобон бошқаради. Кейинги бобда йўловчилар боши битта, юзи етгита, тўрт кафтли баҳайбат афъюн қиёфасидаги махлуққа дуч келадилар. Бу ҳирс, очкўзлик ва хасислик тимсоли. Санойи кўрқиб кетади, аммо мўйсафид бир ишора билан уни даф этади. Илон йўлдан четлашгач, шоир яна ўз раҳнамози билан олға қадам босади. Бундан кейинги бобда улар тили юрагида – ю, кўзи бўйнида бўлган девлар (ҳасад рамзи) юртига келиб қоладилар.

Саккизинчи бобда устини тутун қоплаган тошлоқ саҳро кўринишидаги таъма пайдо бўлади. Унда доимо ёввойи ҳайвонлар ҳайрону сарсон

<sup>6</sup> Бу ҳақда батафсил қаранг: Комилов Н. Ибн Сино ва Данте. – Тошкент: Фан, 1983. – 21-24 б.

<sup>7</sup> Бертельс Е.Э. История персидско-таджикской литературы. – Москва: Наука, 1990. – 460 с.

кезадилар. Уларнинг бошлари фақат кўздан, қўллари нукул бадандан иборат. Бу вилоятдан кейин йўловчилар ўтишлари лозим бўлган пўртанали денгизга дуч келадилар. Саной ваҳимага тушар экан, Мўйсафид: Агар сен хайвоний хисларни орқада қолдирсанг, бу денгиздан эсон-омон ўтасан, деб маслаҳат беради. Демак, адиб донишмандлик билан чин инсоний фазилатлар силсиласини олға сурган. Бинобарин, юксак инсоний маънавиятга эришиш – улкан, кўрқинчли денгизлардан сузиб ўтиш каби машаққатли вазифа эканлигини уқтирмоқчи.

Ниҳоят, шоир нурлари кўзни қамаштирувчи юртга қадам қўяди. Бу – ақли мукамал бўлган ибратлар мамлакатидир. Билим, маърифат ошиқлари шу ердалар. Соҳибдил, солиҳ дарвишлар ҳам унинг ҳомийлигида бахтиёрдирлар. Мўйсафид, шоирни яна олға боришга ундаб, ўзи орқага қайтади. Чунки бундан кейинги мамлакатлар сафарига унинг раҳнамолигига ҳожат йўқ эди.

Саной тарикат аҳли билан юз кўришади, кейин уларнинг маслаҳатига кўра яна олдинга – Буюк муҳаббат даргоҳига интилади.

Охирги боб эса Мусаффо Хайрни мадҳ этишга бағишлангандир. Дантенинг «Илоҳий комедия»сида ҳам мана шу мавзунинг бадиий синтезини кўриш мумкин.

Шундай образлар бўладики, давр танламайди. Ҳазрати Хизр, Луқмони ҳаким, Афанди, Авлиё образларининг генезиси халқ оғзаки ижоди, ислом дини билан боғлиқ, унда ҳам синкретизм, ҳам бадиий синтез ҳодисасини кузатиш мумкин. Авлиё образи баъзан аниқ бир шахс, баъзан номаълум бир зот тимсолида гавдаланади. Унинг барча асарлардаги вазифаси бир хил: одамларга ёрдам беради, оғир вазиятлардан олиб чиқади, мушкулларини енгиллаштиради, тўғри йўл кўрсатади, хавф-хатардан огоҳлантиради.

**Таҳлил ва натижалар (Analysis and results).** Юқорида таъкидлаганимиздек, образлар сатҳидаги бадиий синтез энг қадимги манбаларимизга бориб тақалаши билан бир қаторда бугунги ҳикояларимизда ўзига хос тарзда бўй кўрсатади. Ижодкорларимизда ворисийлик анъанаси нафақат услубларида, балки образ яратиш маҳоратларида ҳам кўриниб туради.

Адабиётшунос Дамин Тўраев Ўзбекистон халқ ёзувчиси Исажон Султоннинг “Боқий дарбадар” романи ҳақида қўйидагича фикр билдиради: “Истеъдодли ёзувчи Исажон Султон ўзининг “Боқий дарбадар” номли романида инсоният тарихи ва ҳаётнинг абадияти хусусида ҳаёт аро маъносиз дайдиб, қилар ишлари “ҳеч нарса ва фақат ҳеч нарса” бўлиб қолган кишиларнинг “боқий дарбадар”га айланишини талқин қилади.”<sup>[8]</sup> Муаллиф таъкидлаган ёзувчининг поэтик концепцияси тўпламдаги “ТОДД”, “Боғи “Эрам”, “Авлиё”, “Қисмат”, “Ориф”, “21 асрнинг 8 яшар боласи”, “Исмсиз қахрамон” ҳикояларида ҳам бўртиб туради.

<sup>8</sup> Тўраев. Д. Маънавий олам талқинлари. – Тошкент: Академнашр, 2020. – 182 б.

Мазкур ҳикояларда инсон тақдири, қазо ва қадар, инсонни бахтга бошлаб борадиган йўл, ҳар бир қилинган амалнинг, айтилган сўзнинг, мияда кечган фикрнинг инсон қисматига дахлдор эканлиги, ҳаётнинг маъноси ўзини ва ўзини Яратганни англашда эканлиги тўғрисида бир-бирига ўхшамайдиган воқеалар баён қилинган.

“Боғи Эрам” ҳикояси бедазор тасвири билан бошланади. Унда “...иссиқда ўт-ўланлар орасига тушиб қолган асаларилар бўғиқ гўнғиллашар эди. Бедазорнинг ниҳоясидан зилол сувли ариқ оқиб ўтган эди”. Ҳикоя қаҳрамони ва ўртоғи билан онаси ёпган нонлардан бирини олиб қочиб, ариққа оқизаётган вазиятда танишамиз. У саккиз-тўққиз яшар болакай. Шунда кўчанинг бошида, лойсувоқ уйининг олдида доим қуёшда исиниб ўтирадиган Холмуҳаммад бува уларнинг олдига келиб, болаларнинг ўйинларига бироз термулиб туради ва болалар салдан кейин эса унинг кўзларининг ёшланганлигини кўриб қолишади.

“– Нимага йиғлаяпсиз, бува? – деб сўрадим мен.

Чол соқоли титраб:

– Бир маҳаллар мен ҳам онам ёпган нонни шунақа оқизиб ер эдим, ўшани эслаб йиғлаяпман, болам. Эвоҳ, ўзим ҳам шу ариқдаги нондай оқдим-кетдим... – деди. Нон егиси келяпти, деб ўйладимми, ҳар ҳолда ўзимнинг сувга бўккан нонимни олиб, унга узатганим эсимда. Чол бўлса нонни олди-ю ҳеч уялиб-нетмасдан, ҳўнграб йиғлаб юборди.

Бизлар анграйиб қолдик.

Чол, кўлида бир бурда нон, кўзида ёш, яна имиллаб йўлида давом этди”<sup>[9]</sup>.

Ҳикоя қаҳрамони ҳаёти давомида мўъжизага дуч келади ва улар боланинг тақдирига дахлдор. Қулаган девор ўрнида пайдо бўлган каттакон дарвозадан кириб келган чол Ҳаёт рамзи, у ўзининг ўтган умрига ачиниб йиғлайди, балки имкон бўла туриб қилмаган яхшилик, саховати ёки бировнинг кўнглини оғритгани, хафа қилгани учундир. Аммо адиб бунга ҳеч қандай изоҳ бермайди. Ҳикоя янада қизиқарли тус олади:

“Унинг ортидан қарайман деб ариқдан ҳатладиму чол ҳам эсимдан чиқиб, кўзларим бақрайганча қотиб қолдим. Нимани кўрдинг денг? Қопқалари тилладан, тутқичлари биллурдан бўлган бир боғнинг қаршисида кўрдим ўзимни! Қопқа ёнида, биллур ҳалқани тутиб турган мен қатори бир болакай менга қараб кулар ва ичкарига имлар эди.

Олдинга икки қадам босиб, боққа мўраладим. У ерда нималарни кўрганимни айтолмайман, айтганим билан қанақадир заминий нарсаларга ўхшаб қолаверади. У ердаги дарахтлар, бизнинг кўрганимиз одатдаги дарахтларга ўхшаб кетгани билан, мутлақо бошқача эди. У ердаги қушлар, сувлар... Бу боғ самовий эди! Ғоятда гўзал эди! Бу гўзалликка мос таъриф тополмай ўртанаман.

<sup>9</sup> Султон И. Асарлар. 1-жилд. Ҳикоялар. –Тошкент: Ғафур Ғулом, 2017. Боғи Эрам. –48 б.

Боғ мени ўзига шу қадар мафтун этдики, олдинга беихтиёр яна бир қадам қўйдим. Тагин бир қадам қўйсам, боғ ичкарисидаман. Ҳилпираб учаётган олтин ниначиларни тутиб олишим, хув анави зар қанотли Семурғ билан суҳбатлашим ҳеч гап эмас...»<sup>[10]</sup>

Бола қопқанинг шундоқ ёнгинасида жудаям улкан шохлари булутлар орасида кўзга кўринмай кетган бир яшил дарахтни кўриб қолади. Ҳар замон-ҳар замонда шохларидан япроқлар узилиб тушаётган сарғайган бир барг унинг оёғи остига келиб тушади. Бола баргда ёзув борлигини, сарғиш томирчалари бўртиб турган япроқ сиртига «Холмуҳаммад Зиё ўғли» деб битилганини кўради.

Орадан йиллар ўтади, болакай улғаяди ва ўзи ҳам ота бўлади. Аммо бу пайтга келиб бедазор кичкинагина бўлиб қолган, ариқ эса кўмилаёзганди. У ўғлига боғдан гилос териб бермоқчи бўлганида иккинчи бор мўъжизага дуч келади.

“Гилос шохлари орасидан яна ўша сирли боғ намоён бўлган эди. Ўша-ўша! Қопқалари тилладан, тутқичлари марвариддан... Эшик олдида қоп-қора соқол-мўйловли ёшгина дарбон менга кулиб қараб турар эди. У мени таниган эди, мен ҳам уни танидим. У имо қилиб, ичкарига чорлар эди”<sup>[11]</sup>.

Бола гуллар ғунчалаб, ўша заҳоти очилаётганлигини, дарвоза ёнида баҳайбат бир дарахт юксалиб турганлигини, япроқлари чирт-чирт узилаётганини кўради. Кўнглимдан «Тўби дарахти шу эмасмикин», деган ўй кечади. Бу сафар у оёғим остига узилиб тушган япроққа қараб отасининг исми битилганини кўради. Уйига қайтгач, отасининг ёруғ оламини тарк этганлиги устидан чиқади ва бу боғдан чўчийдиган бўлиб қолади.

Ҳикоя қаҳрамони боғни учинчи дафъа кўрганида ёши анчага борган, соч-соқоли оқарган эди. У бу галги зухуротидан ғалати бир ҳикмат туйса-да, тубига етолмайди. Энди у эшикдаги дарбоннинг ҳам сочларига оқ оралаганлигини, боғ ичида эрта куз бошланаётганлигини ва оёғи остига келиб тушган япроқда болалиқдан бирга ўйнаб катта бўлган дўстининг исми ёзилганлигини кўради.

У саодат боғини тўртинчи дафъа кўрганида сал нарида иккита болакай ариқда нон оқизишаётганига гувоҳ бўлади ва уларга қараб кўз ўнгидан болалиги, ота-онаси, қайноқ нонлар ўтади. Шунда “Болакайларнинг бири мени кўриб қолди. Ҳайрон бўлгандек, кўзларини пирпиратиб қараб турди-да:

– Нимага йиғляяпсиз, бува? – деб сўради.

– Воҳ болам-а! Нега йиғламайин, кўнглимдан ўтганини қандай қилиб айтмайин? Ахир, мен ҳам бир маҳаллар онам ёпган нонларни сизлар каби ариқда оқизиб ер эдим... Эвоҳ, ўзим ҳам шу ариқдаги нондай оқдим-кетдим-ку!”<sup>[12]</sup>

<sup>10</sup> Султон И. Асарлар. 1-жилд. Ҳикоялар. –Тошкент: Фафур Фулом, 2017. Боғи Эрам. –49 б.

<sup>11</sup> Султон И. Асарлар. 1-жилд. Ҳикоялар. –Тошкент: Фафур Фулом, 2017. Боғи Эрам.–50 б.

<sup>12</sup> Султон И. Асарлар. 1-жилд. Ҳикоялар. –Тошкент: Фафур Фулом, 2017. Боғи Эрам.– 48 б.

Ҳикоянинг қисқача мазмуни шундан иборат, унда инсон умрининг тўрт даври акс этган. Ҳазрат Навоий ҳам инсон умрини тўрт даврга ажратган эканлар. Халқ орасида тўрт кунлик дунё деган ҳикмат ҳам тез-тез такрорланади. Ёзувчи рамз ва мажозлар воситасида инсон умрининг ўткинчилиги, унинг ҳеч бир лаҳзасини ортга қайтаришнинг имкони йўқлигини, ҳамма нарса, ҳатто одамлар ҳам омонатлигини эслатади. Хаёл ва ҳаёт, тафаккур ва тахайюл, тириклик ва ўлим, фано ва бақо синтезлашган бу тасвирлар инсон инсондек яшаши шарт, деган хулосага ундайди.

**Хулоса ва таклифлар (Conclusion/Recommendations).** Хуллас, биз юқоридаги таҳлилларимизда ўзбек адабиётида образлар сатҳидаги бадиий синтезнинг тарихий илдизлари (генезиси) адабиётимиз меросининг қадимий даврларига бориб тақалишини ўргандик. Алишер Навоийнинг “Фарҳод ва Ширин” достонидаги Фарҳод образи бош қаҳрамон сифатида танлангани, бу Навоийгача яратилган “Ҳамса”ларда кузатилмагани бу эса улуғ шоирнинг ақл – тафаккури ва тахайюлоту натижасида яратилган бетакрор образ (айнан, биз таъриф бераётган синтез ҳодисаси) эканлигини илмий далилладик.

Бундан ташқари, Юсуф адабиётимизда фаол оммалашган образ бўлиб, “Қуръони Карим”да, “Қиссаси Рабғузий”да, Жомий ва Лутфий қаламига мансуб “Юсуф ва Зулайҳо” дostonларида, Гётенинг “Зулайхонома”сида бу зот ҳақида ҳикоя қилинганлиги ҳақида тўхталдик, энг қизиғи бугунги ҳикояларимиз айнан шу тарихий илдиздан сув ичаётганини ёзувчилардан Улуғбек Ҳамдам ва Исажон Султон ҳикоялари мисолида муқояса қилдик.

Мисоллардан кўринадики, ўзбек адабиётида образлар сатҳидаги бадиий синтезнинг тарихий илдизлари алоҳида бир тадқиқот мавзуси бўла олади.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати (References)**

1. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 20 томлик, 8-том. – Тошкент: Фан, 1991. – 67 б.
2. З.Исомиддинов Шавқи наво. – Тошкент: Tamaddun, 2021. – 12-33 б.
3. Носируддин Бурҳонуддин Рабғузий. Қиссаси Рабғузий. – Тошкент: Ёзувчи, 1990. – 103 б.
4. «Арабская средневековая культура и литература» (Статьи зарубежных ученых). – Москва.: Наука, 1978. – 204 с.
5. «Дантевская чтения». – Москва: Наука, 1973. – 115-116 с.
6. Комилов Н. Ибн Сино ва Данте. – Тошкент: Фан, 1983. – 21-24 б.
7. Бертельс Е.Э. История персидско-таджикской литературы. – Москва: Наука, 1990. – 460 с.
8. Тўраев. Д. Маънавий олам талқинлари. – Тошкент: Академнашр, 2020. – 182 б.
9. Султон И. Асарлар. 1-жилд. Ҳикоялар. – Тошкент: Фафур Ғулом, 2017. Боғи Эрам. – 48 б.
10. Султон И. Асарлар. 1-жилд. Ҳикоялар. – Тошкент: Фафур Ғулом, 2017. Боғи Эрам. – 49 б.

11. Султон И. Асарлар. 1-жилд. Ҳикоялар. –Тошкент: Фафур Фулом, 2017. Боғи Эрам.–50 б.
12. Султон И. Асарлар.1-жилд. Ҳикоялар. –Тошкент: Фафур Фулом, 2017. Боғи Эрам.– 48 б.

## TALABALARDA DEVIANT XULQ-ATVOR PROFILAKTİKASINING IJTIMOIY-PSIXOLOGİK XUSUSIYATLARI

*Abduraxmanova Zuxra Erkinovna*

*Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti  
“Ijtimoiy psixologiya” kafedrası professori v.b., psix.f.n.  
[zuhraabduraxmonova@gmail.com](mailto:zuhraabduraxmonova@gmail.com)*

*Yangiboyeva Dildoraxon Rahmon qizi*

*Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti  
Psixologiya (Ijtimoiy psixologiya) magistratura mutaxassisligi  
2-bosqich talabasi  
[dy25021998@icloud.com](mailto:dy25021998@icloud.com)*

**Annotatsiya.** Bozor munosabatlarga asoslangan jamiyatda kundan kunga turli deviant va delikvent xulq-atvor namunalari yuzaga kela boshladi. Jamiyatdagi ma’naviy muhitning ta’sirini kuchaytirish, yoshlarga ta’lim-tarbiya berish shaxs ijtimoiylashuvning tizimli amalga oshishiga ko‘maklashadi. Jamiyatda mavjud ma’naviy axloqiy me’yorlar yoshlarimizni jamiyatda o‘z o‘rinlarini topishlariga, intiluvchan, vatanparvar qilib tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Mustaqil O‘zbekistonda har qanday mafkuraviy va g‘oyaviy to‘siqlarning olib tashlanganligi va barcha soha olimlariga to‘la ijodiy erkinlik berilganligi respublikamizda deviant xulq-atvorning barcha turlarini ilmiy o‘rganish imkoniyatini berdi. Maqolada yoshlar, ayniqsa, talabalar orasida deviant xulq-atvor psixoprofilaktikasini tashkil etishning psixologik xususiyatlari tadqiqot natijalarini sharhlash orqali keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** devinatlik, xulq og‘ishi, profilaktika, ijtimoiy omil, psixologik xizmat, yosh davrlari, tarbiya jarayoni, motivlar.

**Аннотация.** В обществе, основанном на рыночных отношениях, изо дня в день возникают различные модели девиантного и делинквентного поведения. Усиление влияния духовной среды в обществе, обеспечение образования молодежи будет способствовать планомерной реализации социализации личности. Существующие в обществе духовно-нравственные нормы важны для воспитания нашей молодежи, чтобы она нашла свое место в обществе, была амбициозной и патриотичной. Тот факт, что в нашем независимом Узбекистане сняты все идеологические и мировоззренческие барьеры и предоставлена полная свобода творчества ученым всех направлений, дало возможность научно изучить все виды девиантного поведения в нашей республике. В статье представлены психологические особенности организации психопрофилактики девиантного поведения у

молодежи, особенно студенческой, путем интерпретации результатов исследования.

**Ключевые слова:** девиантность, девиантность, профилактика, социальный фактор, психологическая служба, возрастные периоды, воспитательный процесс, мотивы.

**Abstract.** Different patterns of deviant and delinquent behaviour emerge day by day in a society based on market relations. Strengthening the influence of spiritual environment in the society and providing education for young people will contribute to the planned implementation of personality socialisation. Existing spiritual and moral norms in society are important for educating our youth to find their place in society, to be ambitious and patriotic. The fact that in our independent Uzbekistan all ideological and ideological barriers have been lifted and full freedom of creativity has been given to scientists of all directions, making it possible to scientifically study all types of deviant behaviour in our republic. The article presents psychological features of organization of psychoprophylaxis of deviant behavior among young people, especially students by interpreting results of the study.

**Keywords:** deviant behavior, deviancy, prevention, social factor, psychological service, age periods, educational process, motives.

**Kirish (Introduction).** Globallashuv va ma'naviy tahdidlar kuchaygan bir davrda yoshlar tarbiyasi, ularni barkamol shaxs sifatida tarbiyalash va jamiyatda o'z o'rniga ega shaxs sifatida shakllantirish muhim ahamiyat kasb etayotgani hech birimizga sir emas. Bugungi O'zbekistonning kelajagi yoshlar ekanligiga yana bir bor urg'u berar ekanmiz, so'zimizning amaliy isboti sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning quyidagi fikrlarini keltirib o'tishimiz maqsadga muvofiqdir: "Biz yurtimizda qanday islohotlarga qo'l urmaylik, avvalo, siz kabi yoshlarga, sizlarning kuch-g'ayratingiz, azmu shijoatingizga suyanamiz. Barchangiz yaxshi bilasiz, bugun o'z oldimizga ulkan marralar qo'yganmiz. Ona Vatanimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga kirishdik. Biz oila, maktabgacha ta'lim, maktab va oliy ta'limni hamda ilmiy-madaniy dargohlarni bo'lg'usi Renessansning eng muhim bo'g'inlari deb hisoblaymiz. Shu sababli ayni ushbu sohalarda tub islohotlarni amalga oshirmoqdamiz. Ishonamanki, mamlakatimiz taraqqiyotining yangi poydevorini yaratishda sizlar singari fidoyi va vatanparvar yoshlarimiz faol ishtirok etib, munosib hissa qo'shadilar" [1]. Darhaqiqat kelajak avlod masalasi doim mamlakatimiz istiqbolining ustuvor vazifalaridan biri bo'lib qolgan. Hozirgi kunda yoshlar tarbiyasiga yetarli ahamiyat berilmasligi, ularni tarbiyalashda avloddan avlodga o'tib kelayotgan tarbiya usullaridan foydalanmaslik bu borada ko'plab qiyinchiliklar va salbiy oqibatlarni keltirib chiqarmoqda.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Deviatsiyalarni ilmiy o'rganish psixologiya, kriminologiya, psixopatologiya, sotsiologiyada olib boriladi. O'zgarishlar davri, zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat deviant, g'ayritabiiy xatti-harakatlarni tuzatish bilan bog'liq muammolarni keskin ravishda

kuchaytirdi. Jamiyatimizda sodir bo'layotgan o'zgarishlar xatti-harakatlardagi norma to'g'risida ilgari mavjud bo'lgan g'oyalarni amalda yo'q qildi. Aholining katta qismining deviant xatti-harakatlari bugungi kunda mamlakat uchun eng xavfli destruktiv tendensiyalarni o'zida mujassam etgan. Biroq, mavjud profilaktika amaliyoti yoshlarning deviant xatti-harakatlarining oldini olish muammosini to'liq hal etmaydi. Bu yoshlarning deviant xulq-atvori muammosini o'rganishning dolzarbligini belgilaydi.

Ijtimoiy-gumanitar fanlar tarmoqlarida deviant xulq-atvor masalalari, shuningdek, deviant xulq-atvorni oldini olish, uni tadqiq etish ko'plab xorij olimlari, xususan E.Dyurkgeym, R.Merton, A. Adler, K.Yung, E.Bleyler, O.Gross, V.Shtekel, S.Shpilreyn, Z.Freyd, E.Veyss, P.Fedem, V.Rayx, E.Fromm va boshqa olimlar asarlarida o'rganilgan. O'zbekistonda psixolog olimlar G'.Shoumarov, N.Sog'inov, S.Axunjanova, Z.Qodirova, N.G.Kamilova [2], G.To'laganova [3], B.Umarov (o'z joniga qasd qilish va jinoyatchilik muammolarining ruhiy-psixologik asoslari) [4], pedagog-olimlar O.Musurmonova, D.J.Sharipovalarning (oilada barkamol shaxsni tarbiyalash hamda giyohvandlik, ichkilikbozlik, chekish kabi illatlarni oldini olish muammolari) ilmiy ishlarida deviant xulq masalalarga ahamiyat qaratilgan.

Shaxsning dunyoqarashi, ya'ni qadriyatlar oriyentatsiyasi, ijtimoiylashuvi va individual hissiyotlarining ijobiy tarzda shakllanishi va namoyon bo'lishi uni va insoniyat uchun foydali bo'lgan xatti-harakatlarga undaydi. Shuni unutmash kerakki, tashqi muhit yoki ijtimoiy voqea-hodisalar har doim ham xulq og'ishi va tarbiya buzilishining kelib chiqishi uchun asos bo'lib xizmat qilmaydi. Qachonki, ijtimoiy voqea-hodisalar va individ o'rtasida qarama-qarshilik va ziddiyatlar yuzaga kelsa, jamiyatda hukm surayotgan ijtimoiy me'yorlar individ tomonidan qabul qilinmasa hamda ijtimoiy muhitda xulq og'ishi va tarbiya buzilishining kelib chiqishi uchun yetarli shart-sharoit mavjud bo'lsa, xulq og'ishi va tarbiya buzilishi kelib chiqishi mumkin.

Inson xulq-atvorining shakllanishiga ta'sir qiluvchi uchta asosiy omil guruhi mavjud: biologik, ijtimoiy va psixologik. Zamonaviy psixologiya xulq-atvorni makon va zamonda rivojlanib boruvchi jarayon deb biladi. Ushbu jarayonning asosiy bosqichlari: ehtiyojni realizatsiya qilish, motivning paydo bo'lishi va shakllanishi, maqsadni ishlab chiqish, unga erishish yo'llarini tanlash, rejalashtirilgan harakatlarni, kerakli va amalga oshuvchi natijalarni bashorat qilish, qarorlar qabul qilish, xatti-harakatlarni nazorat qilish va tuzatishdir [5]. Shaxs psixologiyasi oldida turgan asosiy vazifalardan biri – shaxs xulq-atvori va harakatlari ortida nima yotganligini aniqlashdir. Har qaysi shaxsning ichki olami mavjud. O'zining shaxsiy tasavvurlari, emotsional reaksiyalari, his-kechinmalari va aniq harakat obrazlariga shaxs doim ega bo'lib kelgan. Bu kabi xatti-harakatlar qanday qonunlar asosida amalga oshiriladi? Bu kabi savollarga javob shaxsning ichki olamini u yoki bu tarafdin yoritilishiga bog'liqdir. V.D.Mendelevichning fikriga ko'ra, deviant xulq-atvor psixologiyasi "turli xil normalardan chetga chiqadigan xatti-harakatlarning paydo bo'lishi, shakllanishi, dinamikasi va

natijalarini, shuningdek ularni tuzatish va davolash usullarini o'rganadigan ilmiy bilimlarning fanlararo sohasidir" [6].

A.Adler shaxsni shakllantirishning muhim omili sifatida oila tuzilishini ajratib ko'rsatadi. Bolaning ushbu tuzilishdagi turlicha pozitsiyasi va unga mos keladigan tarbiya deviant xatti-harakatlarning paydo bo'lishiga sezilarli va ko'pincha hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. Masalan, haddan tashqari himoya, Adlarning so'zlariga ko'ra, shubhali, infantilizm va buzuqlik kompleksning rivojlanishiga olib keladi [7].

Xulq og'ishlarining ijtimoiy profilaktikasi subyektlari davlat va xo'jalik organlari, kasaba uyushma, jamoat tashkilotlari, mehnat jamoalari, mansabdor shaxslar va huquqbuzarliklarning oldini olish bilan shug'ullanadigan fuqarolardir. Shuningdek, ommaviy axborot vositalari profilaktika ishlarida ishtirok etishga da'vat etiladi [8].


**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Psixologiyada deviant (og'ishgan) xulq-atvor deb ijtimoiy-psixologik va axloqiy me'yorlardan og'ish tushuniladi, ijtimoiy qabul qilingan me'yorlarning buzilishi jamiyat farovonligiga, boshqalarga va o'ziga zarar yetkazishda namoyon bo'ladi. Psixologiyada deviant xulq-atvorning turli tipologiyalari ishlab chiqilgan. Yu.A.Kleyberg xulq-atvorda og'ishlarning uchta asosiy guruhini ajratib ko'rsatdi:

- salbiy (masalan, giyohvand moddalarni iste'mol qilish);
- ijobiy (masalan, ijtimoiy ijodkorlik);
- ijtimoiy neytral (masalan, tilanchilik) [9].

Yuqoridagi fikrlar tahlilidan kelib chiqib, tadqiqotning metodologik asosi sotsiologiya, huquqshunoslik, shuningdek, ijtimoiy va inqiroziy vaziyatlar psixologiyasi sohasidagi mahalliy va xorijiy mutaxassislarining ishlarini jamlagan. Yoshlarda deviant xulq-atvor psixoprofilaktikasi muammosi bilan bog'liq masalalarni nazariy tahlil qilish davomida biz quyidagi ilmiy yo'nalishlardan foydalandik:

- kriminologik yondashuv (N.V.Ivanov) [10];
- psixologiyada tizimli yondashuv (B.F.Lomov, V.D.Shadrikov) [11];
- deviatsiyani tadqiq etishning pedagogik-psixologik yondashuvi [12];
- yoshlarda agressiv kommunikativ munosabatlar deviatsiyani shakllantirishga xizmat qiladi, degan g'oyani ilgari suruvchi sinergetik (kommunikativ) yondashuv [13] tashkil etdi.


**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Biz tomonimizdan yoshlar o'rtasida o'tkazilgan "Yoshlarda xulq og'ishini oldini olish omillari sifatida nimalarni nazarda tutasiz?" nomli ijtimoiy-psixologik so'rovnoma Oliy ta'lim muassasalari talabalari, Probatsiya xizmati nazoratidagi xulqi og'ishgan yoshlar faol ishtirok etdi. Mazkur ijtimoiy-psixologik so'rovnoma 20 ta savoldan tuzilgan bo'lib ularning har biriga respondentlarimiz tomonidan berilgan javoblar quyidagi rasmlarda o'z ifodasini topadi. Respondentlarning asosiy qismini 21-24 yosh oralig'idagi yoshlar tashkil etdi.



1-rasm. “Kishini axloqsizlikdan tiya oladigan asosiy omil nima ?” savoliga berilgan javoblar.

“Kishini axloqsizlikdan tiya oladigan asosiy omil nima?” deb aytilgan savolga berilgan mulohazalar ichidan 69.7 % respondentimiz “diniy tarbiya va uning asosida gunoh ishlarni qilishdan qo‘rqish” degan mulohazani tanlagan bo‘lishsa, 30.3 % respondentimiz “milliy axloq-odob va ma’naviylikka tayangan oilaviy tarbiya” javobini tanlashgan (1 rasm). Bundan ko‘rinib turibdiki, shaxsni axloqsizlikdan qaytaradigan omil sifatida nafaqat oilaviy tarbiya, balki diniy tarbiyaning o‘rni hozirgi kun uyushgan yoshlari nigohida juda balandni tashkil etadi.


Xulqi og‘ishgan yoshlarda esa uyushgan yoshlarga nisbatan berilgan javoblar o‘zgacha tus oldi. Ularning 29.5 % i shaxsni axloqsizlikdan tiya oladigan omil sifatida “mahalla va jamoatchilik oldidagi sharmandachilikdan qo‘rqish” mulozahasini tanlashdi, bu esa, o‘z navbatida bunday kategoriyadagi yoshlar nazdida sotsial me‘yor, jamoatchilik nazoratining mavjudligi, xulq og‘ishining ko‘rinishlarini yuzaga chiqarishda asosiy to‘siqlardan biri bo‘lib xizmat qilishi mumkin, degan tasavvurni uyg‘otadi. Uyushgan yoshlardan farqli o‘laroq, xulqi og‘ishgan yoshlar “diniy tarbiya va uning asosida gunoh ishlarni qilishdan qo‘rqish” mulohazasini tanlash ko‘rsatkichi kamroqni tashkil etdi, ya’ni 35.6 %. Bunda ularning diniy tarbiya mohiyatini yaxshi tushunmaganliklari, din omilining har qanday xulq og‘ishini bartaraf etishi mumkinligi to‘g‘risidagi tasavvurlari yetishmaganidan, deb ham hisoblasa bo‘ladi. Bu esa, bunday toifadagi yoshlar bilan psixoprofilaktik tadbirlarni tashkil etishda muqaddas dinimiz keltirib o‘tilgan oyat, hadis namunalarida foydalanishni taqozo qiladi. “Milliy axloq-odob va ma’naviylikka tayangan oilaviy tarbiya” javobini tanlash ko‘rsatkichi og‘ishgan xulqli yoshlarimiz bo‘yicha 34.9 % ni tashkil etmoqda. Bundan ularning oiladagi axloq, sog‘lom oilaviy tarbiya muhitining tashkil etilishi namunali xulqni shakllantiruvchi, turli salbiy xulq og‘ishi ko‘rinishlari (jinoyatchilik, alkogolizm, giyohvandlik) ni oldini oluvchi muhim komponentlardan biri sifatida tanlanmoqda.



2-rasm. “Salbiy illatlarni oldini olishda islom axloqi muhimligi sizningcha qaysi mulohazalarda ko‘rinadi?” savoliga javoblar.

“Salbiy illatlarni oldini olishda islom axloqi muhimligi sizningcha qaysi mulohazalarda ko‘rinadi?” savoliga respondentlarimizning 42.80 % i “Isлом dinida yuqorida aytib o‘tilgan illatlarni sodir etish og‘ir gunoh sifatida qoralanadi” degan mulohazalarni tanlashgan bo‘lsa, 51.50 % i respondentlarimiz “Dinimiz kishilarni halol va pok yurishga chaqirishini” e‘tirof etishgan, 5.70 % respondentlarimiz esa “Ajdodlarimiz diniy e‘tiqod talablariga amal qilganliklari tufayli bunday illatlardan yiroq bo‘lishgan” mulohazalarini tanlashdi. Bu esa o‘z navbatida, yoshlar nazdida diniy qonun-qoidalardan xabardorlik, Isлом dinining bu kabi salbiy illatlardan yiroq yurishga chaqirishi deviant xulq-atvorni oldini olishda samarali vosita sifatida qaralishiga asos qilib ko‘rsatilmoqda.

“Salbiy illatlarni oldini olishda islom axloqining ahamiyati yuqori emasligi sizningcha qaysi mulohazalarda ko‘rinadi?” savoliga respondentlarimizning 24.2 % i “Moddiy hayot ne‘matlaridan lazzatlanayotgan kishilar islom dini ta‘qiqalaridan qo‘rqmayapti” javobini, 39.4 % “Isлом odobi va axloqidan bexabarlar ko‘payib bormoqda” mulohazasini, 15.2 % yoshlarimiz “Isломda man etilgan ishlarni qilmaslik holati zaiflashib qolgan” fikrini, 21.2 % lari esa “Oilada diniy tarbiyaning yetishmaslik hollari ko‘paygan” degan fikrni tanlashdi. Bu esa hozirgi kun yoshlari nigohida islom axloqining o‘rnini yuksak baholash shartligini ko‘rsatmoqda. Quyidagi natijalar shaxsning dindagi axloq me‘yorlaridan xabardorligi oshsa, uni salbiy illatlarni qilmaslik kafolati ko‘payadi, degan xulosaga olib kelmoqda. Shuningdek, shaxslarda moddiy dunyodagi narsalardan zavqlanish holatlari ularni islom dinida cheklab, taqiqlab qo‘yilgan ishlarni bajarishiga sababchi bo‘lmoqda. Bu esa, jamiyatda, oilada shaxsning ijtimoiy me‘yorlardan chetga chiqish holatlariga olib kelmoqda. Shu o‘rinda, diniy tarbiya, diniy axloqning ahamiyati oshmoqda.



3-rasm. “Sizningcha qanday xarakterdagi yoshlar xulq og‘ishiga moyil bo‘ladi?” savoliga javoblar.

Ijtimoiy-psixologik so‘rovnomamizdan o‘rin olgan navbatdagi “Sizningcha qanday xarakterdagi yoshlar xulq og‘ishiga moyil bo‘ladi?” savolga repondentlarimizning javoblari quyidagicha tus oldi, xulqi og‘ishdan yoshlarning bergan javoblariga qaraganda xulq og‘ishiga ko‘proq “ehtiyolari vaqtida qondirilmagan, sabrsiz xislatlarga ega shaxslar” moyil bo‘lsa (43.2 %), uyushgan yoshlarning aksariyati 36.4 % i “o‘ziga past baho beradigan, imkoniyatlarini to‘g‘ri baholay olmaydigan shaxslar”da xulq buzilishi kelib chiqish hollari ko‘proq kuzatiladi, degan mulohazani tanlashgan. Xarakter xususiyatlaridan esa, xulqi og‘ishgan yoshlarda “serjahl, agressiv” javobiga berilgan ko‘rsatkichlar 40 % ni, uyushgan yoshlarda esa, 27.3 % ni tashkil etmoqda. Olingan natijalardan shu narsa ma‘lum bo‘ladiki, xulqi og‘ishgan yoshlarning ko‘pchiligida xulq buzilishlarini kelib chiqishiga, ijtimoiy me‘yorlarni buzishida o‘z ehtiyojlarnining ma‘lum miqdorda qondirilmaganligini, shuningdek, “qondirilmagan ehtiyojlarini boshqa vositalardan foydalangan holda qondirishga urinishlari” ham sabab bo‘ladi, degan xulosa keladi. Uyushgan yoshlarning bu boradagi bergan javoblariga ko‘ra esa, “o‘z imkoniyatlarini past baholagan va o‘ziga ishonmagan shaxslar”da maqsadlarini ro‘yobga chiqarishda ichki kuch yetishmasligi, ikkilanish kabi holatlarning ko‘p takrorlanishi oqibatida xulq buzilishi hollari kuzatilishi ehtimoli oshadi.

Olingan natijalarga asoslanib esa, xulq buzilishini oldini olishda shaxsdagi psixologik faktorlarni ham inobatga olish, korreksiya ishlarni takomillashtirish zarur, degan tavsiyalarni ishlab chiqish o‘rinlidir. Biz tomonimizdan tashkil etilgan tadqiqotning maqsadlaridan biri, hozirgi zamon yoshlarida xulq-atvor buzilishlarining qaysi shakllari ko‘proq uchramoqdaligini aniqlash bilan bir qatorda, ularda yuzaga kelayotgan xulq-atvor buzilishlarining sabablarini va qanday shaxs tiplarida xulq-atvorni buzishga moyillik kuchliroq bo‘lishini tadqiq etish hamdir. Shu kabi omillarni hisobga olgan holda xulqi og‘ishgan va uyushgan yoshlarning xulq-atvorini o‘rganuvchi metodikani quyida berilgan jadvaldagi natijalar orqali sharhlashga intildik. Probatsiya xizmati tasarrufidagi tadqiqot sinaluvchilarining empirik ko‘rsatkichlariga ko‘ra korrelyatsiya natijalarini quyidagicha izohlash o‘rinlidir. Sinaluvchilarda xulq og‘ishiga moyillik

ko‘rsatkichi bo‘yicha shaxsda “ijtimoiy normalarga ijobiy ustanovka” ning ortib borishi “emotsional reaksiyalarni irodaviy nazorat qila olish” darajasining kamayishiga olib keladi ( $r = -0.491, p \leq 0,01$ ). Buni quyidagicha tushuntirish mumkin, deviant xulq-atvorli shaxsda jamiyatdagi ijtimoiy normalarga ijobiy ustanovka shakllansa, unda bu ijtimoiy normalarga amal qilish, ko‘nikish jarayonida emotsional-hissiy sohasida o‘zgarishlarni vujudga keltiradi.

1- Jadval

A.N.Orelning “Xulq og‘ishiga moyillikni aniqlash” metodikasining korrelyatsion tahlili K.Pirson mezoni asosida (Xulqi og‘ishganlar va uyushgan yoshlar misolida).

Shkalalar	Ijtimoiy normalarga ijobiy ustanovka	Qoida va normalarni buzishga moyillik	Addiktiv xulq-atvorga moyillik	O‘ziga zarar keltirishga moyillik	Zo‘ravonlik va agressiyaga moyillik	Emotsional reaksiyalarni irodaviy nazorat qila olish	Delikvent xulq-atvorga moyillik
Ijtimoiy normalarga ijobiy ustanovka	1	-,339/,008	,290/,059	,325/-,381*	,104/-,117	-,491**/,111	-,053/-,229
Qoida va normalarni buzishga moyillik		1	-,170/,076	,210/,179	,098/,130	-,507**/,153	,447*/,290
Addiktiv xulq-atvorga moyillik			1	,582**/,407*	,176/,149	-,450*/,319	,138/,388*
O‘ziga zarar keltirish va o‘z xulqini buzishga moyillik				1	,009/,295	-,409*/,085	,515**/,232
Zo‘ravonlik va agressiyaga moyillik					1	,072/-,227	,242/,435*
Emotsional reaksiyalarni irodaviy nazorat qila olish						1	-,164/,352
Delikvent xulq-atvorga moyillik							1

\* $p \leq 0,05$  ( 95 %); \*\* $p \leq 0,01$  ( 99%)

Uyushgan yoshlarda esa, bu ko‘rsatkichlar quyidagicha ko‘rinish olmoqda, normal xulq-atvorli shaxslarda jamiyat tarafidan berilgan qonun-qoidalarni to‘g‘ri tushunish, ularni qabul qilish va ularga nisbatan ijobiy ijtimoiy ustanovkani shakllantirish ortgani sari, bunday tipga mansub yoshlarning xulqida o‘ziga va boshqa shaxslarga zarar yetkazish holatlari, shuningdek, o‘zining xulq-atvorini buzishga intilish kamayadi ( $r = -0.381, p \leq 0,05$ ). Demak, olingan natijalar asosida, jamiyat talablari va normalarini to‘g‘ri qabul qilgan va jamiyatdagi mavjud o‘rnatilgan tizimlarga nisbatan ijobiy munosabatda bo‘lgan yoshlarda tabiiyki, o‘z holatidan qoniqish hissi ustuvor bo‘ladi va bularda bu kabi omillar o‘zlarining

xulq-atvorini nazorat qilish, o'ziga va yon atrofida qilishga ziyon berish kabi salbiy holatlarning oldini oladi.

Shuningdek, deviant shaxsning "Qoida va normalarni buzishga moyillik" darajasining ortishi undagi "Emotsional reaksiyalarni irodaviy nazorat qila olish" ko'rsatkichining kamayishiga ( $r = -0.507$ ,  $p \leq 0,01$ ) olib kelsa, o'z navbatida "Delikvent xulq-atvoriga moyillik" ko'rsatkichining oshishiga ham olib kelar ekan ( $r = 0.447$ ,  $p \leq 0,05$ ). Xulqi og'ishgan shaxslarda bunday ko'rsatkichlar shuni ko'rsatadiki, shaxsda qoida buzishga moyillikni ortishi, undagi o'zini nazorat qilish qobiliyatining pasayishiga, buning oqibatida esa, shaxsda o'zi anglamagan holda o'rnatilgan qonun-qoidalarni buzish holatlarining ko'p takrorlanishiga sabab bo'lmoqda. Aynan ushbu ko'rsatkichning ortib borishi natijasida shaxsda delikvent xulq-atvoriga, ya'ni yakuni jinoyat va og'ir jazolar bilan tugaydigan xulq ko'rinishlarining shakllaridan biriga moyilligini ham kuchaytirib boradi. Albatta, shaxs jamiyatda o'rnatilgan qonun-qoidalarni buzishga intilar ekan, uning xulqida delikventlik alomatlari allaqachon paydo bo'lgan bo'lib, uni oldini olmaslik salbiy oqibatlarga sababchi bo'lishi, yuqorida xulqi og'ishgan shaxslarda o'tkazgan tadqiqot natijalari orqali yana bir bor o'z isbotini topmoqda.

Navbatdagi aloqadorlik xulqi og'ishgan va uyushgan yoshlarimizda "addiktiv xulq-atvoriga moyillik" va "o'ziga zarar keltirish, o'z xulqini buzishga intilish" shkalalari orasida kuzatildi. Xulqi og'ishgan yoshlarda bu ko'rsatkich ( $r = 0.582$ ,  $p \leq 0,01$ ) tashkil etdi. Bu ko'rsatkichni quyidagicha sharhlash o'rinlidir, insonning ruhiy holatini o'zgartiruvchi narsalarni (alkogol va chekishni ham o'z ichiga oladi) noto'g'ri qo'llash orqali yuzaga keluvchi xulq-atvorning buzilishi (ruhiy va jismoniy qaramlik vujudga kelgunga qadar) addiktiv xulq deb atalib, uning shaxsda o'sishi o'ziga zarar keltirish va o'z xulqini buzishga olib keladi. Bu ko'rsatkich o'rtasidagi yuqori aloqadorlik ayniqsa, xulqi og'ishgan yoshlar o'rtasida kuzatilgani e'tiborimizni tortgan bo'lsa, uyushgan yoshlarda ( $r = 0.407$ ,  $p \leq 0,05$ ) ham tushkun holatlarida yoki o'ziga nisbatan bahosi pasaygan paytlarda hayot mazmunini boshqa vositalardan qidirishga urinishlari oqibatida o'zlarining xulqlarini buzishlari ehtimoli oshishi ham ahamiyatga molik, bugungi kunning dolzarb muammolari sifatida e'tiborga olinishini taqozo etadi. Bu kabi holatlarni bartaraf etish, oldini olishda pedagoglar-psixologlar bilan bir qatorda oila va ta'lim muassasasining uzluksiz hamkorligi ham ijobiy natija berishi mumkin.

Xulqi og'ishgan yoshlarda "addiktiv xulq-atvoriga moyillik" ortishi "emotsional reaksiyalarni irodaviy nazorat qila olish" qobiliyatini ham pasaytirishi yuqoridagi jadvalda aks etgan ko'rsatkichlar orqali a'yon bo'lmoqda ( $r = -0.450$ ,  $p \leq 0,05$ ). Og'ishgan xulq-atvorli shaxslarda biror moddalarni iste'mol qilish asosida o'zini nazorat qila olmaslik, atrof-muhitda bo'layotgan voqea-hodisalarni idrok etmaslik holatlarini yuzaga keltiradi. Natijada shaxsda irodaviy buzilishlar holati paydo bo'ladi, atrofdan kelayotgan munosabatlarga reaksiya bildirishi kamayadi. O'zini boshqara olmaslik holatlari ham bu ko'rsatkichlarning o'zaro aloqadorligidan vujudga kelishi yuqoridagi fikrlarimizga isbot bo'lishi mumkin.

Yana bir ahamiyatli bog‘liqlik uyushgan yoshlardan olingan natijalarni tahlil etish chog‘ida kuzatildi. Uyushgan yoshlar kategoriyasida “addiktiv xulq-atvorga moyillik” oshgani sari “delikvent xulq-atvorga moyillik” ham ortib borishi aniqlandi ( $r= 0.388$ ,  $p \leq 0,05$ ). Bu natijalarga quyidagicha sharh berish mumkin, agar uyushgan sog‘lom xulq-atvorli yoshlar biror buzg‘unchi o‘yinlar yoki psixotrop moddalarni iste‘mol qilishga qiziqishsa va bu qiziqish doimiy “moyillik”ka olib borsa, ularning xulq-atvorida delikventlik alomatlari ham ortib boradi. Biror jamiyatga katta zarar yetkazadigan jinoyat yoki qonunbuzarlik sodir etish ehtimoli oshadi. Bu kabi salbiy illatlarni vujudga keltirmaslik uchun yoshlarning bo‘sh vaqtlarini unumli tashkil etish, ularning qiziqishlarini hisobga olgan holda kasbga yo‘naltirish, internet tarmoqlaridan foydalanishlarini ota-onalar va pedagoglar tomonidan nazorat etilishini ta‘minlash muhimdir. Shuningdek, muhit omilini hisobga olgan holda, yoshlarning do‘stlari, birga faoliyat yuritadigan sinf yoki guruh jamoasidagi shaxslar bilan ham domiy aloqada bo‘lishni tavsiya etish mumkin.

Og‘ishgan xulqli yoshlarda metodika ko‘rsatkichlariga ko‘ra “O‘ziga zarar keltirish va o‘z xulqini buzishga moyillik” ortgani sari “Emotsional reaksiyalarni irodaviy nazorat qila olish” xususiyatlari kamayib boradi ( $r= -0.409$ ,  $p \leq 0,05$ ). Bunday toifadagi yoshlarda o‘ziga zarar yetkazish hissi ustunlik qilib, natijada o‘z hissiyotlarini boshqara olmaslik, tashqi taassurotlarni qabul qilmaslik holatlari ham kuzatiladi. Bunday holatlarni oldini olish, maxsus psixokorreksion mashg‘ulotlar olib borish shaxs ichki olamini va uning individual-psixologik xususiyatlaridan kelib chiqib yondashishni talab etadi. Olingan natijalar asosida shuni aytishimiz mumkinki, o‘ziga zarar yetkazish turlaridan biri bo‘lgan suitsidual holatlarning kelib chiqishiga aynan shaxsning o‘zini emotsional iroda qila olmasligi sabab bo‘ladi, deyish mumkin. Natijada esa, shaxsda psixik buzilish holatlari kelib chiqishi bilan birgalikda, o‘ziga va atrofdagilarga jiddiy ma‘naviy, moddiy va psixologik zarar yetkazish holatlari sodir bo‘ladi.

Sinaluvchilarda xulq og‘ishiga moyillik ko‘rsatkichi bo‘yicha xulqi og‘ishgan yoshlarda “o‘ziga zarar keltirish va o‘z xulqini buzishga moyillik” darajasi ortgani sari “delikvent xulq-atvorga moyillik” darajasi ham ortib boradi ( $r= 0.515$ ,  $p \leq 0,01$ ). Bu kabi holatlarni quyidagicha izohlash mumkin. Shaxsda o‘zini zararlash, o‘z hayotiga zomin bo‘lishga intilish holatlari undagi delikvent(takrorlanib turuvchi g‘ayri ijtimoiy xatti-harakatlar sifatida) xulq-atvorni kuchayishiga turtki bo‘lishi mumkin. Delikvent xulq huquqiy me‘yorlarni buzuvchi, biroq ijtimoiy xavf darajasiga ko‘ra jinoiy javobgarlikni keltirib chiqarmaydigan harakatlardir. Bu kabi salbiy o‘zaro yuqori aloqadorlik ko‘rsatkichlarni kamaytirish uchun xulqi nazorat ostida turadigan shaxslar, shuningdek, xulqida o‘zgarish sodir bo‘layotgan yoshlar bilan kompleksli ishlar samaradorligini oshirish ko‘zda tutiladi. Bunga misol tariqasida, ta‘lim muassasalarida, OAV da shaxsning motivatsion-emotsional sohasiga ijobiy ta‘sir etuvchi teleko‘rsatuvlar, ijtimoiy roliklar hamda dars mashg‘ulotlarida munozalari

debatlarni tashkil etish, yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish orqali ulardagi "energiya"ni boshqa ijobiy narsalarga yo'naltirish tavsiya etiladi.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Tadqiqotdan olingan empirik natijalar asosida quyidagi xulosalarni qilishimiz joiz:

1. Probatsiya xizmati ro'yxatida turuvchi xulqi og'ishgan yoshlar va uyushgan yoshlar o'rtasida ijtimoiy-psixologik so'rovnomaga olinganda, xulq og'ishini oldini olishda samarali vosita sifatida "OAV da turli yot go'yalarga undovchi, jangari, behayo teleko'rsatuv, filmlarni namoyish etmaslik" mulohazasi 38.9% sinaluvchilar tomonidan tanlandi. Bundan xulqi og'ishgan yoshlarning axloqi buzilishida yuqoridagi omillar sabab bo'lgan degan xulosaga kelish mumkin. Olingan natijalar asosida esa, o'sib kelayotgan yoshlar tarbiyasida shu kabi omillarni hisobga olgan holda ish ko'rish lozimligi ma'lum bo'ladi.

2. "Xulq og'ishiga moyillikni aniqlash" metodikasi asosida xulqi og'ishgan va uyushgan yoshlar o'rtasida yetarli yuqori, ahamiyatli farqlar aniqlandi. Xulqi og'ishgan yoshlarda ijtimoiy normalarga nisbatan salbiy ustanovkalar mavjudligi, qoida va normalarni buzishga, addiktiv xulq-atvorga, zo'ravonlik va agressiyaga, delikvent xulq-atvorga moyillik va emotsional reaksiyalarni irodaviy nazorat qila olmaslik kuzatildi. Yuqorida keltirilgan jihatlarni ijobiy tomonga muvofiqlashtirish uchun profilaktik tadbirlar sifatida ijtimoiy-psixologik treninglarni tizimli olib borish darkor.

3. Shaxsdagi xarakter tiplari, shaxs xususiyatlari bilan agressiyaga moyillikni aniqlash uchun ikkita metodikaning shkalalari o'zaro korrelyatsion tahlil qilindi. Xulqi og'ishgan yoshlarda xarakter xususiyatlari, uning agressiyani keltirib chiqarishdagi bog'liqlikligi uyushgan yoshlarga nisbatan yuqoriroq ekanligi tadqiqot natijalarini tahlil qilish chog'ida aniqlandi. Ushu omillardan kelib chiqib, xulq og'ishini oldini olishda har bir yoshga individual yondashish, psixokorreksion ishlarni tashkil etishda nafaqat jamoa, balki guruhdagi har bir shaxsning alohida xususiyatlarini hisobga olib dasturlar tuzish tavsiya etiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston yoshlari forumiga bag'ishlangan nutqidan. "Xalq so'zi" gazetasi. - № 272 (7743). – B.2-4.
2. Камилова Н.Г. Муаммоли ўсмир: ташхис, тадқиқот методлари. – Т.: ТДПУ, 2004. – Б.25.
4. Туляганова Г.К. Интересы «трудных» подростков как отражение особенностей мотивационно-потребностной сферы. дис. ... канд. психол.наук. – Т.: НУУз, 1993. – С.129.
5. Умаров Б.М. Болалар ва ўсмирлар суицидининг ёш ва ижтимоий-психологик хусусиятлари. Психол. фан. номз....дис. – Т.: ТДПУ, 1993. – Б.154.
6. Реан А.А. Агрессия и агрессивность личности // Психологический журнал.– 2010. – №5. – С.65.
7. Менделевич В.Д. "Психология девиантного поведения". – М.: "Городец", 2016. – С.14.

8. Адлер А.Р. «Индивидуальная психология как путь к познанию и самопознанию человека»: – М.: “Наука жить”, 2007. – С.24.
9. Лелюх В. Ф. Проблемы девиантности и социально-правовой адаптации молодежи / В. Ф.Лелюх. – М.: “Эксмо”, 2006. – С.58.
10. Клейберг Ю.А. Психология девиантного поведения: учебное пособие для вузов. – М.: “Сфера”, 2011. –С.56.
11. Иванов В. Н. Девиантное поведение: причины и масштабы // Социально-политический журнал. 1995. № 2. С. 47-57.
12. Шадриков В. Д. Психологический анализ деятельности как системы // Психологический журнал. 1980. Т.1. №3. С. 33-46 .
13. Беличева С. А., Фокин М. В. Социальная профилактика отклоняющегося поведения несовершеннолетних как комплекс охранно-защитных мер. — М.: Издательский Центр Консорциум «Социальное здоровье России», 1993. — 63 с.
14. Пирожков В. Ф. Психологические основы перевоспитания учащихся специальных профтехучилищ. — М.: Юридическая литература, 1988. — 479 с.

### THE SPIRITUAL IMAGE OF THE CREATORS OF THE THIRD RENAISSANCE

*Yuldashev Marufjon*

*DSc in philology, Professor, The Uzbekistan State Institute  
of Arts and Culture  
[marufcany@gmail.com](mailto:marufcany@gmail.com)*

*Shukurov Bunyod*

*The senior student of UzSIAC, Faculty of Folk Art Organization of cultural  
and art institutions and management*

**Abstract.** In all eras, various noble ideas have been put forward in order to control people and keep them conscious. Among such ideas, the most ancient and timeless idea is the idea of a perfect man. "The idea of a perfect person is a noble feeling that has both a national and universal essence, embodies the highest spiritual and physical perfection of a human being, and always motivates him to be good. this idea led not only individuals, but entire nations to high development, inspired them to achieve unparalleled achievements in spirituality and enlightenment. the article talks about the issues of raising and maturing young people with perfect human qualities in the creation of the idea of the Third Renaissance.

**Key words:** Third Renaissance, perfect man, spiritual education, moral qualities.

**Аннотация.** Во все эпохи выдвигались различные благородные идеи, чтобы управлять людьми и держать их в сознании. Среди таких идей самой древней и вечной является идея совершенного человека. «Идея совершенного

человека есть благородное чувство, имеющее как национальную, так и общечеловеческую сущность, воплощающее в себе высшее духовное и физическое совершенство человека, всегда побуждающее его к добру. Эта идея приводила не только отдельных людей, но и целые народы к высокому развитию, вдохновил их на достижение беспримерных достижений в духовности и просвещении. В статье говорится о вопросах воспитания и взросления молодежи с совершенными человеческими качествами в творчестве идеи Третьего Возрождения.

**Ключевые слова:** Третий Ренессанс, совершенный человек, духовное воспитание, нравственные качества.

**Annotatsiya.** Hamma davrlarda ham odamlarni nazorat qilish, ularni ongli saqlash maqsadida turli ezgu g'oyalar ilgari surilgan. Bunday g'oyalar ichida eng qadimiy va azaliy g'oya komil inson g'oyasidir. "Komil inson g'oyasi ham milliy, ham umuminsoniy mohiyatga ega bo'lgan, insonning yuksak ma'naviy va jismoniy barkamolligini o'zida mujassam etgan, uni hamisha ezgulikka undaydigan olijanob tuyg'udir. Bu g'oya nafaqat alohida shaxslarni, balki butun xalqlarni yetaklab kelgan. yuksak taraqqiyot sari ilhomlantirdi, ularni ma'naviyat va ma'rifatda beqiyos yutuqlarga erishishga ilhomlantirdi. Maqolada Uchinchi Uyg'onish davri g'oyasini yaratishda komil insoniy fazilatlariga ega yoshlarni tarbiyalash va kamol toptirish masalalari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Uchinchi Uyg'onish davri, komil inson, ma'naviy tarbiya, axloqiy fazilatlar.

After our country gained its independence, it was a long-awaited spiritual need to organize and improve the spiritual environment in all spheres and aspects of the society, to pay great attention to human dignity and values. realization of national identity, respect and preservation of ancient values appeared as the most important and urgent issue in the life of our society. After all, the realization of national identity begins with respect for national memory, respect for cherished values. and this is naturally related to the spiritual world and perfection of the people.

It can be said that "a perfect and mature person is a matter that has interested humanity since ancient times. As a matter of fact, raising a perfect human being has been a dream, desire and ideal of people for centuries. concepts and ideas about the perfect person have been interpreted differently in different periods. With the passage of time and the change of times, opinions about him have also changed. The evolution and improvement of ideas about the perfect person, how it is, depended on the character of the system, the level of production, the way of managing the state, and the development of science and culture. The place where people who understand their national identity, see the interests of their country more than their own interests, and truly love it, will become a "city of virtuous people" in the words of the greats."<sup>13</sup> Ancient history has always proved that a

<sup>13</sup> Абдуллаева, Ш. Д. Комил инсон талқини: ўтмиш ва ҳозирги замон. // Молодой ученый. 2017, № 16.2 (150.2). - С. 22-24.

person who deeply understands the country's development and a rich perspective and a great nation consisting of such people is the main factor of any development.

For the realization of good goals, the results of good deeds, the rise in the development of society, and the emergence of great civilizations in general, were literally "related to a certain spiritual environment and opportunities." In many ways, social stagnation, economic and political crises appear as the result of a spiritual crisis. therefore, the reason for depressions and upswings in the development of society should be sought in the consciousness, faith, outlook, and level of perfection of people in addition to social, economic, and political factors.

In all eras, various noble ideas have been put forward in order to control people and keep them conscious. Among such ideas, the most ancient and timeless idea is the idea of a perfect man. "The idea of a perfect person is a noble feeling that has both a national and universal essence, embodies the highest spiritual and physical perfection of a human being, and always motivates him to be good. this idea led not only individuals, but entire nations to high development, inspired them to achieve unparalleled achievements in spirituality and enlightenment. A nation that does not dream of perfection and does not care about raising a perfect generation has no future. such a nation is doomed to decline."<sup>14</sup>

Forming a perfect personality has been a noble dream of our people since time immemorial, an integral part of spirituality, and has been deeply expressed in the works of our thinkers. In their scientific views, our great ancestors stated that it is impossible to achieve high perfection if there is no internal drive, spiritual aspiration, strength and enthusiasm, i.e., motive and motivation, which encourages a person to reach the level of perfection and the formation of high qualities in his behavior. As the sources and their experts have repeatedly stated, "the great doctrine that good intentions, good words and the unity of practice based on goodness is the basis of any social development was formulated in the time of Zoroastrianism for the first time in the development of human thought. The revolutionary idea that a society whose citizens are oriented to think differently, speak differently, and do other practical things will inevitably decline is also part of this doctrine. It was concluded that humanity can get rid of the crisis and achieve a prosperous life only by consistently following good intentions, good words and good practice."<sup>15</sup>

The reason for such respect and high respect shown by the creator to a perfect human being, possessor of good thoughts, good words and good deeds, is because he has achieved both divine and worldly perfection. the great merits of these noble people for both worlds are the expansion of heaven and the narrowing of hell. Therefore, they are the masters of the universe, all existence was created for them. As the teachings say, a person reaches the peak of perfection regularly and step by step. Conquering this blessed peak, reaching the holy level is not a phenomenon

<sup>14</sup> Халқ фаровонлиги ва комил инсон. Иқтибос олинган электрон ресурс: БухДУ электрон кутубхонаси. <http://elib.buxdu.uz/>

<sup>15</sup> Акрамов М. Ахмад Яссавийнинг "Девони ҳикмат" асарида комил инсон ғояси. Иқтибос олинган ресурс: <https://naqshband.uz/makolalar/makola17>

that is realized with one or two efforts. Nor is it just about living by religious teachings. perfection consists of systematic activities that require being pure in worldly life, influencing worldly development, and raising society to a higher level. In this, of course, the main factor is personal qualities, behavior that sets an example for society. "There are many symbols of perfection in our history: Alpomish is the ideal hero of our nation, he is an artistic symbol of intelligence, pride, physical perfection, bravery and patriotism. The image of Farkhad is ideal for Hazrat Navoi. He is the owner of mental and physical maturity. a person who embodies the principle of Farkhod Naqshbandi "Dil ba yoru, dast ba kor". In Oibek's novel "Navoi", Navoi is an ideal character. At the moment, he is a real historical figure, a perfect human being."<sup>16</sup>

In the same way, since the emergence of the holy religion of Islam, Muhammad, peace be upon him, is an exceptional personality in the history of mankind, who is remembered in languages with epics and prayers with his spiritual perfection. Muslims recognize Muhammad as a spiritual leader and divine savior and consider it an honor to be adorned with his virtues and beautiful morals. He considers his teaching as the basis in his behavior, thoughts, communication and relationships.<sup>17</sup> Indeed, the highest peak of perfection, the ruler of the universe "Prophet Muhammad was very humble in life, he spoke only about the necessary things in his relations with others, he did not speak superfluous and unnecessary words. In the hadiths collected by Al-Tirmidhi, the following is said about the Prophet's concern for others, his eloquence, and the manner of speaking with others: "Men do not say unnecessary words. And they started their words with the name of God and ended with the name of God. They could not stop talking with the tip of their lips. words used to have few words and many meanings. His words would be separated from each other. There was always more than needed. And there was never a shortage." All the treatises on the Prophet's character and image state that he was a perfect person in every way if we dwell on the issue of the emergence of the idea of a perfect person, "Ibn al-Arabi calls a perfect person sometimes al-insan al-haqiqi, sometimes al-insan al-arfa' and al-insan al-awwal, he is the caliph of the Truth on Earth, the teacher of the angels in the sky, the most beautiful form of nature created in the sky, the most perfect."<sup>18</sup> The only being who prays to the Truth with observation, sees it as the perfect embodiment of the Truth, the mirror embodying all divine qualities, the rank higher than the rank of the People, the medium between the Truth and the people (every creature created in the universe). in fact, a perfect person is the most virtuous of people<sup>19</sup>, higher and higher than the limits of time and space with their inner and outer qualities. In this

<sup>16</sup> Карим Т. Миллий тафаккур тараққиётидан. –Тошкент: Чўлпон, 2003, 33 –Б.

<sup>17</sup> Жалолва Ў.К. Шарқ ва ғарб мутафаккирларининг маънавийахлоқий камолот ҳақидаги қарашлари. "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали. № 6, апрель, 2013 йил.

<sup>18</sup> Халқ фаровонлиги ва комил инсон. Иқтибос олинган электрон ресурс: БухДУ электрон кутубхонаси. <http://elib.buxdu.uz/>

<sup>19</sup> Абдуллаева, Ш. Д. Комил инсон талқини: ўтмиш ва ҳозирги замон / Ш. Д. Абдуллаева. // Молодой ученый. — 2017. — № 16.2 (150.2). — С. 22-24.

sense, the perfect person who is unanimously recognized by the people of Islam is Muhammad, peace be upon him.<sup>20</sup>

Today, when our country has entered the stage of stable development, and in the period of consolidation around the idea of the Third Renaissance, the stages of higher education face the task of creating the image of new perfect people, mature modern heroes who will serve as an example for the younger generation. This auspicious task is the duty of not only the educational system, but also intellectuals engaged in spiritual and educational activities and all citizens who have great love for this country. The concept of the perfect human being is at the heart of the idea of the Third Renaissance, which unites good-willed citizens as the highest goal of our independent country. Because only mature people who have perfect intellect, pure morals, bright intentions, and who have turned noble ideas into their life beliefs can be the creators of the Third Renaissance promoted by the leader of our country. That's why in the education system of our country, in our modern society, education of a healthy generation, formation of the spirituality of a free citizen, bringing up perfect people by raising spiritual and educational work to a high level is a priority issue.

#### References

1. Marufjon Yuldashev. Fusulü Erbaa'da Tabiat ve İnsan Vasfı. Eskişehir, Türkiye: Türk Dünyası Bilgiler Zirvesi Sempozyumu. 2014. 26-28 Mayıs.
2. Abdullaeva, Sh. D. Interpretation of the perfect person: past and present // Molodoy uchenyy. 2017, No. 16.2 (150.2). - S. 22-24.
3. Akramov M. Ahmad Yassavi's "Devoni Hikmat" is the idea of a perfect person. Cited resource: <https://naqshband.uz/makolalar/makola17>
4. Jalolva O'.K. The views of Eastern and Western thinkers on spiritual maturity. Scientific electronic magazine "Economy and innovative technologies". No. 6, April, 2013.
5. Karim T. From the development of national thinking. -Tashkent: Cholpon, 2003, 33 -B.
6. Public welfare and the perfect person. Cited electronic resource: BuxDU electronic library. <http://elib.buxdu.uz/>
7. Kholmo'minov J. Commentary on the concept of "perfect man" in Jami's philosophical works. Journal of interdisciplinary innovations and scientific research in Uzbekistan // Issue 9, 2022.-B.344-347.

### **BO'LAJAK PEDAGOGLARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHGA INNOVATION YONDASHISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK IMKONIYATLARI**

*Salaeva Muborak Saburovna*

---

<sup>20</sup> Холмўминов Ж. Жомийнинг фалсафий асарларида “комил инсон” тушунчасининг шарҳи. О‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali // 9-son, 20.06.2022.-B.344-347.

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi kafedrasini professori v/b.*  
[muborakxon71@mail.ru](mailto:muborakxon71@mail.ru)

**Annotatsiya.** Maqolada bo'lajak pedagoglarning kommunikativ kompetentsiyasini shakllantirishga innovatsion yondashishning psixologik-pedagogik jihatlari muhokama qilinadi.

**Kalit so'zlar:** ta'lim jarayoni, kasbiy tayyorlash, bo'lajak pedagog, o'quvchi, faol ijtimoiy-psixologik ta'lim, muloqotning diskursiv texnologiyasi, innovatsion texnologiya, kommunikativ kompetentsiya.

**Аннотация.** В статье рассматриваются психолого-педагогические аспекты инновационных подходов к формированию коммуникативной компетентности будущих педагогов.

**Ключевые слова:** образовательный процесс, профессиональная подготовка, будущий педагог, ученик, активное социально-психологическое воспитание, дискурсивная технология общения, инновационная технология, коммуникативная компетентность.

**Annotation.** The article deals with the psycho-pedagogical aspects of innovative approaches to the formation of communicative competence of future teachers.

**Keywords:** active socio-psychological education, discursive technology of communication, interactive technologies, communicative competence.

**Kirish.** Ma'lumki, ta'lim sohasi insonni hayoti davomidagi turli xil kommunikativ muloqot imkoniyatlari dunyosiga tayyorlash uchun mo'ljallangan. Shaxsning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantiruvchi manbalaridan biri – bu kasbiy-pedagogik muloqot jarayonidir.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, o'qituvchilik kasbida pedagogik faoliyatning muhim jihati hisoblangan muloqot kasbiy ahamiyatga ega. Kasbiy-pedagogik muloqot esa pedagogik jarayonning asosiy shakli bo'lib, uning samaradorligini belgilaydi. Ta'lim sub'ektlari tomonidan qabul qilinadigan muloqotning maqsad va qadriyatlari individual xatti-harakatlar meyorlarida aks etadi.

Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, avvalo, ta'lim jarayonini insonparvarlashtirish va demokratlashtirishga qaratilgan. Bugungi kunda ta'lim muassasalari oldiga qo'yilgan vazifalarni hal etish uchun, birinchi navbatda, pedagoglar tomonidan ta'lim oluvchilar faoliyati ustidan muayyan turdagi nazoratning amalga oshirilishini taqozo etadi.

Aksariyat olimlarning fikriga ko'ra, ushbu islohotlar mohiyati – ta'lim jarayonini samarali va refleksiv boshqarishda deb belgilaydilar. Ya'ni, bu o'quvchining pozitsiyasini o'zgartirishda, uni tashqi ta'sirlar ob'ektidan ijtimoiy hayotning umumiy kontekstida amalga oshiriladigan o'z faoliyatining faol sub'ektiga aylantirishda hamda o'z faoliyatini o'zi boshqara olish qobiliyatining rivojlantirishida namoyon bo'ladi [5].

So'nggi yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlar oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning hozirgi bosqichida bo'lajak pedagoglarning kommunikativ

kompetentligini shakllantirishga innovation yondashish masalasi nihoyatda dolzarb ekanligi hamda mazkur muammoni puxta o'rganish va umumlashtirish lozimligini ko'rsatadi.

**Maqola mazmunining asosiy bayoni.** Kasbiy-pedagogik muloqotning murakkabligi shundaki, bunda nafaqat o'qituvchining kommunikativ madaniyatiga yuqori talablar qo'yilishi, balki talabalarni birgalikdagi faoliyatga jalb qilish usullarini o'zlashtira olishida hamdir. O'qituvchining muloqot qilish mahorati o'quvchilarning o'zaro munosabatlarida faol ishtirok etishlariga ko'maklashishida namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, bo'lajak o'qituvchining kommunikativ tayyorgarligi uning kasbiy rivojlanishining muhim tarkibiy qismi bo'lib, birinchi navbatda, o'quvchilar bilan munosabatlar o'rnatish va joiz bo'lsa ularni o'z vaqtida to'g'irlab borish ko'nikmalarini shakllantirishni o'z ichiga oladi. Bu esa, o'z navbatida, ta'lim jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorlash jarayoni mazmunini yangilash va uni umumiy rivojlanish tamoyillari va xalqaro hamjamiyat standartlari talablari bilan uyg'unlashtirishning istiqbolli yo'nalishlaridan biri bu sohada kompetensiyaviy yondashuvning amalga oshirilishidir.

Ta'lim sohasidagi kommunikativ kompetensiya bu jarayonni oqilona baholash va unda samarali harakat qilish imkonini beradigan bilim va qobiliyatlarning kombinatsiyasidir.

Kommunikativ kompetensiya - bu o'qituvchining o'qitish va kasbiy faoliyati davomida o'zlashtirilgan murakkab umumlashtirilgan faoliyat usullaridan biri bo'lib, bu ta'lim jarayonida o'zaro munosabatlarga kirishish natijasi bilan belgilanadi.

Jahon ta'limi amaliyotida kasbiy-pedagogik faoliyatning asosiy kompetensiyalarining turli xil tarkibiy tuzilmalari ko'rib chiqilib, bunda kommunikativ kompetensiya pedagogik faoliyatning asosiy mezonlaridan biri sifatida qaraladi.

Psixologik-pedagogik yo'nalishlarda amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, kommunikativ kompetensiya [3; 4; 6; 7]:

- kompleks ta'lim sifatida uning ijtimoiy-psixologik omillarini bilish va ularni muayyan faoliyatda qo'llay olishi, maqsadga erishishga intiluvchanlik motivlari, xatti-harakatlar strategiyasi, ruhiy tushkunlik (frustratsiya) holati, ya'ni "rejalarining buzilishi" yoki muayyan ehtiyojlarni qondirishning imkonsizligini anglashi;

- guruhning ijtimoiy-psixologik muammolarini o'zini va muloqot qiluvchi sheriklarini tushunganchalik anglay olishi;

- o'zaromunasabatlardagi imkonsiz bo'lgan to'siqlarni tushunish va ular bilan aloqalarda muloqot texnologiyasi va psixotexnikani o'zlashtirishi;

- o'zaro muloqotning ichki vositalari tizimi sifatida kommunikativ harakatlarni tartibga solishi;

- shaxsning muloqot vaziyatlarida o'z bilimi, hissiy tajribasi va muloqot vositalarini erkin foydalana olishiga asoslangan holda harakat qilishi;

- insonning axloqiy va mafkuraviy munosabatlari, uning umumiy va kasbiy yo'nalishi, xushmuomalalik darajasini bilvosita ifodalovchi muloqotning ma'lum bir xususiyati sifatida tushunish qobiliyatlarini o'z ichiga qamrab oladi.

Boshqa bir olimlar tomonidan esa, kommunikativ kompetentsiya insonning odamlar bilan zarur aloqalarni o'rnatish va qo'llab-quvvatlash qobiliyati sifatida talqin qilinadi. U kommunikativ jarayonning samarali borishini ta'minlaydigan ma'lum bilim va ko'nikmalar majmuasini o'z ichiga oladi.

Shu bilan birga, kommunikativ kompetentsiya ijtimoiy-psixologik etalon va standartlar hamda xulq-atvor stereotiplarini o'zlashtirish, muloqot qilish texnikasini egallash natijasida muayyan muloqot va xatti-harakatlar meyorlarini o'rganish darajasi sifatida qaraladi.

Ko'pgina psixologik-pedagogik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, pedagogik muloqot pedagogik jarayonning muhim chuqur tavsifi va turli xil kasbiy muloqot sifatida asoslanib, bunda pedagog va ta'lim oluvchilar o'rtasida ijtimoiy-psixologik o'zaro ta'sir mavjud ekanligi ta'kidlanadi [1; 3; 5; 6; 7; 8].

Kommunikativ kompetentsiya ko'rsatkichlarining chambarchas bog'liqligi pedagog va ta'lim oluvchilar o'rtasidagi samarali pedagogik hamkorlikni tashkil etish asosida to'liq aloqani ta'minlashi mumkin. Shuningdek, pedagogning ta'lim oluvchilar shaxsiy fazilat va xatti-harakatlarini etarli darajada idrok etish va tushunish, ular bilan samarali shaxslararo munosabatlarni o'rnatish, jamoada qulay hissiy mikroiklimni shakllantirish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan qadriyatli yo'nalganligi bilan belgilanadi [5; 6].

Biz bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetensiyasining shakllanish darajasini aniqlash maqsadidagi tajriba-sinov ishlarimizni pedagogik amaliyot jarayonida amalga oshirishga muvaffaq bo'ldik. Bunda talabalarning kommunikativ kompetensiyasining individual komponentlarini aniqlash uchun muayyan metodlar yordamida bo'lajak o'qituvchilarning o'quvchi va ularning jamoasi bilan kommunikativ o'zaro ta'sirga tayyorligi, ular bilan olib borgan muloqot turi va uslubi hamda kommunikabellik xarakterini aniqlashga muvaffaq bo'ldik.

Tadqiqotimiz natijalariga ko'ra shuni alohida ta'kidlash joizki, bo'lajak o'qituvchilarning katta qismi(asosan uchinchi kurs talabarlari)da kommunikativ kompetensiyaning o'rtacha (59,6 %) va boshlang'ich (29,8 %) darajasida, 10,6 % respondentlarda esa yuqori darajada shakllanganligi aniqlandi.

Shuningdek, pedagogik muammolarni yechishga qaratilgan pedagogik shartlar doirasida biz ulardagi kommunikativ kompetensiyaning individual komponentlari shakllanishini innovatsion texnologiyalar asosida ta'minlashga erishdik. Bo'lajak o'qituvchilarda kommunikativ kompetensiyaning individual komponentlari shakllanishida faol ijtimoiy-psixologik ta'lim muhiti muhim rol o'ynashi va bu orqali kommunikativ bilim, ko'nikma va kompetensiyalar rivojlanishi, shuningdek, pedagogik o'zaro aloqalarga ta'sir qiluvchi pedagogning shaxsiy va kasbiy muhim fazilatlari takomillashishiga amin bo'ldik.

Bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetensiyasi muloqot texnikasini samarali o'zlashtirilishi bilan shakllanishi mumkin. Bunda:

- pedagog va ta'lim oluvchilarning o'zaro "teng" munosabatda bo'lishlari, ya'ni muloqot ishtirokchilarning muhim pozitsiyalarining tengligi yoki sub'ekt-sub'ekt munosabatlarining o'rnatilishi, shuningdek, doimiy ravishda sheriklar bir-birlarining o'ziga xos sifatlarini to'g'ri qabul qilishi, joiz bo'lsa tuzatishi, biroq bir-birlarining qadr-qimmatini kamsitishga yo'l qo'yilmasligi;

- pedagog va ta'lim oluvchilarning o'zaro ishonchli munosabatlarda bo'lishi;

- har ikkala tomon individualligining har qanday jihatlariga baholovchi va "o'lchov" munosabatining yo'qligi;

- muloqotda sheriklar bir-birlarini noyob va qadrlil shaxs sifatida o'zaro qabul qilishi maqsadga muvofiqdir.

Taniqli rus psixologi I.D.Bexning fikriga ko'ra, o'qituvchining kommunikativ kompetensiyasi, ta'lim oluvchiga ham, pedagogga ham "xabar tarqatuvchilik" texnikalariga ega bo'lishligini ta'minlaydi [2].

O'qituvchining o'quvchining shaxsiga qarata bildiriladigan ko'pgina xabarlarida "siz" olmoshi mavjud b'lib, bu uni haqorat qilishi va kamsitishi mumkin. Jumladan: "Siz buni keyinga qo'ysangiz yaxshi bo'ladi", "Siz buni qilmasligingiz kerak" va boshqalar. Biroq o'qituvchi buni boshqacha ifodalashligi ham mumkin. Ya'ni o'quvchining xatti-harakati o'qituvchini qanday his qilishini ko'rsatadigan tarzda: "Men bunday shovqin bo'lganda darsni tushuntira olmayman" yoki "Menga sinfda tartib yo'qligi yoqmaydi" kabi iboralar o'quvchini ayblamasdan faqat o'zining his-tuyg'ulariga qaratilganligini ifodalaydi. Pedagogning "o'ziga qaratilgan xabar" konstruktsiyasi o'quvchining unga bo'lgan ishonchi va hurmatini oshirishi bilan yanada samaralidir.

Shu o'rinda rus psixologi I.D.Bex pedagogning "o'ziga qaratilgan xabar" konstruktsiyasini uch bosqichida taklif qiladi:

1) o'quvchi xulq-atvorining noaniq tavsifi: "Siz narsalaringizni hamma joyga tarqatib yuborganingiz uchun o'zimni yomon his qilayapman...";

2) o'quvchining xatti-harakati kattalarga qanday xalaqit berishining ko'rsatkichi: "... Sizning narsalaringizni joy-joyiga qo'yishga majburman";

3) kattalar bir vaqtning o'zida boshdan kechiradigan his-tuyg'ularning tavsifi: "... bu mas'uliyatni qayta-qayta o'z zimmamga olishni yoqtirmayman".

Pedagog "o'ziga qaratilgan xabar" konstruktsiyasidan foydalanganda quyidagilarga tayyor bo'lishi lozim:

- diqqatni ta'lim oluvchiga emas, balki o'zingiz yoki boshqa biror insonning tajribasiga qaratish;

- o'quvchi bilan e'tibor va hurmatni namoyon etadigan ohangda muloqot qilish;

- ayblov, tanqid va tahdidlardan qochish;

- ta'lim oluvchining muammosini diqqat bilan tinglash va h.k.

Ana shundagina pedagogning "o'ziga qaratilgan xabar" konstruktsiyasi bir butun sifatida uchta vaziyatning ham o'ziga xos qulay fursatini qamrab oladi:

<i>ta'lim oluvchining xatti-harakati →</i>	<i>pedagogning his-tuyg'usi →</i>	<i>ta'lim oluvchi xatti-harakatlarining oqibatlari</i>
--	-----------------------------------	--

Bunda o'quv jarayonining samaradorligini oshirish uchun oldini olish kerak bo'lgan kasbiy kompetentsiyaning etarli emasligini ko'rsatadigan "ta'lim oluvchiga qaratilgan xabar"lar - buyruq, farmoyish, ko'rsatma va topshiriq tarzida namoyon bo'lishi lozim. Bu kabi xabarlar ta'lim oluvchilarga pedagogning his-tuyg'u va ehtiyojlari muhim emasligini bildiradi.

Masalan: "Menga hozir sizni nima bilan shug'ullanayotganingiz muhim emas, darhol mening vazifamni bajarishni boshlang". Bu kabi murojaatlar o'quvchilarda qarshilik ko'rsatish, g'azablanish hissini va o'qituvchining irodasiga qarshi turish xatti-harakatlarini keltirib chiqaradi. Shuningdek, o'qituvchining ogohlantirish, tanbeh va tahdidli gaplari o'quvchilarda qo'rquv hissini uyg'otadi.

Shu bilan birga nasihat, o'git va odob-axloq o'rgatishga qaratilgan bayonotlar tashqi obro'ni orttirish, burch va majburiyatlarning kuchiga asoslanadi. Masalan: "Agar siz shunday qilsangiz, pushaymon bo'lasiz!"

Ba'zi holatlarda o'qituvchining "qilish kerak", "majbur" "shart" qo'yishlariga o'quvchilar qarshilik bilan javob berishlari va uning ko'rsatmalariga rioya qilmasliklari mumkin.

Yoki bo'lmasa o'qituvchining ayblov, tanbeh, dakki, malomat va "hukm"lardan iborat xabarlari o'quvchilarning qadr-qimmatini kamsitishi va ularda o'zini past baholishni yuzaga keltiradi. Masalan: "Siz o'zingizni to'g'ri tutishingiz kerak", "Siz bunday deb o'ylamasligingiz kerak" va h.k.

Shunday qilib, samarali pedagogik hamkorlikni tashkil qilish uchun pedagogning "o'ziga qaratilgan xabar" konstruktsiyasidan tez-tez foydalanish va "ta'lim oluvchiga qaratilgan xabar" konstruktsiyasidan qochish kerak.

I.D.Bex tomonidan taklif qilingan navbatdagi texnologiya yaqin-shaxsiy muloqotning diskursiv texnologiyasidir [4]. Diskursiv texnologiya muayyan ruhiy hodisaga ta'sir qilishni ma'lum bir usul asosida o'rganish tushuniladi. Ushbu texnologiya sub'ektlarning shaxsiy pozitsiyalari almashinuvi asosida ularning axloqiy va ma'naviy o'sishi mumkin bo'lgan "sub'ekt-sub'ekt" o'zaro ta'sirini ta'minlaydi.

Yaqin-shaxsiy muloqot o'rnatishning diskursiv texnologiyasi ikkita: monolog va dialogik shaklni o'z ichiga oladi. Biroq, bola shaxsini faqat dialogik muloqot sharoitida rivojlantirish mumkin.

Monologik muloqotda suhbatdosh sust sub'ekt sifatida harakat qiladi, ya'ni uning mavjudligi faqat muloqot holatiga jalb qilishda namoyon bo'ladi. Albatta, muloqotning bu shakli ta'lim jarayonida samarasizdir.

Dialogik shaxsiy muloqot sub'ektning pedagogik o'zaro ta'sir jarayonida faol ishtirok etishi, o'z fikrini erkin ifoda etishi va shaxsiy pozitsiyasini ishonchli himoya qilishi bilan tavsiflanadi.

Shaxsiy muloqotning diskursiv texnologiyasi tayanch sarmazmun qiymatga ega kelishuvni o'rnatish jarayonini o'z ichiga oladi. Ushbu uslub suhbat davomida o'zaro ishonch va ochiq muloqot qilish imkoniyatini beruvchi muhitni,

shuningdek, inson maqsadining sarmazmun qiymatli yo'nalishlari, turmush tarzi va boshqalar haqidagi qarashlarining umumiylik fursatlarini ta'minlaydi. Albatta, bolaning hayot mazmuni borasidagi qarashlari nafaqat ishonch bilangina, balki tushunish bosqichida ekanligini hisobga olish lozim.

Shaxsiy muloqot jarayonida ishtirokchilarning hayoti davomida "boshdan kechirgan kechinmalari" namoyon bo'ladi. "Kechinmalar" - bu sub'ekt tomonidan boshqa insonlarning turli xil qiymatga ega pozitsiyalaridagi ichki kechinmalarini ob'ektiv va ijtimoiy-psixologik jihatdan aks ettirilishidir.

Pedagogning ta'lim oluvchilarga o'zarota'sir o'rnata olishi uchun diskursiv texnologiya katta ahamiyatga ega. Chunki, bu uslub yordamida o'qituvchi bolaga uning muammosini tushunishi va yordam berishi mumkinligini ko'rsata oladi.

Ta'lim oluvchi tomonidan yaqin shaxsiy muloqot maqsadini qayta belgilashning oldini olish lozim. "Pedagog va ta'lim oluvchi" dialogik munosabatlarida har doim shaxsiy (ijtimoiy va axloqiy) vazifa hal qilinishi lozim. Chunki bu muloqotning maqsadi ta'lim oluvchi tomonidan o'qituvchining ma'lum bir axloqiy va ma'naviy qadriyatini ongli ravishda qabul qilinishidir. Biroq, mazkur qiymat bolaning xatti-harakatlarining ichki regulyatori sifatida ishlaydigan sub'ektiv sarmazmun yutuqqa aylanmasligi kerak. Ana shundagina muloqot chuqur va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'ladi.

Diskursiv texnologiya shaxsiy muloqot sheriklarining bir-birini ichki dunyosiga chuqur kirib borishini ta'minlaydi. Ya'ni ushbu uslub ta'lim oluvchi pedagogni tushunishi kerakligini nazarda tutadi. Biroq o'qituvchi bu jarayonda imkon qadar faol bo'lishi, uni tashkil qilishi, yo'naltirishi va boshqarishi kerak. Pedagog o'zining dunyoqarashi, qadriyatlari, ideallari, kechinma va intilishlarini so'z orqali ifodalagan holda, aqliy va hissiy darajada ta'lim oluvchini unga ishontirishi va ichki kechinmalarini ochishga undashi lozim. Ta'lim oluvchi shaxsining rivojlanish sharoiti - pedagogning tushunish darajasi bilan ta'minlanadi. Pedagog o'zining ijobiy hissiy va qadriyatli munosabati bilangina ta'lim oluvchining ma'naviy-axloqiy etuklikka intilishini shakllantirishi mumkin. Ta'lim oluvchi tomonidan pedagogni tushunish juda nozik psixologik texnika hisoblanadi [7; 8].

Diskursiv texnologiya shaxsiy dialogning rivojlangan shaklining ishlashini ta'minlaydi. Ya'ni, bunda o'qituvchi ta'lim oluvchiga o'zining ma'naviy-axloqiy pozitsiyasi haqida hikoya, maslahat va takliflar sifatida, yoki iltimos bilan murojaat qilishi mumkin. Biroq ushbu shaxsiy muloqot turlari o'rtasidagi ma'lum bir farqqa qaramay, qoida o'zgarishsiz qolishi, ya'ni muloqot ishtirokchilarining o'zarofaolligi bilan shaxsiy dialogning ishlashini ta'minlashi kerak.

Ta'lim oluvchining hayoti davomida "boshdan kechirgan kechinmalari" shaxsiy dialog ishtirokchisi sifatida namoyon bo'ladi. Hayot davomidagi "boshdan kechirgan kechinmalar" shaxsning o'z-o'zini anglash yo'lidagi majburiy bosqich hisoblanadi. Ushbu bosqichda ta'lim oluvchi murakkab ichki o'zgarishlarni boshdan kechiradi va u o'zining shaxsiy muloqoti natijasini baholab, ma'lum

xulosalar chiqaradi. Albatta ushbu yakuniy diskurs muloqot ishtirokchilarida ijobiy kechinma va quvonchlarning namoyon bo'lishini ko'zlaydi.

Shaxsiy muloqotning diskursiv texnologiyasi - bu pedagogning "o'z shaxsiy faoliyati mohiyati bilan ishlaydigan" texnologiyadir. Bu esa, uning murakkabligi va yuqori samaradorligini belgilaydi.

Diskursiv texnologiyalar boshlang'ich ta'limda juda muhimdir. Chunki bu uslub asosida boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi bir vaqtning o'zida ham ta'lim beruvchi, ham tarbiyachi sifatida obro' orttirishi va kichik maktab yoshidagi o'quvchilari taqlid qilishiga namuna bo'lishi mumkin. Shu sababdan ham mana shunday konstruktiv muloqot uchun pedagog nafaqat ta'lim oluvchilarning individual xususiyatlarini bilishi va hisobga olishi, balki, shuningdek, pedagogik o'zaro ta'sirning optimal strategiyalarini tanlashi va o'z vaqtida, samarali amalga oshirish uchun o'zining shaxsiy uslublariga ega bo'lishi juda muhimdir.

Zero, pedagogik jarayon - ta'lim oluvchilar bilan turli xil faoliyatda o'zaro aloqalar o'rnatilib, bunda pedagog faoliyatining muvaffaqiyati pedagogik muloqot jarayonida vujudga keladigan munosabatlarning mazmun-mohiyati bilan belgilanadi.

**Xulosa.** Shunday qilib, oliy pedagogik ta'limni rivojlantirishning hozirgi bosqichida bo'lajak pedagoglarni kasbiy tayyorlash tizimiga innovatsion texnologiyalarni joriy etish asosan bilim va hissiy tajribaga, kasbiy muloqot sharoitida harakat qilish qobiliyatiga, motivlarni tushunishga, ham o'zining, ham sheriklarining o'zaro munosabatlardagi xatti-harakatlari, muloqot qilish uslubi va psixotexnikasini o'zlashtirish strategiyasiga asoslanadi.

#### Adabiyotlar

1. Axmedov A.Yu. (2020). Ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy-pedagogik tayyorgarligining ajralmas qismi bo'lgan kommunikativ kompetentlikni shakllantirish masalalari. *Innovatsii v Pedagogike i Psixologii*, (SI-2№ 8).
2. Ahmedov A.Yu., Egamberdiyev O.A. Bo'lajak o'qituvchilarda kommunikativ kompetentlikni shakllantirishning psixologik-pedagogik imkoniyatlari // International scientific-online conference: INTELLECTUAL EDUCATION TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS. – P. 520-525. <https://interonconf.net/index.php/iet/article/view/1220/1137>
3. Жуков Ю.М., Петровская Л.А., Растенников П.В. Диагностика и развитие компетентности в общении. М: Изд-во Московского университета, 1990. – 104 с.
4. Курашева С.В. Формирование коммуникативной компетентности будущего учителя: Дис. на соискание уч. степени кандидата педагогических наук: 13.00.08. - Кемерово, 2006. - 213 с.
5. Salayeva M.S. Pedagogning kasbiy kompetentligi va professionalizmiga psixologik yondashuv / "Psixologiya fani va yoshlarning rivojlanishi" mavzusidagi Xalqaro onlayn konferentsiya / "INTERNATIONAL

- PSYCHOLOGY SUMMIT” (Xalqaro psixologiya SAMMITI). O’zMU. 2020-yil 27-28-iyul. – B.205- 211.
6. Salayeva M.S. Professionalizm va kasbiy kompetentlik / “Наука, образование и производство в обеспечении устойчивого развития инновационной экономики” материалы научно-практической конференции. Филиал МГУ имени В.М.Ломоносова. 15-16 апреля 2014 года. Часть 1. – С.215-217.
  7. Salayeva M.S. Pedagoging samarali innovatsion faoliyatini ta’minlashda shaxsiy-kasbiy rivojlanishini psixologik qo’llab-quvvatlash / Innovatsion ta’lim: xalqaro tajriba, muammo va yechimlar” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. Toshkent shahridagi YoDJU texnika universiteti. Elektron to’plam. 3-qism. 2021-yil 21-aprel. - B.405-407.
  8. Salaeva M.S. Personal and professional self-development of a teacher to achieve a professional level // Washington DC, USA International Journal of Engineering and Information Systems (IJEAIS) ISSN: 2643-640X. With Impact Factor: 3.2. Vol.5 Issue 3, March - 2021.- P. 234-237.
  9. Яценко Т.С. Активная социально-психологическая подготовка учителя к общению с учащимися. Книга для учителя. – Киев: Освіта, 1993. – 208 с.

## YANGI O’ZBEKISTONNING IBRATLI OILASI

*Qobulova Nodira Bahodirovna (f.f.f.d (PHD))*

*Aziza Amonova Saydulloyevna*

*NavDPI boshlang’ich ta’lim yo`nalishi 2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada oilaning yurtimiz ravnaqi uchun qanchalar muhim ekanligi haqida fikrlar bildirilgan va buning uchun qilinayotgan sa’y-harakatlar haqida qisqacha izohlar keltirilgan.

**Kalit so`zlar:** ibratli oila, innovatsion tadqiqot, oila instituti, barqaror oila, taraqqiyot strategiyasi.

**Abstract.** In this article, opinions are expressed about how important the family is for the development of our country, and brief comments are made about the efforts being made for this.

**Key words:** exemplary family, innovative research, family institution, stable family, development strategy.

**Аннотация.** В данной статье высказываются мнения о том, насколько важна семья для развития нашей страны, и делаются краткие комментарии о предпринимаемых для этого усилиях.

**Ключевые слова:** образцовая семья, инновационные исследования, институт семьи, стабильная семья, стратегия развития.

**Kirish.** Boy ilmiy-madaniy merosimiz, qadimiy urf-odat hamda an’analarimizdan ayonki, har qanday zamon va makonda ham oila biz uchun muqaddas qadriyat sanalgan. Binobarin, tarbiyaviy, ma’naviy-ma’rifiy, ruhiy-huquqiy munosabatlarga asoslangan ijtimoiy birlik hisoblanmish oila qanchalik mustahkam bo`lsa, jamiyat ham shunchalik barqaror taraqqiy etishini ajdodlarimiz

juda yaxshi anglashgan. Shu bois ota- bobolarimiz oilaga juda katta e'tibor bilan qarashgan. Buyuk allomalarimiz Mahmud Koshg'ariy, Ahmad Yugnakiy, Kaykovusdan tortib Beruniy, Ibn Sino, Forobiy, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek va boshqalargacha o'z asarlarida oilaviy masalalar, xususan, oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, bola tarbiyasida ota-ona, bobo-buvining o'rni, komil va vatanparvar shaxsni yetishtirishda bu muhim ijtimoiy institutning roliga alohida yondashib, ibratli hikoyatlar, rivoyatlar, farzandlarga maktublar, hikmatli so'zlar, she'riy satrlar orqali pand-nasihatlar, hayotiy xulosalar yozib qoldirganlar.

**Asosiy qism.** Bugungi shiddat bilan o'zgarib borayotgan globallashuv davriga kelib ham O'zbekiston o'z istiqboli va kelajagini oilani rivojlantirish, uni e'zozlashda, deb bilayotgani yuqoridagi an'anaviy qadriyatimizni yanada boyitgan holda zamonaviy, namunali va farovon oilani barpo etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanganida ham yaqqol namoyon bo'lmoqda. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev "Oila va xotin- qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonni imzolagani haqida xabaringiz bor. Mazkur hujjatga muvofiq Yangi O'zbekistonimizda "Ibratli oila" ko'krak nishoni ham ta'asis etildi. "Ibratli oila" ko'krak nishoni farovon va barqaror oilalarning hayotiy tajribalarini ommalashtirish maqsadida oila institutini mustahkamlash, oilaviy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirishga munosib hissa qo'shgan oilalarga beriladi. Farmon bilan uni 15-may kuni – Xalqaro oilalar kunida topshirish tartibi belgilangan. Shubhasiz, Yangi O'zbekistonimizning tayanchi va negizi ham oila hisoblanadi.

Xususan, tadqiqotlarimiz natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, bugun oila atalmish muqaddas dargoh ostonasidan xatlayotgan ko'pchilik yoshlarimiz (shu o'rinda tengdoshlarim ham) mustaqil hayotga na iqtisodiy, na huquqiy, na ruhiy, va na diniy-ma'rifiy tomondan tayyor. Shu sababli ham mutaxassislarimiz tomonidan oila masalalariga yangicha innovatsion yondashuv joriy etilmoqda. Oilalar bilan ishlash bo'yicha treninglar tashkil etish orqali soha mutaxassislariga mukammal bilim va ko'nikmalar berilib kelinmoqda. Albatta, oilalar bilan ishlashda soha mutaxassislaridan yuqori bilim hamda ko'nikma, o'ziga xos tajriba talab etiladi. Bundan tashqari, oilani mustahkamlash va rivojlantirish, oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni yaxshilash, jamiyatda eng ibratli oilaviy an'analarni saqlab qolish hamda targ'ibot qilish masalalari bo'yicha hududlarda qator fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar olib borilayotir.

Oila - nafaqat bir yurtning, balki umuminsoniyatning katta siyosati. Aytish kerakki - davlat siyosati. Nega deganda, bashariyatning tirikligi, uzluksizligi – oiladan! Axir oilaning eng birlamchi va bevosita vazifasi, ma'naviyat tili bilan aytganda, muqaddas vazifasi – insoniyatning zanjirini sog'lom va iqtidorli avlodlar bilan ulab borishdan iborat-ku! Bu - hamma millat, hamma davlat, hamma xalqlar zimmasidagi sharaflil vazifa. Bundan tashqari, taraqqiyot strategiyasida ham oila masalalariga e'tibor qaratilgan. Jumladan, Yangi O'zbekistonimizda ibratli oilalarni ko'paytirish maqsadida kam ta'minlangan oilalarga ijtimoiy yordam va

xizmatlarni ijtimoiy shartnoma asosida taqdim etish, ko'plab oilaviy shifokor punkti, oilaviy poliklinikalarni tashkil qilish bo'yicha bir qator ishlar belgilanib qo'yildi. Shubhasiz, oila nizomsiz bo'lsa, uning yomon oqibati butun millatga ta'sir etadi. Shuning uchun ham Yangi O'zbekistonimizda oilaning barqarorligini saqlash maqsadida bir qator ishlar olib borilmoqda va ularni amalga oshirish talab etiladi.

**Xulosa.** Mamlakatimizdagi har bir oilani huquq manfaatlarini to'liq ro'yobga chiqarish, ular uchun munosib turmush sharoitini yaratish, oilaviy munosabatlar muvozanatini ta'minlash, oila farovonligini oshirish, muxtasar aytganda, oila institutini har tomonlama qo'llab – quvvatlagan holda, Yangi O'zbekistonimizning izchil va barqaror taraqqiyotiga erishish uchun biz yoshlar ham o'z hissamizni qo'shishimiz darkor. Hammamizning niyatimiz, har bir oila ma'naviy sog'lom, baxtli va xotirjam hayot kechirsin. Zero, oila jamiyatning asosiy bo'g'ini ekan, uning mustahkam bo'lishi, farovonligi davlatimiz va jamiyatimiz ravnaqiga xizmat qilishi, shubhasizdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Xalq so'zi” gazetasi. Guvohnoma:1191. 26.04.2018-yil.Toshkent shahri. Elektron manzil: [info@xs.uz](mailto:info@xs.uz)
2. “2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'grisida” gi farmoni.2022-yil 31-yanvar
3. “ Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risi”dagi PF.11.03.2022-yil
4. “Oila psixologiyasi” G'ayrat Shoumarov.

#### ВОПРОСУ ОБ ОСОБЕННОСТЯХ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ПЕРЕВОДА

*Наврүзова Елена Павловна  
студентка 3 курса ДжГПИ  
Узбекистан, Джизак*

**Аннотация.** Статья посвящена некоторым трудностям, с которыми могут сталкиваться профессиональные переводчики при работе с художественным текстом. Также приводятся мнения известных ученых-лингвистов по вопросу решения таких трудностей, возникающих в процессе перевода.

**Ключевые слова:** художественный перевод, средства выразительности, индивидуальный стиль автора, национальная специфика, хронологическая адаптация.

**Abstract.** The article is devoted to some of the difficulties that professional translators may face when working with a literary text. The opinions of well-known linguists on the issue of solving such difficulties that arise in the translation process are also given.

**Key words:** literary translation, means of expression, individual style of the author, national specificity, chronological adaptation.

**Annotatsiya.** Maqola professional tarjimonlar badiiy matn bilan ishlashda duch kelishi mumkin bo'lgan ba'zi qiyinchiliklarga bag'ishlangan. Tarjima jarayonida yuzaga keladigan bunday qiyinchiliklarni yechish masalasida taniqli tilshunos olimlarning fikrlari ham berilgan.

**Kalit so'zlar:** badiiy tarjima, ifoda vositalari, muallifning individual uslubi, milliy o'ziga xoslik, xronologik moslashuv.

Мир художественной литературы может угодить даже самому искушенному читателю. В наше время на полках книжных магазинов, в библиотеке или в интернете каждый из нас может найти тот жанр, который придётся ему по вкусу. Благодаря кропотливой работе переводчиков читатели также могут выбирать произведения зарубежных писателей.

В данной статье мы бы хотели осветить некоторые особенности, которые встречаются в работе переводчика художественных текстов.

Как следует из названия, художественный перевод включает в себя перевод всех жанров художественной литературы (проза, поэзия, детская литература, фольклор, драматургия, и т. д.). По мнению многих переводоведов, художественный перевод считается наиболее сложным, т. к. автор использует всё богатство своего родного языка для передачи сообщения читателю.[1] Так и профессиональный переводчик должен задействовать соответствующие лексические единицы языка перевода для максимально полной передачи всех средств выразительности, использованных в тексте. К подобным лексическим единицам можно отнести такие тропы как метафоры, эпитеты, сравнения, синекдохи и т. д.

Также отдельные сложности представляют переводы лексических (фразеологизмы, диалектизмы, неологизмы и т. д.) и синтаксических средств выразительности (градация, параллелизм, инверсия и т. д.). В этом и заключается одна из особенностей художественного перевода – создать письменный художественный текст на языке перевода, сохранив при этом его художественно-эстетическую ценность.

Особую трудность для переводчиков представляют поэтические произведения. Помимо богатого разнообразия стилистических особенностей, переводчик должен постараться сохранить ритм и рифму. Некоторым переводчикам такая задача кажется невыполнимой, но профессиональные переводчики доказывают, что это возможно[2]. Отдельно стоит отметить, что переводчик не должен просто копировать каждую деталь, он адаптирует их под нормы языка перевода, в некоторых случаях использует другие стилистические средства для достижения нужного эффекта [3].

Следующая особенность заключается в передаче индивидуального стиля повествования автора оригинала. По мнению Л. С. Бархударова, переводчику «абсолютно необходимо знать переводимого автора, его мировоззрение, эстетические взгляды и вкусы, литературное течение, к которому принадлежит этот автор, его творческий метод, а также описываемую в

данном художественном произведении эпоху, обстановку, условия жизни общества, его материальную и духовную культуру и многое другое». [4]

Каждый переводчик, будучи творческой личностью, чувствует себя автором. Некоторые пытаются добавить что-то от себя в текст перевода, игнорируя стиль автора. Но это считается недопустимым в профессиональной переводческой сфере, ведь переводчик – это посредник между автором и читателем, он не должен «улучшать» текст по своему собственному желанию путем изменения стиля автора. Очевидно, что полностью передать авторский стиль со всеми стилистическими приёмами достаточно сложно ввиду литературной традиции языка перевода. Иногда сложно найти эквивалентный перевод тем или иным средствам выразительности. Тогда переводчик использует свой талант, языковую догадку и средства родного языка, пытаясь как можно точно передать индивидуальный стиль автора, при этом не перенося свой собственный «переводческий» стиль.

По мнению В. В. Сдобникова, «чтобы читатель перевода увидел лицо автора, переводчик должен найти не формальные, а функциональные соответствия каждому авторскому приему, а это уже требует от него не самоустранения, а активной творческой позиции» [5].

Таким образом, процесс перевода можно назвать сотрудничеством автора, желающего донести определенный посыл до читателя, и переводчика, понимающего эстетику создателя оригинала и вживающегося в его мировосприятие и художественный стиль.

Зачастую произведения художественной литературы полны специфических реалий страны языка перевода. Если переводчик считает, что необходимо передать информацию так, чтобы читатель перевода не заметил инокультурной среды, то он сглаживает выступающие в тексте культурные реалии, делая их незаметными, такими же, как для читателя оригинала. Конечно, в таком переводе приходится жертвовать национальной спецификой. Таким методом обычно пользуются при написании адаптированного перевода или вольного пересказа, например, при переводе литературы для детей.

Qishloq yoshlarining turmush tarzi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, maishiy, psixologik omillar bilan belgilanadi, biroq shahar yoshlarinikidan farqli o'laroq, ayrim o'ziga xos xususiyatlarga ega. Tarixga murojaat qilsak, 1980 yillar ikkinchi yarmi 1990 yillar boshlaridagi iqtisodiy islohotlar qishloq hududlari uchun qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining tushkunlikka uchrashi, turmush darajasining keskin pasayishiga olib keldi. Qishloq iqtisodiyetning eng nochor sektorlaridan biriga aylandi. Qishloqdagi o'zgartirish jaraenlariga kiritilgan fuqarolik jamiyati g'oyalari birmuncha ijobiy ta'sir ko'rsatgan bo'lsa-da, salbiy holatlar ham uchradi. . Bu salbiy holatlarga reproduktiv funksiyaning pasayishi, jismoniy sog'likning, ijtimoiy-psixologik ahvolning yomonlashuvi, ertangi kunga ishonchsizlik, ishsizlik, dam olish faoliyati mazmunining ozayib ketishi. 2019 yilda o'tkazilgan sosiologik so'rovning ko'rsatganidek, qishloq yoshlarining ko'pchiligi moddiy qiyinchiliklarni boshdan kechirishmoqda. So'ralgan 200ta qishloq yoshlarining faqat 7%z igina hych narsaga muhtojlik sezmayotganliklarini aytishdi; 25,5% u yoki bu darajada o'z moddiy ahvolidan qoniqqan; 59,2% esa o'z kelajagidan xavotir olmoqda. Buning sababi qishloqning ish va ishdan tashqari vaqtda yoshlarga shaxsiy realizasiyasi uchun imkoniyatlarning cheklanganligi yoki mavjud emasligi bilan belgilanadi. Ish o'rinlari vakansiyalari, mehnat haqi, dam olishni tashkil qilish imkoniyatlari yoshlarning qiziqishlari, ehtiyojlari va hayotiy rejalariga mos tushmaydi. Ayrim chekka qishloqlarda yuksak darajadagi ma'lumotli bo'lib qaytgan yuqori malakali mutaxassislar o'z ixtisosligi bo'yicha ishlash imkoniyatiga, o'z malakalari darajasiga mos bo'lgan ish haqi olish imkoniyatiga ega emas. Qishloq yoshlarining katta qismi nafaqat o'z qishloqlarida, balki tuman markazi yoki yaqin shahardan ish topa olmaydi. Shuning uchun, ko'pchilik yoshlar, xattoki oliy ma'lumotlilar ham chet elga ishlashga ketishmoqda. Qishloq mintaqasining kambag'alligidan so'ralganlarning 69,8% xavotirlanmoqda [2]. Aytish mumkinki, aynan ana shu sabablar qishloqlardagi tug'ilish darajasining pasayishiga ham sabab bo'lmoqda. Sobiq sovet davrida qishloq yoshlari 18 yoshda xizmatga ketib, 20 yoshida qaytib o'ylanar edi. Yosh oilalarning kamida 4-5ta bolasi bo'lardi. Ayrim oilalarning 7-9 va undan ko'proq bolalari bo'lardi. Ana shu bolalarning ulg'ayib, oila qurishlari tufayli, migrasiyaga, ya'ni boshqa millat xalqlarining tarixiy vatanlariga ko'chib ketishlariga qaramay, O'zbekiston aholi sonida ko'payish kuzatilgan edi. Bugun esa qishloqdagi ko'pchilik yosh oilalarning 1-3 ta bolasi bor. Qishloqdagi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat yoshlarni shaharga ko'chib ketishlariga ham sabab bo'lmoqda. So'nggi yillarda mamlakatimizda yoshlarni ish bilan ta'minlash borasida ko'plab ijobiy ishlar qilinmoqda. Bularga yosh fermer va xususiy tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash, tomorqa uchun kreditlar ajratish, turli klaster korxonalarini barpo qilish va boshqalar kiradi. Bugungi kunda qishloq hududlarida yashash uchun sharoitlarni yaratib berish (namunaviy uylar qurish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash) qishloq xo'jaligi iqtisodiyetini yuksaltirish borasidagi birinchi navbatdagi vazifalardan hisoblanadi. Biroq, start kapitalining, texnikaning, hamkorlarning mavjud emasligi tadbirkorlik va fermerlik bilan shug'ullanishdan

voz kechish hollariga olib kelmoqda. Bundan tashqari, kriminallasuv jarayonlari ham qishloq yoshlarining ongiga ta'sir qilmoqda. Yosh avlodning nazarida soliqlardan bosh tortish, harbiy xizmatdan qochish, topilgan narsalarni o'zlashtirish kabi holatlar oddiy narsaga aylanib ketgan. Yoshlarning huquqiy ongi va xulqiga ommaviy axborot vositalari, birinchi navbatda, internet ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Internetda jinoyatni sodir etishning yo'llari va usullarini ko'rsatuvchi yoki batafsil yoritib beruvchi filmlar ko'payib ketgan. Jangari filmlardagi ko'zga ko'z, tishga tish, jonga jon kabilidagi tamoyillarga amal qiladigan —qahramonlar uchun o'z maqsadiga erishishda har qanday vosita va usullarni qo'llashi oddiy hol ekanligi ham yoshlar ongiga salbiy ta'sir qilmoqda. So'nggi yillarda qishloqlardagi kinoteatrlar, kutubxonalar, klublar, to'garaklar, sport maydonchalarining yopilishi qishloq ijtimoiy-madaniy muhitini og'ir ahvolga soldi. Bularning barchasi qishloq yoshlarining dam olish va bo'sh vaqtlarini foydali o'tkazish shakllarini tanlash spektrini qisqartirdi. Yoshlarning bo'sh vaqti va dam olish vaqti maroqli, tashkil etilmagan, individual-shaxsiy xarakterga ega. Bo'sh vaqtni maroqli o'tkazish uchun sharoitlarning yetishmasligi yoshlar orasida yakkalik, tarqoqlik, bir biridan uzilib qolganlik, madaniy va ta'limiy jihatdan shahar yoshlaridan orqada qolishga olib keladi. Bo'sh vaqtni mazmunli, sifatli, foydali o'tkazish va tashkil qilish uchun imkoniyatning yo'qligi, moddiy qiyinchiliklar, ishsizlik, hayotni yaxshi tomonga o'zgartirishga iloj yo'qligini anglash qishloq yoshlari muhitida salbiy illatlarning tarqalishiga olib kelishi mumkin. Bu muammolarni hal qilish uchun qishloq aholisi turmush darajasini har tomonlama oshirish zarur bo'ladi. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyev raisligida 2020 yil 27 fevral kuni tadbirkorlikni rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlar bo'yicha videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda tadbirkorlikni rivojlantirish va kasbga tayyorlash orqali kambag'allikni kamaytirish choralari belgilandi. «Dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, 12–15 foiz yoki 4–5 million aholimiz kambag'al, - deya ma'lum qildi Prezident Shavkat Mirziyev. - Bu ularning bir kunlik daromadi 10–13 ming so'mdan oshmayapti, degani. Yoki bir oilada mashina ham, chorva ham bo'lishi mumkin, lekin bir kishi og'ir kasal bo'lsa, oila daromadining kamida 70 foizi uni davolatishga ketadi. Xo'sh, bunday oilani o'ziga to'q deyish mumkinmi? Prezident sifatida meni odamlarimizning ovqatlanishi, davolanishi, bolalarini o'qitishi, kiyintirishi kabi hayotiy ehtiylari nima bo'layapti, degan savol har kuni qiynaydi», - dedi Shavkat Mirziyev.«Kambag'allikni kamaytirish oylik yoki nafaqa miqdorini ko'paytirish, yoppasiga kredit berish, degani emas. Buning uchun, eng avvalo, aholini kasbga o'qitish, moliyaviy savodxonligini oshirish, odamlarda tadbirkorlik hissini uyg'otish, infratuzilmani yaxshilash, farzandlarini o'qitish, sifatli davolanish, manzilli nafaqa to'lash tizimini joriy qilish kerak», — dedi davlatimiz rahbari [1]. Yig'ilishda avvalo har bir mahalla, tuman, shahar va viloyat darajasidagi haqiqiy sharoit va ahvolni tahlil qilish kerakligi qayd etildi. Buning uchun, birinchi yo'nalishda kambag'allikka oid real ahvol, ya'ni mahallalardagi daromadi kam oilalar soni haqida ma'lumot yig'ilishi, ikkinchi yo'nalishda tuman va shaharning

salohiyati, tabiiy resurslari, yer va infratuzilma imkoniyatlari xaritasi tuzilishi belgilandi. «Odamlarning mehnat qilib, boy bo'lishi va yaxshi hayot kechirishi uchun barcha sharoitlarni yaratishimiz zarur», — dedi Prezident.[2] Qayd etilganidek, tadbirkorlik yaxshi rivojlangan va aholi zich joylashgan hududlar atrofida qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan va bo'sh turgan yer maydonlarida kichik sanoat zonalari tashkil etiladi. Ulardagi yer uchastkalari tadbirkorlarga sotiladi. Foydalanishdan chiqib ketgan yerlarni kambag'al aholiga ajratib beriladi. Aholini tadbirkorlikka o'rgatish, kasbiy malakasini oshirish orqali kambag'allikni kamaytirish eng asosiy masala hisoblanadi. Hozirgi kunda mamlakatda rasman ish bilan band bo'lmagan 1 million 400 mingga yaqin ayollar va yoshlar bor. Xotin-qizlar o'rtasida ishsizlik darajasi 13 foiz, yoshlarda esa 15 foizni tashkil etmoqda. Shu bilan birga, bugungi kunda qurilishda 104 ming, kommunal sohada 71 ming, xizmat ko'rsatish sohasida 68 ming, yengil sanoatda 46 ming nafar mutaxassisga ehtiyoj mavjud. Yig'ilishda shu kabi talab bor joylarga malakali mutaxassislar yetkazib berish, bandlikni ta'minlash uchun har bir hududda ishsiz aholini tadbirkorlikka o'qitish kurslari tashkil etish zarurligi ta'kidlandi. Kasbga o'qish istagini bildirgan yolg'iz va ko'p farzandli ayollar, ishsizlar uchun kundalik hayotda ehtiyoj yuqori bo'lgan hunarlar, xususan, tikuvchilik, pazandalik, sartaroshlik va boshqa yo'nalishlarda kasbga o'rgatish kurslari tashkil etiladi. Kasbga tayyorlash markazlarini tashkil etishga nodavlat tashkilotlarni faol jalb qilish, ular o'rtasida eng yaxshi kasbga tayorlash o'quv dasturi bo'yicha tanlov o'tkazib, g'oliblarga Bandlikka ko'maklashish jamg'armasidan grant ajratish bo'yicha topshiriqlar berildi. O'ylaymizki, ana shu topshiriq va vazifalar bajarilsa, qishloqlarimizdagi ahvol yaxshilanib, yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli ham ijobiy o'zgarishlarga uchraydi.

#### **Foydalanilgan manbalar ro'yxati**

1. Kambag'allikni kamaytirish choralari belgilandi
1. <https://www.gazeta.uz/uz/2020/02/27/qashshoqlik/> .
2. Kambag'allikni kamaytirish choralari belgilandi
3. <https://www.gazeta.uz/uz/2020/02/27/qashshoqlik/>
4. Mustaqil tadqiqot natijalari. 2018-2019 yillar. Sosiologik so'rov.

## YURIDIK FANLARI

JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLAR MUROJAATLARINI KO'RIB  
CHIQUISH INSTITUTINING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI

*Ergashev Ikrom Abdurasulovich*  
*Toshkent davlat yuridik universiteti*  
*Ma'muriy va moliya huquqi kafedrası dotsenti, y.f.d*

*Begatov Jasurbek Numonjanovich*  
*Toshkent Davlat Yuridik universiteti magistranti*  
[jbegatov96@gmail.com](mailto:jbegatov96@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolda jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari bilan ishlash sohasidagi munosabatlarni huquqiy tartibga solish asoslari va mexanizmlarini takomillashtirish yuzasidan ilmiy-amaliy tahlil etish orqali amaliy takliflar berilgan. Bugungi kunda fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklaridan biri fuqarolarning murojaat qilish huquqidir. Davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga murojaat qilish huquqi - insonning asosiy va ajralmas huquqlaridan biridir. U yoki bu jamiyatda insonning davlat organlariga murojaat qilish huquqi huquqiy jihatdan rasmiylashtirilganligi va himoya qilinganligiga asoslangan holda ushbu jamiyatning demokratlashtirilganligi darajasi to'g'risida xulosa chiqarish mumkin.

**Kalit so'zlar:** fuqaro, yuridik shaxs, murojaat, davlat organi, qonun, ariza, norma, elektron hujjalar, yuridik xizmat.

**Abstract.** In this article, practical proposals are given through scientific and practical analysis on the basis of improving the legal regulation of relations in the sphere of working with the appeals of individuals and legal entities. Today, one of the main rights and freedoms of citizens is the right of citizens to appeal. The right to appeal to state authorities and administrative bodies is one of the basic and inalienable rights of a person. It is possible to draw a conclusion about the level of democratization of this society based on the fact that the right of a person to apply to state bodies is legally formalized and protected in this or that society.

**Key words:** citizen, legal entity, appeal, state body, law, application, norm, electronic documents, legal service.

**Аннотация.** В данной статье путем научно-практического анализа даны практические предложения на основе совершенствования правового регулирования отношений в сфере работы с обращениями физических и юридических лиц. На сегодняшний день одним из основных прав и свобод граждан является право граждан на обращение. Право на обращение в органы государственной власти и управления является одним из основных и неотъемлемых прав человека. Вывод об уровне демократизации этого общества можно сделать на основании того, что право человека на обращение в государственные органы законодательно оформлено и защищено в том или ином обществе.

**Ключевые слова:** гражданин, юридическое лицо, обращение, государственный орган, закон, заявление, норма, электронные документы, юридическая услуга.

**Kirish (Introduction).** Davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatiga baho berishda qonuniylikni ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklari qanday himoya qilinayotgani, ularga davlat xizmatlari ko'rsatishning sifati va ochiqligi biz uchun eng asosiy mezon bo'lishi shart. Mazkur sohaga oid ishlar tizmi xususiyatga ega ekanligi jismoniy va yuridik shaxslarning yozma va og'zaki murojaatlarini ko'rib chiqishni tashkil etish tartibini takomillashtirish bo'yicha talablarni shakllantiradi. Jahonda shaxsning murojaat qilish huquqini huquqiy tartibga solishning o'ziga xos yo'nalishlarini belgilash va uni to'liq amalga oshirish asosida ushbu sohani takomillashtirish va fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirish bo'yicha ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu munosabat bilan jismoniy shaxsning (shaxslarning) murojaat qilish huquqini ta'minlash, "aqlli huquqiy tartibga solish" shakllarida axborot texnologiyalari ulushini oshirish, ko'rib chiqishning yangi samarali mexanizmlarini takomillashtirish bilan bog'liq masalalarni huquqiy tartibga solishni o'rganish muhim ahamiyatga ega. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash bo'yicha davlat organlari faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish, muammolarini milliy va xalqaro miqyosda o'rganishning alohida tizmi yartilishi lozim.

Murojaat qilish huquqini mazmunini fuqaroning davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etish imkoniyati, o'zining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini amalga oshirish va himoya qilish shuningdek, o'zaro bog'liq holda boshqa konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirishni nazarda tutuvchi kompleks xarakter kasb etadi[1]. Murojaatlar har kimga davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etish, o'zining fikrlari va qarashlarini bildirish, huquq va erkinliklarini himoya qilish yoki tiklash bo'yicha huquqlarini ifodalaydi. Bunda fuqarolar o'zlarining takliflari va tashabbuslari bilan murojaat qilgan holda davlat organlari tomonidan qarorlar qabul qilishda ishtirok etishi mumkinligi nazarda tutiladi.

"Murojaatlar – fuqarolarning davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etish shakli" nazariyasi tarafdorlarining fikricha, murojaatning muhim jihati uning fuqaroning davlat va jamoat ishlarini hal qilishda ishtirok etish shakli, fuqaroning davlat organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining faoliyatiga faol ta'sir ko'rsatish imkoniyatlari sifatida tavsiflanishi hisoblanadi[2].

Mamlakatimizda fuqarolar va davlat organlari o'rtasida samarali aloqani o'rnatishda zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanishga o'tilmoqda. Jumladan, inson va davlat o'zaro aloqalarida eng maqbul mexanizmni joriy qilish ham davlatimiz darajasida, ham hududiy miqyosidagi dolzarb masaladir. Fuqarolarning murojaat etish huquqining mazmuni yoritib berishda, dastlab "murojaat" tushunchasini yoritib berishimiz lozim. Izohli lug'atlarda murojaat deganda, ko'rib chiqish, taqqoslash, solishtirish, biror narsa so'rash, ishni qayta ko'rish, birovga qarata aytilgan gap, qilingan da'vat, chaqiriq va shu kabilar

tushunilishi, murojaat qilmoq deganda esa, biror ish, iltimos, chaqiriq va shu kabilar bilan birovga qarata ogʻzaki yoki yozma soʻz aytish bayon etilgan.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Mamlakat hududlaridagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat ularning davlat organlariga murojaatlarni xususiyatlariga bevosita bogʻliq. Murojaatlarda koʻtarilgan muammolarni oʻz vaqtida va sifatli hal etish fuqarolarning ehtiyojlari va talablarini qondirishga katta yordam beradi, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining obroʻ-eʼtiborini oshirishga, ularning aholi bilan aloqasini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Tadqiqotda analiz, sintez, ilmiy bashoratlash, induksiya, deduksiya, kuzatish, tarixiylik va tizimlashtirish, qiyosiy-huquqiy tahlil, *statistik va ilmiy bilishning boshqa metodlaridan foydalanilgan.*

Oʻzbekiston Respublikasida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash jarayonida yuzaga keladigan tashkiliy-huquqiy masalalar, ularni amalga oshirish mexanizmlari, yuridik xizmatda jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarini samarali tashkil etish bilan bogʻliq mavjud huquqiy munosabatlar tizimi hisoblanadi.

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish va samarali taʼminlashning eng muhim shakllaridan biri boʻlibgina qolmay balki uning vositadir. Ushbu murojaat qilish vositasi davlat organlari faoliyatiga, ularning qarorlari va harakatlarining mazmuniga sezilarli taʼsir koʻrsatishi mumkin.

Murojaatlarda koʻrsatilgan muammo va kamchiliklarni umumlashtirish va tahlil qilish fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligini aniqlash, aholining davlat organlariga boʻlgan ishonch darajasini aniqlash, davlat organlari faoliyatini tashkil etishdagi kamchiliklarni aniqlash va bartaraf etish vositasidir. Murojaatlarda koʻtarilgan muammolarni tahlil qilish va ularni umumlashtirish fuqarolik jamiyati institutlari ijtimoiy faolligining koʻrsatkichi (koʻrsatkichi) hisoblanadi. Ular davlat institutlariga ishonch bildirish, davlat hokimiyati organlari faoliyatidagi kamchiliklarni aniqlash vazifasini bajaradi.

Fuqarolarning murojaatlari jismoniy va yuridik shaxslar huquqlarini amalga oshirishning, davlat hokimiyati va fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlarining aholi bilan aloqasini mustahkamlashning negizi hisoblanadi. Fuqarolarning murojaatlari, bir tomondan, davlat ahamiyatiga molik va ijtimoiy ahamiyatga ega masalalarni hal etish uchun zarur boʻlgan maʼlumotlarning jiddiy manbasi, ikkinchi tomondan – fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etish vakolatlarining eng muhim shakllaridan biridir.

Yuridik matnlarda esa, “murojaat” umumlashgan tushuncha boʻlib, fuqarolarning bevosita oʻzi murojaat etishi, shuningdek, mansabdor shaxslar va fuqarolar yigʻiniga yakka tartibdagi va jamoaviy murojaatlarni yuborishda ifodalangan konstitutsiyaviy huquqi tushuniladi. Shu oʻrinda taʼkidlab oʻtish mumkinki, murojaat qilish huquqi, uning oʻziga xos xususiyatlari yuzasidan aniq va yakdil ilmiy-nazariy qarash yoʻq. Jumladan, huquqshunos olim S.B Yusupovning taʼkidlashicha, jismoniy va yuridik shaxslarni murojaat qilish huquqi shaxsning

belgilangan tartibda murojaat qilishi, uning aniq vaqtda va belgilangan tartibda ko'rib chiqilishini talab qilish huquqi hisoblanadi.

A.P.Sunsov va A.A.Mishunina murojaat qilish huquqi xalq hokimiyatini amalga oshirish shakllaridan biri ekanligini ta'kidlaydi[3]. Bizning fikrimizcha, fuqarolar o'zlarining murojaatlari bilan davlat organlari tomonidan qarorlar qabul qilishda ishtirok etishi mumkinligi anglatadi.

Y.Xrumalova va M.Mixaylovskiyning qayd etishicha, "Murojaatlar davlat uchun jamiyatning ehtiyoji va zaruratiga o'z vaqtida va sifatli ta'sir ko'rsatish maqsadida muhim axborot manbai, shaxs erkinligi va manfaatlarini qanoatlantirish uchun aholi bilan samarali aloqa vositasi hisoblanadi[4].

Davlat organlariga murojaat qilish huquqi – bu inson va fuqaroning, shuningdek tashkilotlarning bevosita yoki o'z vakili orqali davlat organlariga o'zlarining, shuningdek boshqa shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini tiklash va ro'yobga chiqarish uchun davlat organlariga shaxsan yoki jamoa bilan yozma yoki og'zaki murojaat qilish imkoniyatidir.

Murojaat qilish subyekti sifatida O'zbekiston fuqarosi, chet el fuqarosi va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etishlari mumkin. Jismoniy va yuridik shaxslar davlat organlariga murojaat etish huquqiga ega. Murojaat etish huquqi ixtiyoriy amalga oshiriladi. Qonunchilik bo'yicha hech kim biron-bir murojaatni himoya qilishga yoxud unga qarshi qaratilgan harakatlarda ishtirok etishga majburiy jalb etilishi mumkin emas.

"Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga taklif qilish to'g'risida"gi Qonunning 1-moddasiga muvofiq, har bir fuqaro davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari yoki mansabdor shaxslarning g'ayriqonuniy xatti harakatlari (qarorlari) bilan o'z huquqlari yoki erkinliklari buzilgan deb hisoblasa, taklif bilan sudga murojaat qilish huquqiga ega.[5]

2017-yil 11-sentyabrda Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida qonun qabul qilindi. "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonun 5 bob, 31 moddadan iborat. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari va texnologiyalaridan foydalanib, murojaatlarni kiritish imkoniyatining huquqiy jihatdan mustahkamlanishi ushbu qonunning muhim jihatidir. Unda fuqarolarning huquq va erkinliklarini, shuningdek, yuridik shaxslarning qonuniy manfaatlarini himoya qilishning qo'shimcha kafolatlari mavjud. "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi davlat organlari va boshqa tashkilotlarning ushbu sohadagi ishini sifat jihatidan yuqori darajaga ko'tarish imkonini berdi. Shu o'rinda alohida ta'kidlash kerakki, qonun moddama-modda, puxta muhokama etilganidan keyin Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilindi. Deputatlar qonun loyihasini tayyorlash jarayonida murojaatlar sohasidagi chet el qonunchiligi va huquqni qo'llash amaliyotini o'rganishgan. Jumladan, Yevropaning ilg'or mamlakatlari,

amaliyoti chuqur o'rganildi. Bu esa, qonunning demokratik talablarga mos ravishda ishlab chiqilganidan dalolat beradi. Qonunda belgilangan tartiblarga ko'ra, jismoniy va yuridik shaxslar davlat organlariga murojaat etish huquqiga ega.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Murojaatlar bilan ishlashga doir huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, xorijiy mamlakatlar qonunchiligi va amaliyoti hamda ilmiy-nazariy qarashlar va boshqa manbalardan iborat.

Murojaatlar og'zaki, yozma yoxud elektron shaklda bo'lishi mumkin. Jahon amaliyotiga nazar tashlaydigan bo'lsak bugungi kunda elektron hujjatlar davlat hokimiyatini amalga oshirishda asosiy hujjat sifatida foydalanilmoqda. Yuqorida aytilganidek, amaldagi qonunchilikda elektron murojaatlar ham rasmiy maqomga ega bo'ldi. Elektron murojaat elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan va elektron hujjatning uni identifikatsiya qilish imkoniyatini beradigan boshqa rekvizitlariga ega bo'lgan elektron hujjat shaklida bo'lishi kerak. Elektron raqamli imzo bilan tasdiqlanmagan murojaatlar anonim murojaatlar deb hisoblanadi. Bundan xulosa qilish mumkinki, har qanday elektron murojaatlar rasmiy maqomga ega emas, faqat Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali – My.gov.uz portali orqali yuborilgan murojaatlar og'zaki va yozma murojaatlarga tenglashtirildi. Murojaatlar tog'risidagi qonunga muvofiq murojaatlar: arizalar, takliflar va takliflar tarzida bo'lishi mumkin. Murojaatlar davlat organlari tomonidan qabul qilinishi va ko'rib chiqilishi shart. Davlat organiga kelib tushgan murojaatlar shu organ tomonidan yoki uning murojaatlarni ko'rib chiqish bo'yicha majburiyatlar zimmasiga yuklatilgan mansabdor shaxsi tomonidan ko'rib chiqiladi. Jismoniy va yuridik shaxslar o'z murojaatlarini ular ko'rib chiqilguniga qadar va ko'rib chiqilayotgan vaqtda murojaat yuzasidan qaror qabul qilinguniga qadar yozma yoxud elektron shaklda ariza berish orqali qaytarib olish huquqiga ega. Qo'yilgan masalalarni hal etish o'zining vakolat doirasiga kirmaydigan davlat organiga kelib tushgan murojaatlar besh kunlik muddatdan kechiktirmay tegishli organlarga yuborilib, bu haqida murojaat etuvchiga yozma yoxud elektron shaklda xabar qilinadi. Agar murojaatlarda ularni tegishli organlarga yuborish uchun zarur ma'lumotlar mavjud bo'lmasa, bu murojaatlar murojaat etuvchiga besh kunlik muddatdan kechiktirmay asoslantirilgan tushuntirish bilan qaytariladi. Ariza yoki taklif masalani mazmunan hal etishi shart bo'lgan davlat organiga kelib tushgan kundan e'tiboran 15 kun ichida, qo'shimcha o'rganish va (yoki) tekshirish, qo'shimcha hujjatlarni so'rab olish talab etilganda esa, bir oygacha bo'lgan muddatda ko'rib chiqiladi. Ariza va takliflarni ko'rib chiqish uchun tekshirish o'tkazish, qo'shimcha materiallar so'rab olish yoxud boshqa chora-tadbirlar ko'rish zarur bo'lgan hollarda, istisno tariqasida uzog'i bilan bir oyga uzaytirilishi mumkin, bu haqda murojaat etuvchiga xabar qilinadi. Taklif davlat organiga kelib tushgan kundan e'tiboran bir oygacha bo'lgan muddatda ko'rib chiqiladi.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Murojaatni ko'rib chiqqan davlat organi murojaat etuvchiga ko'rib chiqish natijalari hamda qabul qilingan qaror haqida murojaat ko'rib chiqilganidan so'ng yozma yoxud elektron shaklda darhol

xabar qilishi shart. Murojaat davlat organlari tomonidan ko'rib chiqilayotganda jismoniy va yuridik shaxs murojaat ko'rib chiqilishining borishi haqida axborot olish, shaxsan dalilarni bayon etish va tushuntirishlar berish, murojaatni tekshirish materiallari hamda uni ko'rib chiqish natijalari bilan tanishish, qo'shimcha materiallar taqdim etish yoki ularni boshqa organlardan so'rab olish to'g'risida iltimos qilish, advokat yordamidan foydalanish huquqiga ega.

Murojaatni ko'rib chiqayotgan davlat organlarining mansabdor shaxslari jismoniy va yuridik shaxsga ularning huquqlariga, erkinliklariga hamda qonuniy manfaatlariga daxldor hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan, agar ularda davlat sirini yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma'lumotlar mavjud bo'lmasa, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlariga, erkinliklariga hamda qonuniy manfaatlariga, jamiyat va davlat manfaatlariga zarar etkazmasa, tanishib chiqish imkoniyatini ta'minlashi shart.

Mazkur tadqiqot natijalari murojaatlar bilan ishlashning nazariy asoslarini rivojlantirishga, murojaatlarga oid qonunchilikni takomillashtirishga xizmat qiladi, tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan kelgusi ilmiy faoliyatda, qonun ijodkorligi jarayonida, huquqni qo'llash amaliyotida, murojaatlarga oid qonunchilik normalarini sharhlashda, milliy qonunchilikni takomillashtirish hamda "Davlat va huquq nazariyasi", "Ma'muriy huquq", "Konstitutsiyaviy huquq", "Qiyosiy konstitutsiyaviy huquq", "Konstitutsiyaviy huquqning ilmiy-amaliy muammolari" fanlarini ilmiy-nazariy jihatdan boyitishga xizmat qiladi, shuningdek, tadqiqot natijalaridan yurisprudensiya va psixologiya yo'nalishlarida yangi ilmiy izlanishlar olib borishda foydalanish mumkin. Mazkur ishning ilmiy amaliy ahamiyati shundaki, rivojlanib borayotgan zamonda qonun hujjatlarini ham takomillashtirish natijasida jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarining kafolatlarini, huquqiy asoslarini yaratish hamda yanada rivojlantirish qonunchilik jarayonining bosh maqsadlaridan biridir.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati qonun ijodkorligi faoliyati, xususan, normativ-huquqiy hujjatlar tayyorlash, ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish jarayoni hamda huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirishga hamda oliy yuridik ta'lim muassasalarida ma'muriy va konstitutsiyaviy huquq fanlarini o'qitishga xizmat qiladi.

Murojaatlar sohasida qonunosti hujjatlar orasida eng muhim qonunosti normativ-huquqiy hujjatlar orasida Qonun asosida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 31-martdagi "Davlat organlari va davlat muassasalarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risida namunaviy nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 31 martdagi Qaroriga ilova qilingan "Davlat organlari va davlat muassasalarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risida namunaviy nizom" hisoblanadi.[6]

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Biz yuqorida keltirgan barcha normativ-huquqiy hujjatlar, olimlarni qarashlari, nazariyalardan shunday xulosa qilishimiz mumkinki, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari ularning eng muhim konstitutsiyaviy huquqlaridan biri hisoblandi. Murojaat qilish huquqi har bir shaxsning muhim huquqi hisoblanib, tizimlashtirilgan huquqlar tizimining siyosiy huquqlar turiga mansubdir. Murojaat kelib tushgandan so'ng mansabdor shaxs tomonidan belgilangan tartibda va muddatlarda ko'rib chiqilishi lozim. Shuningdek, Konstitutsiyamizga asosan har bir shaxs o'zining huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqining kafolatlanishi maxsus qonunda va boshqa ko'plab normativ-huquqiy hujjatlarda o'z aksini topgan.

Tadqiqot ishini yakunlar ekanmiz, yuqorida keltirilgan barcha fikrlardan, qonun hujjatlaridan, ilmiy adabiyotlardan foydalanilgan jumladan, shuningdek xalqaro maydonda amalga oshirilayotgan islohotlardan kelib chiqib, mazkur mavzu yuzasidan ushbu tavsiyalarni berish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

Taklif tushunchasiga quydagicha ta'rif berilishini taklif qilamiz:

Taklif- bu aniq bir obyektga yoki shaxslar guruhiga qaratilgan, xulosaviy fikrlarga asoslangan davlat va jamiyat hayoti sohalarini yaxshilash uchun taqdim etilgan fikrlar, masala va maslahatlar majmuasi;

Murojaatlarni quydagi o'ziga xos jihatlarini ajratib ko'rsatish mumkin: a) fuqaroning asosiy konstitutsiyaviy huquqlaridan biri; b) fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtiroki shakli; c) davlat xizmati (funktsiyasi)ni amalga oshirish vositasi; d) buzilgan huquqlarni amalga oshirish, ta'minlash, himoya qilish va tiklash usuli; e) fuqarolar va davlat organlari o'rtasidagi o'zaro aloqa shakli;

Murojaat subyektiga tegishli davlat organiga murojaat qilganligi haqidagi talon(kartochka) berish va unga murojaat sanasi, tashkilot nomi, arizani qabul qilgan tashkilot mas'ul shaxsining ism familiyasi va imzosi bilan rasmiylashtirishni joriy etish;

Telefon orqali murojaatlarni matnli shaklga o'tkazish texnologiyalarini joriy qilish;

Har bir davlat organi va mansabdor shaxsiga murojaatlar yakuni yuzasidan murojaatchi tomonidan onlayn ravishda tashkilot saytida baholash tizimini joriy etish;

Faoliyat yo'nalishi murojaatlar bilan ishlashga bog'liq bo'lgan mutaxassisliklarga oliy o'quv yurtlarida maxsus murojaatlar bilan ishlash bo'yicha o'quv kursni o'qitish;

Tegishli tashkilotlarni murojaatlar bilan ishlovchi hodimlarni malakasini oshirish uchun qisqa muddatli o'quv kurslarini tashkil etish;

Respublika miqyosida murojaatlarni umumiyashtirish, qayta ishalash hamda yo'naltirish bilan shug'ullanuvchi markazlashgan idorani tashkil etish.

## References

1. Румянцев В.Г., Им В.В. Институт обращений граждан в органы государственной и местной власти: понятие, сущность, содержание. // История государства и права. – 2008. – № 14. – С. 2.
2. Третьяков И.А. Место конституционного права на обращения в системе основных прав и свобод человека и гражданина. // Юристы-правоведы. – 2010. – № 2. – С. 16
3. Формирование системы бесплатной юридической помощи в Российской Федерации. / Под ред. Чеботарева Г.Н. – Тюмень, 2012. – С.
4. Хрумалова Ю.В. Право граждан на обращение в органы государственной власти как форма обратной связи между населением и государственным аппаратом. // Гражданское общество в эпоху глобальной Михайловский М. Обращения граждан и организаций – источник информации для законодательной деятельности. // Проблемы теории и практики управления. – 2011. – № 5. – С. 8.
5. “Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga taklif qilish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi, 1995 y., 9-son, 1-modda
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 31 martdagi “Davlat organlari va davlat muassasalarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to‘g‘risida namunaviy nizomni tasdiqlash to‘g‘risida” 73-son qarori. //O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2015 y.,
7. Yusupov Sardorbek, Dildora Abdusattarova Tashkiliy va sud-huquq tizimini takomillashtirish Davlat organlarining murojaatlari bilan ishlash asoslari Innovatsion texnologiyalar va tadqiqot muhandisligi xalqaro jurnali (IJITEE) ISSN: 2278-3075, 9-jild, 1-son, 2019-yil noyabr
8. O‘zbekiston Respublikasining «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida»gi Qonuniga sharh Asyanov.Sh.M, Axrarova D.G. Mas’ul muharrir A. X. Saidov. –T.: «ART FLEX» nashriyoti, 2015. –192 b;
9. Ikramov Sh.T "Jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari to‘g‘risida"gi Qonunning ichki ishlar organlari tomonidan ijro etilishi: O‘quv qo‘llanma Toshkent-2015;
10. I.A.Sottiyev Ichki ishlar organlarida xabarlarni qabul qilish, qayd etish va hal etish: O‘quv-amaliy qo‘llanma. T- 2015, 185 b;
11. Isakov.B. Murojaatlarni hal qilish bugunning eng muhim vazifasidir / Huquq va burch. No 3/2017. Y. 11-13 b;
12. Fayziyev.O.R. Jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlariga oid qonunchilik hujjatlarini rivojlantirish 12.00.02 – Konstitutsiyaviy huquq. Ma’muriy huquq. Moliya va bojxona Yuridik fanlari doktori (Doctor of Science) dissertatsiya;
13. Bobojonov.P “Odamlarni og‘irini yengil qilish-aholining davlat va jamiyatga ishonchini mustahkamlaydi” / Huquq va burch. No 2/2017. Y. 19-23 b;
14. Turdimov.E. (Surxondaryo viloyati hokimi). Xalqimiz roziligi-islohotlarning

asosiy maqsadi / Huquq va burch. No 4/2017. Y. 9-17 b;

- 15.** Yusupov.S.B Davlat organlarining yuridik va jismoniy shaxs murojaatlari bilan ishlashning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish yuridik fan. falsafa doktori dis.: 12.00.02 112-b

## FILOLOGIYA FANLARI

ЎЗБЕК ҲИКОЯ ВА ҚИССАЛАРИДА КУЛГИ МАДАНИЯТИНИНГ  
ИЛДИЗЛАРИ*Khaitov Hamza Ahmadovich**Bux DPI Associate Professor f.f.f.d. (PhD)**Amonova Shakhlo Aminovna**Bux DPI Level 1 Master*

**Аннотация.** Ушбу мақолада XX аср узбек қисса ва ҳикояларида бадиий ифодасига ега кулги маданиятини маънавий илдизлари илмий-назарий таҳлил қилинган.

**Калит сузлар:** Муҳаммад Авфий Бухорий, Ҳ.Раззоқов, сатира, юмор, “латойиф”, руҳ, ривоят, эртак, ойтёк, кунтак ёруқ, урур, кофирлар, қисса, ҳикоя, аския ва хоказо.

**Аннотация.** В данной статье произведен научно-теоретический анализ духовных корней культуры смеха с художественным выражением в узбекских рассказах и рассказах XX века.

**Ключевые слова:** Мухаммад Авфий Бухари, Х. Раззаков, сатира, юмор, «латойиф», дух, повествование, сказка, лунный свет, кунтак яруқ, урур, неверные, қисса, рассказ, аския.

**Abstract.** In this article, a scientific and theoretical analysis of the spiritual roots of the culture of laughter with artistic expression in Uzbek short stories and stories of the 20th century is made.

**Key words:** Muhammad Avfiy Bukhari, H. Razzaqov, satire, humor, "latoyif", spirit, narration, fairy tale, moonlight, kuntak yaruk, urur, infidels, kissa, story, askiya.

Халқ кулгиси ва оғзаки томоша санъати намуналаридан ёзма адабиётда бадиий-эстетик тажриба сифатида фойдаланиш анъанаси мумтоз адабиётдан ҳозирги давр ёзувчилари ижодида ҳам муваффақиятли давом этиб келмоқда. Бу жиҳатдан ўтмиш ижодкорлари асарларида учрайдиган латифа, лоф, аския унсурлари алоҳида эътиборни тортади.

Ўзбек фольклорининг алоҳида, мустақил, қадимий ва анъанавий жанрларидан саналувчи латифалар ғоят оммавийлиги, ҳозиржавоблиги, беғараз кулгига йўғрилганлиги учун кўпинча майдон кулги томошаларида ижро қилинган. Арабча “латифа”, яъни “латиф ва лутф” сўзларидан олинган латифа жанри атамаси моҳиятан нозик қочиримли, майин кинояли кичик кулгили эпизодик ҳикояларга нисбатан қўлланади. 1223 йилда Муҳаммад Авфий Бухорий (1172/1176 – 1233/1242) халқ орасида форс-тожик тилида кенг тарқалган кулгили ҳикояларни “Жавомеъул-ҳикоёт ва лавомеъур-ривоёт” (“Ҳикоятлар тўплами ва ривоятлар зиёси”) номи остида махсус тўплаб алоҳида китоб қилган бўлса, 1532-33 йилларда Фахриддин Али Сафий ҳам “Латойиф ут-тавойиф” (ёки “Латойифуз-заройиф”, “Латофатнома”.

“Турли тоифадагиларнинг латифалари”) номли латифалар тўпламини тартиб бериб, нашр қилдирган. Уни Ҳожи Сотимхон Хожа Инъом Мунаввар ўзбек тилига ўгирган.

Кўриниб турибдики, Муҳаммад Авфий Бухорий китобида латифалар “ҳикоят” деб кўрсатилган бўлса, Фахриддин Али Сафий томонидан “латойиф” термини қўлланилган. Лекин фольклоршунос О.Сафаровнинг фикрича, “латойиф” сўзи гарчи латифа сўзининг кўплиги бўлса-да, латифа мазмунини инкор этмаса-да, “латойиф” – бу латифа эмас. Латойиф – турли-туман дилкаш, мароқли, характерли, хуллас, қимматли воқеа ва ходисаларнинг латифанамо ихчамликдаги баёнидир. Шунинг учун ҳам бу ҳикояларни латифа деб эмас, балки латофатлар, лутфлар деб аташ мантиққа яқиндир. Чунки бу латойифларни ўқиган киши худди латифаларни ўқигандек ҳам қаҳ-қаҳ солиб кулади, ҳам чуқур фикрга толади, сидқидилдан юм-юм йиғлайди ҳам.<sup>21</sup>

Ўзбек халқ оғзаки бадиий ижодида анча кенг тарқалган ва эпик жанрлардан бири бўлган латифалар ҳажвий-юмористик руҳ касб этиши туфайли яратилаётган асарнинг халқона кулги руҳини таъминлай оладики, шу жихатига кўра ижодкорлар ундан ўз асарининг кулги руҳини ошириш учун қадимдан фойдаланиб келишган. Жумладан, Носируддин Бурҳониддин Рабғузийнинг “Қисаси Рабғузий” асарида ҳам латифа термини ишлатилган. Асарда шу атама остида иккита жиддий, аммо кинояга йўғрилган воқеа баёни келтирилган.

Ўзбек фольклоршуноси Ҳ.Раззоқов сатира, юмор характеридаги ҳажвий эртақларнинг кичик ҳажмдагилари тобора ишланиб, ихчамланиши натижасида бора-бора латифа жанрига айланиб кетганини таъкидлайди.<sup>22</sup> Бу фикрни “Латифанинг жанр сифатида шаклланишида эртақ, ривоят, лоф, аския ва мақолларнинг таъсири кучли бўлган”лигини таъкидлаб, профессор Б.Саримсоқов ҳам тасдиқлайди.<sup>23</sup> Агар шундан келиб чиқиб, латифа ва лоф, латифа ва аския муносабатлари мисоллар орқали ўрганиб чиқилса, бизнингча ҳам, латифа жанрининг пайдо бўлишида ривоят, эртақ сингари эпик жанрлар қаторида лоф ва аския каби оғзаки драма жанрларининг ўзига хос таъсирчан ўрни борлиги аёнлашади. Чунки латифада ҳам ривоятдаги каби ҳаёт воқелиги асос қилиб олиниб, ҳаётий воқеа муболага орқали баён этилади. Фақат баёнда кулгининг иштирок этиши ҳамда воқелик баёнининг диалог кўринишида берилиши латифани ривоятдан ажратиб кўяди.

Матнда ҳаётий воқеликнинг бирор-бир тарихий шахс фаолиятига боғлиқ ҳолда ўтган замон шаклида, уйдирмали ва ҳамда кулгили баён этилаётгани латифаларнинг қачонлардир ривоятга яқин бўлганлигини кўрсатиб туради.

<sup>21</sup>Сафаров О. Латифаларнинг латифлиги // Фольклор бебаҳо хазина. – Т.: Муҳаррир, 2010.

<sup>22</sup>Раззоқов Ҳ. Ўзбек халқ оғзаки ижодида сатира ва юмор. – Т.: Фан, 1965. – Б.86.

<sup>23</sup>Имомов К., Мирзаев Т., Саримсоқов Б., Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. Дарслик. – Т.: Ўқитувчи, 1990. – Б.126.

Оғзаки адабиётдаги каби латифалар стилизацияси асосида яратилган асарларда ҳам воқеалар махсус қаҳрамон атрофида кечади. Ёзма адабиётда ягона қаҳрамон кулгиси асосида фош қилувчи характерга эга асарлар анча салмоққа эга. Бунга Шарқ мумтоз адабиётидаги Саъдийнинг “Гулистон” ва “Бўстон”, Рабғузийнинг “Қисаси Рабғузий”, Жомийнинг “Баҳористон”, Навоийнинг “Насойим ул-муҳаббат”, “Мажолис ун-нафоис”, Восифийнинг “Бадоеъ ул-вақоеъ”, Хожанинг “Гулзор” ва “Мифтоҳул адил” каби таркибида латифа келтирилган асарларини мисол қилиш мумкин. Жумладан, “Қисаси Рабғузий”даги латифалар ҳақида айрим мулоҳазалар билдириб ўтилган. Масалан, Ҳ.Сафарова адиб Носируддин Рабғузийнинг ўз қиссасида латифалардан ўринли фойдаланганини алоҳида таъкидлаб: “Рабғузий ривоят, ҳикоят, латифалар орқали Юсуф алайҳиссаломнинг ҳаёти, ишқ можароси ва ватанпарварлигини баён қилган”, – деб ёзади.<sup>24</sup>

Дарҳақиқат, Носируддин Рабғузий бош қисса таркибида учта латифа келтирилган. Улардан бирида Яъқуб пайғамбарнинг олти хотини ва уларнинг ҳар биридан иккитадан, жами ўн икки ўғли борлиги осмондаги юлдузларга ўхшатилиб, нозик қочирим орқали баён этилган.<sup>25</sup> Латифада адабиётнинг нозик маънони ифодалашда ўхшатишдан (мажоздан) ўринли фойдаланиш маҳорати намоён бўлади.<sup>26</sup>

Молик Заър Юсуфни Мисрга олиб келганидан кейин уни сотиб олишни Миср Азизига илтимос қилиши ўрнида яна бир латифадан фойдаланиб, унда шундай киноя келтирилади: “Оқилларга ойтэк, кунтак ёрук урур кофирлар дунё Юсуфин телिम мол бериб олдилар оғир, темади. Ҳам мол олдилар, ҳам жамол элтдилар. Мусулмон манман тегучилар сизма охират Юсуфин тоат отлиғ баҳо бериб сотғин олурда ўсал қилманг, оғир тегманг, йўқ эрса иккисиндин қуруғ қолурсиз”.<sup>27</sup>

Юсуфни севиб қолиб, уни ҳар қандай йўллар билан ўзига оғдиришга ҳаракат қилган Зулайҳога қаратилган учинчи латифада Зулайҳонинг табиатан ўзгарувчанлигига ишора қилинган. У ўз гуноҳини эри Азиз ёнида Юсуфга тўнқайди. Шунда Юсуф шоҳ Азизга тўрт ойлик чақалоқни кўрсатиб, ундан ҳақиқатни сўраши мумкинлигини айтади. Азиз эса тўрт ойлик чақалоқ қандай қилиб гапириши мумкин деганда, бешиқдан шундай товуш келади: “Эй Азиз, Юсуфнинг кўнглакининг ўнги йиртиқ бўлса, Зулайҳо кўни, Юсуф ёлғон. Агар кўнглакнинг орти йиртиқ бўлса, Зулайҳо ёлғон ва Юсуф кўни.

<sup>24</sup>Сафарова Ҳ.О. “Қисаси Рабғузий”даги латифаларга доир мулоҳазалар // “Насриддин Афандининг дунё кулги маданиятидаги ўрни” мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференцияси материаллари. Ўзбекистон, Бухоро шаҳри, 2019 йил 30 март. – Бухоро, 2019. – Б.86-89.

<sup>25</sup>Рабғузий, Носируддин Бурҳонуддин. Қисаси Рабғузий. Биринчи китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1990. – Б.101. (188).

<sup>26</sup>Сафарова Ҳ.О. “Қисаси Рабғузий”даги латифаларга доир мулоҳазалар // “Насриддин Афандининг дунё кулги маданиятидаги ўрни” мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференцияси материаллари. Ўзбекистон, Бухоро шаҳри, 2019 йил 30 март. – Бухоро, 2019. – Б.86-89.

<sup>27</sup>Рабғузий, Носируддин Бурҳонуддин. Қисаси Рабғузий. Биринчи китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1990. – Б.117.

Андин хабар берур”.<sup>28</sup> Мана шу мўъжиза орқали Азиз Зулайҳонинг гуноҳкор эканлигини тушуниб етади.

Хуллас, Рабғузий латифалардан фойдаланиш воситасида ўзи тасвирламоқчи бўлган воқеа-ҳодисаларнинг таъсирчанлигини оширишга муваффақ бўлган.

Кулгидан фойдаланиш, унга муносабат жуда кўп буюк мумтоз ижодкорлар асарларида кузатилади. Муҳими, бундай асарлар гоҳ наср, гоҳ шеърый кўринишдаги турли жанрларда учрайди.

Абдурахмон Жомий ислом динида ҳазил-мутойиба жоизлиги ҳақида шундай дейди:

Бир бахтли гар ҳазил қилса уни айблама,  
Ақлу диннинг аҳкомида бу ишлар жоиз.<sup>29</sup>

Кейинчалик ХондамирАли (р.а)нинг фикрларини эслатиб ёзган “Бирор киши бадахлоқлик ва бадқовоқлик доирасидан чиқиб кетишига сабаб бўладиган даражада ҳазил-мутойиба қилса, бунинг ёмон жойи йўқ”<sup>30</sup> деган фикрлар ҳам буни тасдиқлайди.

Дарҳақиқат, баъзида дин улуғлари, тариқат соликлари, шоир ва ёзувчилар, машҳур тарихий шахсларнинг бир-бирларига ҳазил-мутойиба қилиб айтган сўзлари, латифалари мавжуд бўлиб, ҳатто, расули акрамдан ҳам кўплаб ҳазиломуз гаплар нақл қилингани айтилади. Бора-бора улар одамлар орасида кенг тарқалиб, оғиздан-оғизга ўтибкелганлиги маълум. Бу фикрни Алишер Навоий ва Биноий ҳақидаги латифалар билан ҳам тасдиқлаш мумкин. Қолаверса, Алишер Навоийнинг халқ кулги санъатига муносабати ва ундан фойдаланиш маҳорати алоҳида диққатга молик масаладир. Негаки, улуғ мутафаккир шоирхалқ ҳазил-мутойибаларига ҳамиша мойиллик кўрсатиб келган. Халқ орасида кенг тарқалган аския, лоф, латифалардан яхшигина хабардор бўлган. Бу ҳақда шоирнинг замондоши Гиёсиддин Хондамир шундай таъриф келтиради: “...Ҳазрат султоннинг яқин кишиси бўлган ул олий ҳазрат (Оллоҳ ул зотнинг қабрларини табаррук қилсин) баъзида ширин ва ёқимли сўзлар чиқувчи тилларига ҳазил ва мутойибалар келтириб, ўринли бўлган ҳолатларда латифасифат сўзларни баён ипига терардилар. Бундай сўзлар ул ҳазратнинг нозик ва муборак таъбининг ўткирлигидан далолат берган...”<sup>31</sup>

Дарҳақиқат, Алишер Навоий асарларида қўлланган *мутойиба*, *ҳазл*, *мазох*, *латойиф*, *лутф*, *зарофат*, *базла*, *базлагў*, *базласанж*, *базмафрўз*, *бадиҳа*, *бадиҳагўй*, *ҳаззол* каби сўзлар унинг халқ кулги санъатига бефарқ бўлмаганидан далолат беради. Лекин шоир ҳазил қилишнинг ҳадди, меъёрини ҳам ёдга солиб турган. Унинг шу маънода “Маҳбуб ул-қулуб” асаридаги 90-танбехда ўринсиз ҳазилнинг салбий оқибатлари ҳақида келтирилган: “Кўп ҳазиллашиш – номус ва ҳаё пардасини чок этади; адаб ва

<sup>28</sup>Рабғузий, Носируддин Бурхонуддин. Қисаси Рабғузий. Биринчи китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1990. – Б.127.

<sup>29</sup>Жомий А. – Б.180.

<sup>30</sup>Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. – Т.: Академнашр, 2017. – Б.179.

<sup>31</sup>Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. – Т.: Академнашр, 2017. – Б. 180.

хурмат эгаларини бевурд ва беобрў қилади”<sup>32</sup> деган фикрлари эътиборни тортади.

Хулоса қилиб айтганда, ўзбек адабиёти тарихида фольклорнинг насрий турига мансуб латифа, оғзаки драма турига мансуб аския ва лоф жанрлари услубидан ижодий фойдаланиш анъанаси мумтоз адабиётдан бошланиб, ҳозиргача давом этаётир. Шу тариқа ўзбек халқининг майдон кулги санъати асрлар давомида муайян тажриба тўплаб, ўзига хос анъаналар касб этиб келгани ва унга хосхусусиятлар ёзма адабиётда ҳам аста-секин турли эпик, лиро-эпик, шеърӣ ва драматик турдаги асарларда ўзлаштириб борилгани аёнлашади. Ҳатто публицистик жанрларда ҳам халқ кулгиси элементларидан фойдаланилганлиги кузатилади.

### References

1. 1.Nayitov N. A. QUSHLARGA IBRAT-HAZRATI XIZR! //Интернаука. – 2020. – №. 12-3. – С. 72-73.
2. 2.Nayitov Hamza Ahmadovich. "SHARQ MUMTOZ ADABIYOTIDA OHANG TALQINI." *Мировая наука* 8 (2019): 3-5.
3. 3.Nayitov Hamza Ahmadovich. "LITERARY INFLUENCE AND ARTISTIC IMAGE." *Экономика и социум* 8 (2019): 11-14.
4. 4.Ahmadovich Nayitov Hamza. "Expression of Folklorisms in the Works of Ghafur Ghulam." *European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630)* 14 (2022): 101-105.
5. 5.Хайтов, Хамза. "Адабиётда кулгидан фойдаланиш анъанасининг асослари." *Общество и инновации* 2.3/S (2021): 49-52.
6. Akhmadov A.A., Orziyev M.Z. The second world war and the unopened afghan front. //Scientific reports of Bukhara State University. –2020. No. 3. – С. 243-249.
7. 7.Ahmadjon Asror o'g'li Ahmadov Afg'oniston va Buxoro amirligi diplomatik aloqalari (XVIII-XIX asrlar)//Scientific reports of Bukhara State University. –2029. No. 2. –С. 226.
8. Аҳмадов Аҳмаджон Асрор ўғли. Бухоро амирлиги ва Афғонистон дипломатик ва элчилик алоқалари ва Россия империяси ҳукуматининг таъсири// *Journal of Advanced Research and Stability* SSN: 2181-2608 [www.sciencebox.uz/index.php/jars/article/view/1401](http://www.sciencebox.uz/index.php/jars/article/view/1401)
9. Каримова Ф.М. Олов магияси, кул-олов тотеми, шомонликнинг кул-оловга доир талқинлари.// Таълим ва ривожланиш Таҳлили онлайн илмий журнал 2 (1), 227-230.
10. Каримова Ф.М. Олов култининг этнографик хусусиятлари ҳақида.// *Development and innovations in science* 1 (1), 149-154.
11. Karimova F.M. Xalq lirik qo'shiqlarida olovning ramziy-timsoliy ma'nolari.//Международный журнал искусство слова 4 (2).

<sup>32</sup>Навойи А. Махбубул кулуб. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. – Б.84.

## МИЛЛИЙ ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ ТИЗИМИДА ЗАМОНАВИЙ БОШҚАРУВНИ МОДЕРНИЗАЦИЯЛАШ

*Минҳожиддин Рахимов*

*И.Каримов номидаги Тошкент давлат техника университети  
2-босқич таянч докторанти*

**Аннотация.** Мақолада таълим муассасаси бошқарув самарадорлигини оширишдаги асосий ёндашувлар ва усуллар берилган. Таълим муассасаларининг таркибий бўлинмаларида эришилган амалий фаолият натижалари асосида бошқарув жараёни самарадорлигини замонавий жиҳатдан модернизациялаш ёритилган.

**Калит сўзлар:** узлуксиз таълим тизими, самарадорлик кўрсаткичлари, замонавий бошқарув жараёни, таълим сифатини оширишда персонал кўрсаткичлари.

**Аннотация.** В данной статье рассмотрены основные подходы и методы оценки эффективности управления в учреждениях образования. Осуществлена оценка эффективности процесса управления на основе результатов практической деятельности структурных подразделений модернизации образовательного учреждения.

**Ключевые слова:** система непрерывного образования, показатели эффективности, современный менеджмент, кадровые показатели в повышении качества образования.

**Abstract.** In this article the basic approaches and methods for evaluating the effectiveness of management in higher educations. The estimation of the effectiveness of management based on results of the process of practical activity of structural divisions of the educational.

**Key words:** continuous education system, efficiency indicators, modern management, personnel indicators in improving the quality of education.

Янги Ўзбекистонда кенг қамровли, менежментнинг кафолатланган сифати ва самарадорлигини ошириш, таълим тизиминг барча босқичлари жумладан, узлуксиз таълим тизимининг қамровида ёшларида замонавий билим ва кўникмаларини шакллантириш ҳамда илм-фан соҳаси ўртасида яқин ҳамкорлик ва интеграцияни, унинг узлуксизлигини таъминлаш борасида замонавий бошқарув фаолиятдан мақсадли фойдаланишни тақозо қилмоқда.

Шунингдек, миллий таълим-тарбия тизимини бошқарувнинг амалдаги ҳолати, келажаги, уни замон талаблари асосида модернизация қилиш, ёшларни юксак билим-маърифат эгалари, жисмоний ва маънавий соғлом, рақобатбардош кадрлар, етук инсонлар этиб тарбиялаш, таълим муассасаларининг раҳбар ва педагог ходимлари нуфузини ошириш, уларнинг самарали етакчилик компетенцияларини ривожлантириш орқали фаолият юритиши учун зарур шарт-шароитлар яратиш бўйича жуда изчил чоратadbирлар амалга оширилмоқда. Айниқса, замонавий бошқарув соҳасида

таълим жараёнларида миллий кадриятлага очиклик механизими жорий қилинганлиги фаолият шаффофлигини таъминлашга хизмат қилмоқда.

Бу муаммога ҳукуматимиз томонидан алоҳида эътибор қаратилмоқда. Мамлакатимиз Президенти Ш.М.Мирзиёев “Ёшларимизни мустақил фикрлайдиган, юксак интеллектуал ва маънавий салоҳиятга эга бўлиб, дунё миқёсида ўз тенгдошларига ҳеч қайси соҳада бўш келмайдиган инсонлар бўлиб камол топиши, бахтли бўлиши учун давлатимиз ва жамиятимизнинг бор куч ва имкониятларини сафарбар этамиз” –деган даъватлари таълимнинг сифатига ва унинг самарали ташкил этилишини, айниқса, замонавий бошқарув ислохотлари орқали ёшларни мустақил фикрлайдиган, юксак интеллектуал ва маънавий салоҳиятга эга шахс сифатида тарбиялаш бугунги куннинг долзарб масалаларидан бири ҳисобланади. Янги Ўзбекистонда инсон кадри, унинг меҳнатларини эътироф қилиш куннинг муҳим ва долзарб мавзусига айланди. Шу ўринда корхона ва ташкилот персоналани бошқариш концепцияси тамойилига мос равишда ходим шахсий ролининг ошиб бориши, меҳнати ва фаолиятини соғлом рақобатбардошлик асосида ўсиб бориши келажак ворислари учун муҳим сабоқдир.

Ҳозирги вақтда корхона ва ташкилот персоналани бошқариш концепцияси асосини ходим шахсий ролининг ортиб бораётганлиги, унинг асосий йўл-йўриқларни билиши, уларни шакллантира олиши, корхона ва ташкилотлар олдида турган вазифаларга мувофиқ равишда йўналтира билиши ташкил этади.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев Ўзбекистон Конституцияси қабул қилинганлигининг 24 йиллигига бағишланган маросимдаги маърузасида мамлакатимизнинг бугунги кундаги ва истиқболдаги устувор вазифалари ҳақида тўхталиб, қуйидагиларни таъкидлади: “Биз таълим ва тарбия тизимининг барча бўғинлари фаолиятини бугунги замон талаблари асосида такомиллаштиришни ўзимизнинг биринчи даражали вазифамиз деб биламиз”. Рақобат муҳитининг кучайиб бориши таълим муассасаларининг, бошқарув қарорларини ишлаб чиқиш ва қабул қилишда масъулияти ва мустақиллигини оширади.

Бошқарув қарорларининг қанчалик самарали бўлиши кўп жиҳатдан муассасадаги бошқарув жараёнини, унинг натижаларини ўз вақтида, ҳар томонлама объектив баҳолаш билан боғлиқ. Бунинг учун эса, замон талабларидан келиб чиқиб, таълим муассасалари бошқаруви жараёни, унинг самарадорлигини баҳолашда замонавий усул ва услубларни қўллашни тақозо қилади.

Ҳозирги вақтда таълим муассасаси ички муҳитида бошқарувнинг турли бўғинларида самарадорлик баҳолашда содда, қулай, эгилувчан услублар етарли бўлмаганлиги учун уларга эҳтиёж мавжуд.

Турли характердаги муаммоларни аниқлаш, таҳлил қилиш ва баҳолашга қаратилган ва “энг мақбул қарорга келишни таъминлайдиган кўп мезонли комплекс таҳлил қилиш ва баҳолаш методларини таълим муассасалари

бошқаруви жараёнида самарали қўллаш ўзининг имкониятлари кенглиги ва истиқболлиги билан ажралиб туради. Таълим муассасаси бошқарув жараёни самарадорлигини комплекс баҳолаш кўпгина бозор субъектларида қизиқиш уйғотади ва долзарблигини юқорида келтирилган мулоҳазалар асослайди.

Республикамиздаги иқтисодий ва сиёсий тизимларда рўй бераётган ўзгаришлар ҳар бир шахс учун, унинг яшашининг барқарорлиги учун катта имкониятлар туғдириш билан бир қаторда жиддий хавф–хатар ҳам туғдиради, амалда ҳар бир кишининг ҳаётига маълум даражада ноаниқлик киритади. Бундай вазиятда персонални бошқариш алоҳида аҳамиятга эгадир, чунки у шахснинг ташқи шароитга мослашиш, ташкилотдаги персонални бошқариш тизимининг тузилишида шахсий омилни ҳисобга олиш масалаларининг бутун бир мажмуини амалга ошириш имконини беради. Шунинг учун ҳам маънавий ва кадриятларнинг устиворлигига бутунлай янгича ёндашувларни ишлаб чиқиш зарур бўлади. Корхона ва ташкилот ичидаги асосий жиҳат – ходимдир, ташкилотдан ташқарида эса – маҳсулот истеъмолчиларидир. Ишловчининг маънавий онгини бошлиққа эмас, балки ташаббускорга томон юз буриши зарур. Соғлом иқтисодий моҳиятга асосланадиган ижтимоий нормаларга ўтишни унутмаслик керак. Иерархия иккинчи ўринга ўтиб, ўз ўрнини маънавий, маданият ва бозорга бўшатиб беради.

Персонални бошқаришга доир янги хизматлар одатда анъанавий хизматлар: кадрлар бўлими, меҳнатни ташкил этиш ва иш ҳақи бўлими, меҳнатни муҳофаза қилиш ва хавфсизлик техникаси бўлими ва ҳоказолар асосида тузилади. Янги хизматларнинг вазифаси корхона ва ташкилотдаги кадрлар сиёсатини амалга оширишдан, меҳнат потенциални бошқариш соҳасидаги фаолиятини мувофиқлаштиришдан иборатдир. Шу муносабатлар билан бу хизматлар ўз вазифалари доирасини кенгайтира бошлайдилар ва соф кадрлар масаласидан меҳнат фаолиятини рағбатлантириш тизимларини ишлаб чиқишга, касбий жиҳатдан илгари силжишни бошқаришга, ихтилофларга барҳам беришга, меҳнат бозорини ва шу кабиларни ўрганишга ўтадилар.

Ўзбекистонда персонални бошқариш 90-йилларнинг бошларидан эътиборан шакллана бошлади. Бунга биринчи навбатда маъмурий–бўйруқбозлик тизимининг инқирозга учраши, корхоналарнинг мустақиллиги, бозор муносабатларининг ривожланиши ва тадбиркорликнинг авж олиши ҳамда энг асосийси, иқтисодиётнинг ривожланиш марказида инсон туришини англаб етиш куртаклари сабаб бўлди.

Персонални бошқариш (персонал менежменти) - Корхона (фирма) даражасида ишчи кучи потенциалининг нормал ривожланиши, амал қилиши ва ундан самарали фойдаланиш юзасидан ўзаро боғланган ташкилий - иқтисодий ва ижтимоий чора-тадбирлар тизимидир.

Функционал жиҳатдан кадрни бошқариш - Кадрлар соҳасидаги шлар билан боғлиқ бўлган барча вазифалар ва қарорлар (масалан, кадрларни

очиқлик тамойили асосида танлаш, улардан фойдаланиш, малакасини ошириш, уларнинг меҳнатига ҳақ тўлаш, ишдан бўшатиш, рағбатлантириб бориш ва х.к.) тушунилади.

Ташкилий жиҳатдан пенсонални бошқариш - Кадрлар билан ишлашга жавобгар бўлган барча шахслар ва институтлар (масалан, раҳбар шахслар, кадрлар бўлими, ишлаб чиқариш кенгашлари, касаба уюшмалари) қамраб олинади ва ҳамкорликда фаолият олиб боради.

Кейинги йилларда давлатимиз томонидан қатор меъёрий ҳужжатлар чиқди. Масалан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 5 сентябрдаги «Халқ таълими бошқарув тизимини такомиллаштириш бўйича кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПФ-5538-сон Фармони, 2018 йил 5 сентябрдаги «Халқ таълими тизимида бошқарувнинг янги тамойилларини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-3931-сонли Қарори, шунингдек, раҳбар ва педагог ходимларни танлаш, тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва малакасини оширишнинг илғор ва шаффоф ташкилий-ҳуқуқий механизмларини татбиқ этиш йўли билан халқ таълими тизимида кадрлар сиёсатини шакллантиришнинг замонавий тамойилларини жорий этиш бўйича узлуксиз таълим тизими раҳбарлари ва директорларида менежерлик кўникмаларини шакллантириш ва касбий компетентлигини мунтазам ошириш зарурлиги белгилаб қўйилди.

Бу эса ўз навбатида қуйида келтирилган масалаларга эътибор қаратишни тақозо этади:

- «Таълимда персонални бошқариш» узлуксиз таълим тизими раҳбарлари ва директорларида менежерлик кўникмаларини шакллантириш ва касбий компетентлигини раҳбар кадрларининг персонални бошқаришида назарий ва амалий, педагогик-психологик, методик тайёргарлиги даражасини орттириш, ходимларни мотивациялаш ва бошқарувни ташкилий тузилмасини шакллантириш борасидаги илғор хорижий тажрибаларни ўрганиш;

- узлуксиз таълим тизими раҳбарлари ва директорларида менежерлик кўникмаларини шакллантириш ва касбий компетентлигини ривожлантириш орқали кадрларида таълим-тарбия жараёнининг самарадорлигини ошириш учун зарур бўладиган касбий билим, кўникма ва малакаларни мунтазам янгилаш, раҳбар ходимларга давлат талаблари асосида етакчилик имкониятларини ривожлантириш;

- таълим муассасалари раҳбар кадрларининг замонавий бошқарувга оид замонавий билим ва инновациялар, илғор хорижий тажрибалардан самарали фойдаланиш, ахборот-коммуникация технологияларини ўқув жараёнига кенг татбиқ этиш ҳамда чет тилларини интенсив ўзлаштириш даражасини ошириш ҳисобига уларнинг касб маҳоратини мунтазам юксалтириш.

Зеро, ушбу тизимли фаолият замонавий бошқарув тенденцияларини ҳаракатлар стратегиясидан тараққиёт стратегиясига юз тутишида унинг мақсад ва вазифалари юқорида юқорида қайд этилган ватанпарварлик хислатларига эга малакали ходимлардан иборат ташкилот персонали ва гуруҳ

аъзолари ўртасидаги муносабатларни тўғри тадбиқ этган ҳолда миллий иқтисодий-тимизнинг бошқарув салоҳиятига, ривожига ҳисса қўшишдир.

#### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Мирзиёев Ш. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Ўзбекистон Республикаси www.uza.uz. 07.01.2017й.
2. Саати Т. Л. Принятие решений при зависимостях и обратных связях. Аналитические сети. – М.: ЛКИ, 2008.
3. З.Қурбонов Ш., Сейтхалилов Э. Таълим тизимини бошқариш. -Т.: “Турон Иқбол”: 2006. – 592 б.
4. Колесников, Л.Ф. Эффективность образования. –М.: Педагогика. 1991. – 5. 269с.
6. Мескон М., Альберт М., Хедоури Ф. Основы менеджмента / пер. Л. И. Евенко. — М.: Дело, 1997. — 704 с.
7. Peter F. Drucker, «A New Discipline», Success! January-February 1987, 18 с.
8. Тебенкин А.В. Методы принятия управленческих решений. Учебник для бакалавров. М.:Юрайт, 2013. 572 с.

#### АДАБИЙ ТАЪЛИМДА ИНТЕГРАТИВ МУҲИТНИ ҲОСИЛ ҚИЛИШ

*Нилуфар Юлдашева п.ф.н.доцент*

*Тошкент Ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш  
муҳандислари институти-Миллий тадқиқот университети  
Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси аъзоси*

**Аннотация.** Педагогик интеграциянинг инфатузилмасини яратиш, аввало педагогик амалиёт ва назарияси соҳасидаги интегратив фактларни тўплашни назарда тутди. Интегратив ёндашув фаолиятининг таркибий (ташкилий-услубий, амалий ва назарий) қисмлари сифатида шахснинг индивидуал ривожланиш компонентларини юзага чиқаради.

**Калит сўзлар.** шахс, адабий таълим, узуксиз таълим, мустақкам эътиқод, соғлом дунёқараш, дидактика, интегратив–педагогик жараён.

**Аннотация.** Создание концепции педагогической интеграции, прежде всего, предполагает сбор интегративных фактов в области педагогической практики и теории. Интегративный подход выводит компоненты индивидуального развития человека как составные (организационно-методическую, практическую и теоретическую) части деятельности.

**Ключевые слова.** человек, литературное образование, непрерывное образование, крепкая вера, здоровое мировоззрение, дидактика, интегративно-педагогический процесс.

**Abstract.** Creation of the concept of pedagogical integration, first of all, involves the collection of integrative facts in the field of pedagogical practice and theory. Integrative approach brings out the components of individual development of a person as component (organizational-methodical, practical and theoretical) parts of activity.

**Key words.** person, literary education, continuous education, strong faith, healthy outlook, didactics, integrative-pedagogical process.

Маълумки, ёшларда шахсга хос сифатларни таркиб топтиришда адабиёт ўқув предмети алоҳида ўринда туради. Чунки адабиёт инсоннинг руҳиятини, ички оламини бойитишга, уларда мустақкам эътиқод, соғлом дунёқарашни тарбиялашга хизмат қилади. Инсон маънавий сифатларининг билимдан фарқли жиҳати шундаки, у инсонда исталган пайтда шакллантирилавермайди. Вақтидан биров кечиклдими, бас, бола маънавияти кемтик ҳолда қолаверади. Одам учун билим олиш, касб-хунар эгаллашнинг эрта-кечи бўлмаса-да, маънавий камолот учун вақтнинг аҳамияти катта. Астойдил интилган одам учун исталган вақтда билим олиш, хоҳлаган пайтда касб-хунар ўрганиш имконияти бор. Лекин инсонда ўз вақтида қарор топмаган бирор маънавий сифатни кейин шакллантириб бўлмайди. Шуниси борки, ёшлар маънавиятидаги кемтиклик уларнинг ақлий ўсишига ҳам, касб-хунар эгаллашига ҳам салбий таъсир кўрсатади. Шунинг учун адабиёт дарсида ўқувчиларнинг эркин фикрлайдиган, ўрганилган асардаги қаҳрамонларнинг хатти-ҳаракатларига мустақил баҳо бера оладиган шахслар сифатида шаклланиши алоҳида аҳамиятга эга.

Адабий таълимида барча педагогик тадбир ва воситалар ўқувчиларнинг адабий матн устида эркин ишлай олишини таъминлашга қаратилиши лозим. Мактаб ва академик лицейларда «Адабиёт» фани адабий ўқишга асосланади. Ушбу босқичларда ўзбек ва жаҳон адабиёти тизимли асосда юксак маънавиятли шахсларни тарбиялашга йўналтирилади. Яна ҳам соддароқ айтганда, узуксиз таълимда ўқувчилар адабиёт тарихи ҳақидаги билимлар баробарида адабий матннинг ўзи билан танишади. Бу босқичларда ўқувчиларда адабиёт бўйича назарий билимларни шакллантириш эмас, балки уларда муайян маънавий фазилатларни қарор топтириш кўзда тутилади. Шунинг учун айни айни босқичларда барча адабий материаллар ўқувчиларда шакллантирилиши зарур деб ҳисобланган маънавий сифатларни акс эттирадиган рунлар асосида жойлаштирилади. Таълимнинг турли босқичларидаги адабиёт дарсларида интерфаол усулларни қўллаш йўлларига доир тадқиқотлардан маълум бўладики, ўзбек педагогика илмида хусусан, адабиёт дарсларида ёшларни ватанпарвар этиб тарбиялаш тизими ишлаб чиқилмаган. Бу ёндашув, масалан, ўқувчилар фаоллигини оширишда, тил билиш (хорижий тил) жараёнларида ҳам интегратив ривожлантирувчи ҳисобланади. Интегратив ёндашув фаолиятининг таркибий (ташкилий-услубий, амалий ва назарий) қисмлари сифатида шахснинг индивидуал ривожланиш компонентларини юзага чиқаради. Кўринадикки, интегратив ёндашув асосидаги интерактив методлардан фойдаланишга йўналтирилган асарлардан бири проф. Н.Саидахмедовнинг «Дидактик жараён лойиҳасининг интерфаол методлари» китобидир. Муаллифнинг интерфаол методлар моҳиятини англатиш ва уларни амалиётда қўллаш бўйича фикрлари асосли эмас. У ёзади: «...ўқитиш методлари бевосита таълим амалиёти билан

алоқадор концепциядир. Ўқитиш методи дастлаб педагог онгида фаолиятнинг умумлашган лойиҳаси тарзида мавжуд бўлади». Маълумки, метод таълим объекти ва субъектининг (педагог ва ўқитувчи) ҳамкорликдаги фаолияти орқали таълим мазмунини ўзлаштириш усули ҳисобланади. «Таълимда ноанъанавий дарслар ва интерфаол усуллардан фойдаланиш», «Замонавий таълим технологиялари» китобларидаги қарашлар ҳам талаб даражасида эмас. Уларда ноанъанавий дарслар интерактив усулдаги дарслар билан бир саналган, илдизсиз, мантиққа мувофиқ келмайдиган «Интерфаол дегани ўта фаол таълим усули демасдир» тарзида ҳукм чиқарилган ўринлар фикримиз далилидир. Интегратив инновация тушунчасига изоҳ беришни лозим топдик.

Г.Қурбонова фикрича: «Педагогик интеграциянинг инфатузилмасини яратиш, аввало педагогик амалиёт ва назарияси соҳасидаги интегратив фактларни тўплашни назарда тутди. Ҳозирги замон таълим амалиёти таълим мазмуни, предметлар мазмунини интеграциялаш, интегратив шакл ва технологияларнинг пайдо бўлишига тегишли интегратив–педагогик характердаги кўплаб фактларини тўплаган. Педагогик интеграциянинг шахс психологик шароити биринчидан, интегратив – педагогик фаолиятни амалга оширишга мотивацион йўналтирилганликни; иккинчидан, ноанъанавий, ноилмий, номаданий, (номентал ва шу каби) қоидалар ва ҳодисаларини бағрикенглик билан идрок этишга тайёрликни; учинчидан, фикрлашнинг интегратив усуллари шаклланганлиги, интегратив фикрлаш қобилиятини ишлаб чиқиши кабиларни ифодалайди, булар сирасига умумлаштириб билиш, синтезлаш, қиёслаш, ўхшашликлар асосида хулосалар чиқаришни, тўртинчидан, шунчаки ўзаро ҳаракат эмас, балки “бирга”, “қўшиб” ишлаш малакасига эга бўлишини ҳам киритиш мумкин».

Демак, «Ин», «новация» – «олиб кириш», “ахборотларни тўплаш” «янгилик(ларни)» бирликларидан иборат бўлиб, «янгиликларни таълим жараёнига олиб кириш» маъносини билдиради.

Янгилик амалий натижа бериши учун, биринчидан, янгилик нималиги белгиланиши; иккинчидан, ўзлаштирилаётган янгилик ҳақида етарлича маълумотлар, асослар, ахборотлар тўпланиши, учинчидан, янгилик сифатида тўпланган билимлар сараланиши, тўртинчидан, сараланган янгиликлар апробациядан ўтказилиши, бешинчидан, амалиётда яхши натижа берган янгиликлар тизимида фаол қўлланиши зарур.

Ҳар қандай янгиликнинг нисбий эканлиги таълим жараёнида интегратив инновацион муҳитни ҳосил қилишда эътиборли бўлиш зарурлигини эсга солади. Шиддат билан ривожланаётган даврда ахборотнинг ниҳоятда кўплиги, инсонлардаги янгиликка ўчлик, қизиқиш, кучли мотивация (эҳтиёж, истак, хоҳиш), шунингдек, таълимий ислохотлар педагогик фаолиятга янгича ёндашувларни тақозо этади. Бугунги тезкор ўзгарувчан глобаллашув жараёнида энг бой инсон маълумот ва ахборотларга бой бўлган шахсдир.

Узлуксиз таълимда , айниқса адабиёт дарсларида инновацион муҳитни ҳосил қилишга ёрдам берувчи омиллар:

ўқитувчининг ташкилотчилиги;

дарс жараёнига, адабий таълимга коммуникатив ёндашув;

ўқитувчининг профессионал касбий билим даражаси, савияси ва маҳорати;

методологик маҳорати;

мақсадга олиб борувчи йўлнинг аниқлиги ва натижаларнинг кафолатланганлиги;

муҳит яратилиши учун қулай шароитнинг мавжудлиги; (интернет тармоғи, сайт ва бошқа ресурслар)

амалга оширилаётган ишларнинг рағбатлантирилаётгани;

шахснинг ўз фаолиятдан қониқиши;

ўқувчи эҳтиёжларига мос қулайликлар яратиш;

ишчанлик муҳитини яратиш;

ҳамкорлик, ҳамдардлик, ижодий муҳитни яратиш;

ўқувчиларни янгича муҳитда фикрлаш ва ишлашга ўргатиш;

дарс шакллари янгилаб, оммалаштириб бориш;

психологик муҳитнинг мавжудлиги кабилар.

Инновацион муҳит таълим-тарбиядаги интерфаол методларни қўллаш билан узвий боғлиқ. Илғор педагогик амалиётда ана шундай дарс беришнинг талайгина йўллари мавжуд ва адабий таълимга қўйилаётган янги талаблар уларни янада такомиллаштиришни тақозо қилмоқда.

Адабий таълимда ватанпарварлик туйғуларини ёшлар руҳиятига сингдиришнинг интерфаол методлари ҳақида гап кетар экан, ўқитувчи ўқитувчи ижодкорлар, машҳур замондошларнинг ҳаёт йўллари ҳақидаги ибратомуз ҳикояларни ҳам ибрат тариқасида келтириши мумкин. Масалан, Ўзбекистон халқ ёзувчиси Пиримкул Қодиров ҳаётидан қуйидаги лавҳалар ўқувчига ҳавола қилинади: «Мусулмон бўлишинг учун мусофир бўл! – деган ақида рост экан. Ватандан йироқда уни соғиниб яшаганда, бошқа жойларда топилмайдиган юз хил неъматларимизнинг қадри ўтаркан... Ўзга элларда Ватанни соғиниб яшайдиган одамга барча элдошлар бир бутун миллат бўлиб кўринади... Мен билан ўн йил бир бинода меҳнат қилган рус, украин, грузин, армени, латиш, эстон, қозоқ, тожик миллатига мансуб ҳамкасбларим ҳам ҳар бири ўз халқи ва адабиёти учун жон куйдириб ишлар эди. Уларда миллий ғурур ва маданий савия баландлигини сезганим сари ўзим ҳам шу-лардан қолишмасликка интилардим». Ёзувчи ўз ҳаёти ҳақида гапирар экан, ана шу интилиш ватанпарварлик, миллатпарварлик туйғуларини кучайтирганини таъкидлайди. Бундай ибратомуз ҳикоялар инсонни Ватан, халқ миқёсида фикр юритишга одатлантиради, катта мақсадларга интилиб яшашга ўргатади.

Ўқитувчи юқоридаги матннинг таъсир кучини ошириш, ватанпарварлик туйғуси моҳиятини тўлақонли очиш учун 10-синф ўқувчиларига қуйидаги мавзуга тамомила зид бўлган қуйидаги матнни ўқувчиларга тавсия этади:

«Ж.Жойс Италияда туғилган модернистик услубда қалам тебратувчи ёзувчи. У ўз ватани Италия Англия мустамлакасига айланганидан сўнг, она тилини унутиб, инглиз тилида асар ёзишга мажбур бўлган. У ватанида юрганида ўзини иккинчи даражали одамдек ҳис қиларди. Ёзувчи кадрсизлик туйғуси учун ўз туғилган юртини ва унинг халқини айбдор деб биларди. Бир асарида ёзувчи ўз прототипини яратиб, унинг тилидан ватани ҳақида шундай дейди: «Биласанми, Ирландия нима? Ирландия бу ўз болаларини ўзи ейдиган кекса чўчқа!» ёки «Шол бўлган мамлакат» .

Мана шу матнлар муҳокамасида ўқувчилар бир нечта гуруҳга ажратилади. Улар мазкур матнлар устида фикр юритадилар. Ўқитувчининг мақсади матнда илгари сурилган асосий ғояни ажратиб олиш ва фикр билдиришга қаратилган.

Атоқли ёзувчи ўз Ватани ҳақида гапираётгани, унинг қарашлари, ўзи туғилиб ўсган тупроғига муносабати таҳлил қилинади. Ватанпарварлик ва ватанида ўзини кадрсиз, деб билган муалифнинг ўзига хос кечмиши ҳақида фикр алмашинади. Ўқувчилар чиқарган хулосаларни ўқитувчи умумлаштиради, савол-жавоб орқали мустаҳкамлайди ва «Зиг-заг» (чувалчанг) усулида ишланади. Мазкур интерфаол методнинг бундай номланишига сабаб — унда кичик гуруҳдаги ўқувчилар фурсати билан ўрин алмашилиб турадилар, ўзаро келишган ҳолда материални ўзлаштиришади ва жавоб беришади. «Зиг-заг» (чувалчанг) усулида ҳар бир иштирокчи рақамланади. Агар бирор кичик гуруҳда бирорта аъзо кўп ёки кам бўлса, рақам ҳам шу каби битта ортиқ ёхуд кам бўлади. Ўқитувчи кичик гуруҳларнинг ҳар бирига бажариши керак бўлган ўқув вазифасини бергач, рақамлар асосида маслаҳат гуруҳларини ташкил этади, иштирокчиларнинг рақамланиши сабаби шунда. Яъни 1-рақамлилар алоҳида, 2- рақамлилар алоҳида, 3- рақамлилар... ва ҳ.к. тарзида муваққат маслаҳат гуруҳи ташкил этилади. Маслаҳат гуруҳи олдида ўқув муаммосини тўғри ечиш ва эса қоладиган йўсинда тақдим қилиш вазифаси қўйилади. Маслаҳатчилар фикрлашиб бўлгач, яна аввалги гуруҳларига қайтади.


«Чувалчанг» усули моҳиятини қуйидаги йўсинда эса қоларлироқ ифодалаш мумкин:

1-жадвал.

Босқичлар	Қилинадиган ишлар
1- босқич	Ўқувчилар ўрганиши кўзда тутилган ўқув материали ўқитувчи тарафидан муайян қисмларга ажратилади.
2- босқич	Ўқувчилар бир нечта кичик гуруҳга бўлинади ва ҳар бир аъзога маълум бир рақам берилади.
3- босқич	Ўрганилиши зарур бўлган материал ўқувчилар ўртасида тақсимланади.
4- босқич	Кичик гуруҳларнинг рақами ўхшаш иштирокчиларидан иборат маслаҳат гуруҳи шакллантирилади. Маслаҳат гуруҳи материални мукамал ўзлаштириш ва маълум тарзда тақдим

	этиш усулларини ишлаб чиқади.
5- босқич	Маслаҳат якунлангач, ўқувчилар яна ўз гуруҳларига қайтади. Улар материалнинг ҳар бир иштирокчи тарафидан тўлиқ ўрганилишини таъминлайди ва текширади.
6- босқич	Ўқувчиларнинг берилган материални қай даражада ўргангани ўқитувчи тарафидан аниқланади ва баҳоланади.

Матн мазмуни билан танишилгач, белгиланган вақт ичида гуруҳлар матн устида ишлайдилар. Гуруҳ сардорлари ўз гуруҳига ўрганилган мавзу ҳақида сўзлаб беради. Ўқитувчи гуруҳлардан ва гуруҳлар бир-биридан тушган саволларга жавоб беришади. Тақдимот қилиниши ва матн бир бутунликда яхлит ўзлаштирилиши, мустақил фикрлар, тўлдиришлар эшитилиши лозим. Муқобил ҳолатда «Қарорлар шажараси» методи асосида бош муаммо ажратиб олиниб, учта ёки тўртта кичик ғоялар ёзилиб, қуйидаги схема тарзида бир қарорга келиниши мумкин.



1-расм. Қарор қабул қилиш усули.

Шу тарика ўқувчиларга адабиётнинг вазифаси инсоний туйғу, эзгу фазилатлар билан таништириш, сўзлар орқали китобхонлар кўнглида шундай ҳисларни уйғотиш, мустаҳкамлашдан иборат эканлиги англатилади. Ўқитувчи бу самарани анъанавий йўсинда дарс ўтиб ҳам қўлга киритиши мумкин эди. Аммо у ҳолда жараён узоқ чўзилган, зерикарли-мажбурий тус олган, энг асосийси, ўқувчилар туйиши керак бўлган ҳислар фақат асар қахрамонларига тегишли эканлигича қолаверган бўларди. Таълимнинг замонавий усуллари эса ўқитувчига ўз ўқувчисига туйғуни юктириш, ўзига тегишли бўлгандай ҳис қилдириш имконини беради. Қадимги Рим

мутафаккири Квинтилиан таъкидлагани каби: «Агар ўқувчилар бир-бирига ўргатсалар, мустаҳкамроқ ва чуқурроқ билимларга эга бўладилар».

Инновацион муҳитда шакллантирилган таълимда ўқувчилар гуруҳларга ажратилиб, бир вақтнинг ўзида икки хил муаммоли вазият яратилиб, ана шу муаммо ҳақидаги қарашлар воситасида энг муҳим ғояга, яъни ватанпарварликни шакллантиришга йўналтириш ҳамкорликда ўқитишнинг учта назариясига олиб келади. Булар — билиш (интеллект) ривожланиши, ижтимоий ўзаро боғланиш; бихевиоризм ғоялари (хулқ-атвор).

Билиш ривожланиши назариясининг асосчилари Жан Пиаже (1896 – 1980) ва унинг тарафдорлари «Болалар фақат ўзлари кашф қилган нарсалар тўғрисида ҳақиқий тушунчага эга бўладилар. Биз тез ўргатишга ҳаракат қилганимизда уларни нарсаларни қайта кашф қилишдан тўхтатамиз», деб ҳисоблашган.

Бирга ишлайдиган одамлар орасида, албатта, мунозаралар, «интеллектуал жанжаллар» туғилади ва ўз ечимини топади. Натижада «билиш мувозанатсизлиги» пайдо бўлиб, интеллект ривожланишини рағбатлантиради. Тавсия этилган матн мазмунини ўзлаштираётган ўқувчилар ҳар иккала матн ғояларини қарама-қарши ҳолатларни таққослаш жараёнида ўрганиб, билиш мувозанатига эришадилар.

Инсонга оид барча нарса ижтимоий қиррага ҳам эга бўлади, зотан, инсон ижтимоий борлик ҳамдир. Ижтимоий ўзаро боғланиш назарияси тарафдорлари (Л.С.Виготский (1896 – 1934) ва бошқалар) шу каби «билиш ўз табиатига кўра ижтимоий ҳодиса» деб ҳисоблашади Билим ўқитувчи - ўқувчи ва ўқувчи-ўқувчиларнинг аниқ муаммоларни ўрганиш, тушуниш ва ечишга қаратилган биргаликдаги ҳаракатлари мевасидир.

Ижтимоий ўзаро боғланишли таълим ташкилотчилари: «Жамият мустаҳкам билим ва тушунчаларга муҳим муаммолар ва вазифаларни ечиш жараёнида мулоқот, фаолият ва ўзаро ҳаракат орқали эришган», деган ақидага амал қилади. Ўқувчилар бу назария қонуниятлари, мантиғи, умуман, нимадан иборат эканлигини тушунишлари учун ўқитувчи улар эътиборига ўзбек ёзувчиси П.Қодиров билан италян ёзувчиси Ж.Жойснинг ҳаёт йўлига тегишли икки хил тақдир ҳақида маълумот бериши мумкин. Гуруҳлар ўзаро ғоя алмашадилар, ахборотларни тўплайдилар. Улар ўзаро тушунганлик жиҳатларини ўрганишлари баробарида, ўзларининг заиф жойларини топадилар.

Ҳамкорликдаги таълимнинг бихевиористик назария (хулқ-атвор)си ХХ аср биринчи ярмида америка психологияси йўналишида ривожланган бўлиб, психология фани инсон онги эмас, балки унинг хулқ-атворини атроф-муҳит таъсирига реакция сифатида ўрганиши керак, деб ҳисоблаган. Масалан, ўзбек ижодкори П.Қодиров ўзбекона атворга эга — миллий характери юмшоқ, Ватанни кўмсайди, мусофирликни азоб билади, бутун имкониятини ўз халқи, миллий адабиётининг ривожига сафарбар қилади. Италян ёзувчиси Ж.Жойс миллий атвори бутунлай фарқли, шу туфайли Ватанга муносабати ҳам

ўзгача, юртга хизмат қилиш, унинг келажаги учун қайғуришдан кўра, «Ватан мен учун қайғуриши керак, мен Ватанда яшаб, бегонаман, қадрсизланган, мен ўз тилимда яйраб гапира олмасам», дган дунёқарашда. Шу тариқа ўқувчилар ҳар иккала ёзувчи хулқ-атворининг атроф-муҳитга таъсир этувчи реакцияларини таҳлил қиладилар, бу орқали эса ижодкорлар ва улар мансуб бўлган миллат дунёқараши моҳиятини тушунадилар. Чунки И. В. Гёте таъкидлаганидек: «Ҳар қандай санъат асариди, у хоҳ катта ё кичик бўлсин, барча воқеалар моҳиятга бориб тақалади». Моҳият эса бадиий матннинг ички устуни; ижодкор дунёқараши ҳамда иймон-эътиқодининг ифодаси бўлиб ақс этади.

XX асрнинг охирларидан шуҳрат қозона бошлаган конструктивизм фалсафий назарияси педагогиканинг назарий ва амалий йўналишини белгилаб берди. Бунга кўра бола ўзининг фикрлаши ёрдамида шакллантирилади. Конструктивизм педагогикаси ўқувчига тайёр билим бериб бўлмаслигига асосланади. Ўқувчи ўз билимларини муваффақиятли шакллантириши, уларнинг ривожланиши учун педагогик шарт-шароит яратиши лозим.

Конструктивизм оддий ҳақиқатни татбиқ этади: ҳаётимиз давомида ҳар биримиз атроф-муҳитни, дунёни идрокимиз, эътиқодимиз ва дунёқарашларимиз воситасида англаб борамиз. Шунинг учун инсон бошқаларнинг фикрига жуда қизиқади, ўзлигини асраш, ўзигагина хос фикрлаш, шахсий услубига эга бўлиш ўта муҳим саналади.

Конструктивизм (яратиш) — ўқувчининг нуқтаи назарини, у айна вақтда «хом» бўлса-да, диққат марказига қўяди. Бу эса билиш жараёнидаги боладаги ички тизим (тажриба, билимлар)нинг ташқи номаълум борлиқ билан юзага келган зиддиятини енгиб ўтиш орқали янги билим шакллантирилишининг бошланғич нуқтасидир. Ушбу зиддиятнинг бартараф этилиши илгариги тажриба асосида шакллантирилган билим билан тавсифланган вақтинчалик билиш фаолияти барқарорлиги (ёки когнитив мувозанат)ни тиклайди.

Конструктивизм назарияси ҳақиқатдан кўра унга қараб интилиш жараёнини кўпроқ қадрлайдиган педагогик фалсафадир. Чунки «Илмий билим статик ҳодиса эмас, аксинча бу тўхтовсиз шакллантириш ва қайта қуриш жараёнидир», дейди Ж. Пиаже.

Юқорида тавсия қилинган матнлар орқали ўзаро зид қарашлар тўқнаштирилади. Қарши мисолларни келтириш орқали зиддиятли, муаммоли вазият туғдирилади. Энг асосийси, ўқувчилар савол устида ўйлайдилар, бош қотиради, аввалги ва янги билимлар ўртасида боғлиқликларни топади, уйғун ва фарқли жиҳатларни қабул қилади. Ўқувчи учун бундай инновацион муҳитнинг яратилиши янги изланиш изланиш гипотеза ечим илова тарзидаги тадқиқот фаолиятини юзага келтиради. Конструктивизм назарияси асосида инновацион муҳит яратиш ва интерфаол методлардан фойдаланиш қуйидаги тамойилларга таянади:

ўқув дастуридан келиб чиқиб, умумий тушунчаларга урғу берилиб,  
«умумийликдан хусусийликка қараб» тамойилига;

ўзгартирилган мослашув-ўқитиш жараёнига;

дарслик ўқув маълумотларининг устувор манбаи бўлиб қолмасдан,  
балки турли манбалардан бири эканлигига;

ўқувчи атрофидаги олам ҳақида мустақил қараши ва тасавури мавжуд  
бўлган ўқув жараёнининг тенг ҳуқуқли иштирокчиси эканлигига;

ўқитувчи ўқувчиларнинг ўқув-билув ва тадқиқот фаолиятининг ташкил  
этувчиси эканлигига;

ўқувчининг мустақил мулоҳазалари кадрланишига;

ўқувчиларнинг нафақат ўқув-билув фаолияти натижалари, балки янги  
билимни конструкциялаш бўйича қилган ҳаракати ҳамда унинг ўқитишдаги  
ўсиши ҳам баҳоланишига;

назорат ва баҳо билимни кашф қилишга бўлган ҳаракатнинг ажралмас  
хусусиятлари бўлиб, ўқитиш жараёнининг таркибий қисмига айланишига;

дарсда ўқувчилар интерфаол методларнинг турли шаклларида фаолият  
юрйтишига.

Кўрсатилган тамойилларнинг барчаси умумлашиб, ягона мақсадга —  
ўқувчиларни бадиий асарни бир умр ўқийдиган, ундан таъсирланиб, ўз  
устида муттасил ишлайдиган шахсларни етиштиришга хизмат қилади.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

- 1 Саидахмедов Н. Дидактик жараён лойиҳасининг интерфаол методлари. – Т.: “Университет”, 2005. 3-бет.
- 2 Ҳайитов А., Боймуродов Н. Таълимда ноанъанавий дарслар ва интерфаол усуллардан фойдаланиш. –Т.: “Янги аср авлоди”, 2006.
- 3 Олимов Қ., Ашурова С., Ўринов У. Замонавий таълим технологиялари. – Т.: Ўрта махсус касб-хунар таълими тизими кадрлари малакасини ошириш ва қайта тайёрлаш институти, 2007.
- 4 Ҳайитов А., Боймуродов Н. Таълимда ноанъанавий дарслар ва интерфаол усуллардан фойдаланиш. –Т.: “Янги аср авлоди”, 2006. 52- бет.
- 5 Қурбонова Г. Интегрatív- педагогик фаолиятининг амалга оширилиши. [XIV Международная научно-практическая интернет-конференция.](#) 30–31 мая, 2015.
- 6 Қодиров П. Мустақиллик даври адабиёти.Маънавият, модернизм ва абсурд.Т.: 2006, 28 – 29-бетлар.
- 7 Жойс Ж. Ёш санъаткорнинг портрети., Мустақиллик давр адабиёти. Т.: 2006, 31-бет.
- 8 Пиаже Ж. “Бола нутқи ва тафаккури”, 1923 й.
- 9 Виготский Л.С. «Психология искусства», 1968г.
- 10 Торндайк Э., Уотсон Дж. Б. Бихевиоризм. Принципы обучения, основанные на психологии. Психология как наука о поведении. М.: АСТ-ЛТД 1998 г. 704 с.

- 11 Гёте И.В. “Шеърят ва ҳақиқат” автобиографик асар 1811 – 1833-й.. Т.: 76-б.
- 12 Сафин Д.В., Мусина Р.Г. Интерфаол ўқитишнинг назарий асослари. Т.: 2007, 27-бет.

## СЎЗ МОРФЕМ ТАРКИБИ ФРАЗЕОЛОГИЯЛАШУВИНИНГ ИККИ ТУРИ ҲАҚИДА

*Бердиалиев Абдували*  
*ф.ф.д., профессор (академик*  
*Б.Гафуров номидаги Хужсанд давлат*  
*университети, Тожикистон Р.)*  
[berdialiev39@mail.ru](mailto:berdialiev39@mail.ru)

**Аннотация.** Мақолада “фразеология” атамасининг тилнинг кўчма маъноли турғун иборалари, уларнинг тизими ва тилшуносликнинг шу тизимни ўрганувчи соҳасига нисбатан ишлатилиши билан чекланмаслиги; унинг сўзларнинг морфем, сўз ва шакл ясалиш таркибига ҳам хос парадигматик ва синтагматик турлари ҳақида маълумот берилади. Сўз морфем таркибига хос фразеологиялашувнинг бу икки тури ўзбек тилининг характерли содда, кўшма ва жуфт сўзлари мисолида далилланади.

**Калит сўзлар:** фразеология, фразеологиялашув, кўп вазифалилик, морфема, сўзнинг морфем таркиби, парадигматик фразеологизациялашув, синтагматик фразеологизациялашув кўшма сўзлар, жуфт сўзлар ва б.

**Аннотация.** В статье речь идет о полифункциональном характере термина «фразеологизм», который употребляется, кроме устойчивых словосочетаний с метафорическими значениями, и к системе фразеологических единиц в целом и раздел языкознания, изучающий этой системы языка. В статье впервые в узбекском языкознании определены и объяснены парадигматические и синтагматические разновидности этого сложного явления, которое характерно и для морфемного строения слов, что иллюстрировано на основе характерных фактических материалов узбекского языка.

**Ключевые слова:** фразеология, фразеологизация, полифункциональность, морфема, морфемный состав слов, парадигматическая фразеологизация, синтагматическая фразеологизация, сложные слова, парные слова и др.

**Abstract.** The article deals with the polyfunctional nature of the term "phraseologism", which is used, in addition to stable phrases with metaphorical meanings, to the system of phraseological units in general and to the section of linguistics that studies this system of language. For the first time in Uzbek linguistics, the article defines and explains the paradigmatic and syntagmatic varieties of this complex phenomenon, which is also characteristic of the morphemic structure of words, which is illustrated on the basis of the characteristic factual materials of the Uzbek language.

**Key words:** phraseology, phraseologisation, polyfunctionality, morpheme, morphemic composition of words, paradigmatic phraseologisation, syntagmatic phraseologisation, compound words, paired words, etc.

Маълумки, “фразеология” тилнинг кўчма маъноли турғун ибораларига нисбатан илмий оммалашган атамалар. Шунингдек, бу атама, тилнинг кўчма маъноли ибораларидан (фраземаларидан) ташқари, шу лисоний бирликлар тизими ва тилшуносликнинг айти шу тизимни ўрганувчи соҳаси(бўлими) маъноларида ҳам қўлланувчи полифункционал (полисемик) терминдир[1]. Бу атама рус тилида равишларнинг предлоги ажратиб ёзилувчи *до смерти, при виде сингари* аналитик шаклларига нисбатан ҳам ишлатилади [2].

Тил ва унинг тизимлари шу даражада мураккаб ва серқирралики, унда турли сатҳ бирликларидан муштарақ амал қилувчи изоморф хусусиятлар анча. Фразеология ҳодисаси билан боғлиқ лисоний хусусиятлар, яъни муайян синтагматик бутунлик таркиби билан боғлиқ метафорик ифода ва уларга хос хусусиятлар тилнинг морфем ва сўз ясашиш сатҳи бирликларида ҳам яққол кўзга ташланади. Шу боис “фразеология” атамасининг амалий кўлами яна кенгайган ҳолда, сўз таркибининг метафорик маъно касб этган морфем унсурларига нисбатан ҳам қўллаш ва шундай хусусиятга эга луғавий бирликлар таркибини “морфем фразеологиялашув” деб аташ мумкин бўлади[3].

Морфем-морфологик сатҳга хос фразеологиялашув сўзнинг морфем қисмларга синхрон жиҳатдан ажрала олиш – ажрала олмаслик имконияти билан алоқадор жараён дур. Сўзнинг морфем қисмларга синхрон жиҳатдан ажрала олиши шу сўзни ташкил этган морфем қисмларнинг лисоний амалига таянади. Морфем қисмларга ажрала оладиган сўзларнинг вазифавий унсурлари бошқа сўзлар таркибида унга расмийлашган лисоний шакл (товуш қобиғи) ва маъно билан мунтазам равишда такрорланади; уларнинг ўзак қисми ўта умумлашган (мавхумлашган) луғавий маънони, аффикс қисми эса муайян бир дериватив ёхуд тавсифловчи(грамматик) маъносини ўзгаришсиз сақлайди. Сўз таркибий қисмларининг, ўзак ёхуд аффикс бўлишидан қатъий назар, уларга расмийлашган лисоний маънолар англатишдан четлашиши сўзнинг морфем-морфологик жиҳатдан фразеологиялашувига сабаб бўлади [4].

Сўз таркибининг морфем-морфологик фразеологиялашуви масаласини ўрганишга бағишланган тадқиқот ишларида бу жараён парадигматик фразеологиялашув ва синтагматик фразеологиялашув каби икки гуруҳга ажратилади [5].

**Парадигматик фразеологиялашувда** сўз морфем таркибининг аффикс характеридаги унсури маъно жиҳатдан асоснинг типиклашган маъносига мос келмайди: маълум бир сўз ясашиш типига хос асос у билан синтагматик алоқада бўлган кўп маъноли аффикс зиммасига бошқа бир маъно юклайди. Юкланган бу маъно унинг лисоний расмийлашган семантик инвентаридан четда бўлади. Бу хусусият окказионал сўз яшаш жараёнларида, айниқса,

аникроқ намоён бўлади. Унда ясовчи асос маълум бир лексик-грамматик гуруҳга ёки бир синонимик қаторга мансуб бошқа бир луғавий бирлик билан алмашинади.

«Бу юракнинг ватандошлари, ҳаводошлари, тупроқдошлари» (Э.Шукуров)... «Биз калтакчи қўпол сўз бўлганлиги учун, буларни хивчинчи деб атаймиз» («Ёшлик»). Ясовчи сўз унга зид маъноли (антоним) сўз билан алмаштирилади: «Аламзада бўлмай хурсанзада бўлсинми?»; Бу аҳволда чорвачилик зарархона бўлмай, фойдахона бўлармиди?» («Муштум»).

Ясовчи асос унга товушдош (оҳангдош) бўлган бошқа луғавий муқобили билан алмаштирилади: қўналга – йўналга; сўзлашгим – ўзлашгим ва б. [6].

**Синтагматик фразеологиялашувда** сўзнинг фразеологиялашган маъноси уни ташкил этган морф(ема)лар маъноси билан мувофиқлашмайди. Балки у морфем қисмлар маъноларининг номунтазам бирикувидан ҳосил бўлувчи семантик бутунлик характерида бўлади.

Масалан, *олмахон* (хайвон номи), *томорқа* (экин-тикин қилинадиган ер), *бангидевона* (ботаника термини, ўсимлик номи), *қўзиқорин* (ёмғирдан кейин ердан чиқадиган субтропик ўсимлик), *маймунжон* (ёввойи ўсимлик меваси) сингари содда ва қўшма сўзларнинг таркибий қисм(морф)лари шакли ва маъноси билан боғлиқ лисоний хусусиятлар **синтагматик фразеологиялашув** учун мисол бўлади. Морфем-морфологик фразеологиялашув *бешиктерватар*, *олачопон*, *қияошар* (алпинист), *чўлқувар* (чўлни обод қилувчи), *изқувар* (терговчи) сўзлари таркиби учун ҳам хосдир. Масалан, «*бешиктерватар*» сўзининг морфем қисмлари расмий маънодаги «*бешик*» ва «*тебратар*» сўзларининг; «*олачопон*» сўзининг морфем таркиби расмий маънодаги «*ола*» ва «*чопон*» сўзлари билан мантикий алоқаси йўқ. «*Чўлқувар*», «*изқувар*» сўзларининг морфем таркиби ҳам шу морфем таркибни эслатувчи тилда расмий маънога эга бўлган мустақил луғавий бирликлар билан мантиқан боғланмайди. Ана шу жиҳат С.Отамирзаева, Ҳ.Йўлдошева, Ж.Маматовлар томонидан ҳам тўғри эътироф этилган [7]. Бундай хусусият «*ошиқ-мошиқ*» (эшик, дарвоза, дераза ларнинг табақаларини кўшиб, тутиб турувчи ёғочга маҳкамлайдиган темир қисм) жуфт сўзи таркибида ҳам мавжуд.

**Синтагматик фразеологиялашув** сўзнинг шаклий ва мазмуний томонларини ўз ичига олади. Унинг фразеологиялашув даражаси сўзнинг морфем қисмларга ажралиш даражаси билан белгиланади. Синтагматик фразеологиялашувда ўзаро фарқли икки лисоний ҳолат кўзга ташланади. Биринчи ҳолатда лексема таркибида таксономик бирликлар ё тўлалигича, ё қисман мутаносиб бўлади. Бунда сўзнинг морфем қисмлари билан боғлиқ семантик ўзгаришни тилнинг амалдаги реал қонун-қоидалари асосида изоҳлаш ва характерлаш мумкин бўлади: сўзнинг морфем қисмлари ва уларнинг эркин ажралиши аниқ тасаввур этилади. «Оилада ҳамдам», «умр йўлдоши» маъносидаги «*ёстиқдош*» (*ёстиқ+дош*), «ҳамма вақт ҳамдам,

шерик» маъносидаги «*йўлдош*» (*йўл+дош*), «маълум бир ибратли фаолиятнинг биринчи бошловчиси» маъносидаги «*йўлчи*» (*йўл+чи*: йўлчи юлдуз) ана шундай характерда.

Морфем таркиби аниқ тасаввур этиладиган ва сўз таркибидан эркин ва осон ажраладиган фразеологиялашган луғавий бирликлар кўшма сўзлар тизимида ҳам анча. Масалан, «*зарпечак*» кўшма сўзи «*зар*» ва «*печак*» қисмларига эркин ажралади. Бу сўзнинг фразеологиялашувига унинг таркибидаги «*зар*» қисмининг кўчма маъноси сабаб бўлган. «Умр йўлдоши, оилада жуфти» маъносидаги «*ёстиқдош*» (*ёстиқ+дош*) ва «*бўтақўз*» (*бўта+қўз*), «*гулёр*» (*гул+ёр*), «*бўиштоб*» (*бўиш+тоб*) каби сўзлар маъноси билан боғлиқ фразеологиялашувда ҳам лексеманинг таркибини морфем қисмларга ажратиш ва уни кўшма сўзларнинг ҳосил бўлиш механизми талабида тавсифлаш мумкин.

Ўзбек тилшунослигида морфем-морфологик фразеологиялашув атамасидан фойдаланилмаган бўлса-да, **яхлитланиш (идеомотизация)** термини остида морфем-морфологик фразеологиялашувга дахлдор масалалар хусусида экскурс тавсифидаги маълумотлар учрайди. Ҳ.Неъматов ва Р.Расуловлар ҳаммуаллифлигида нашр этилган «Ўзбек тили систем лексикологияси асослари» номли кўлланмада бу ҳодиса куйидагича тасвирланади: «Яхлитланиш (яъни **фразеологиялашув** – А.Б.) деб тарихан ясама бўлган лексема маъносининг сўз ёки форма яшаш қолипидан маъносидан узилишига, узоқлашишига ва шу тарзда ихтисослашишига айтилади. Масалан, «*ўйнаш*» лексемасини олиб кўрайлик. Биринчидан, бу сўз ... «*феъл+иш=характ номи*» қолипидининг ҳосиласи, нутқ бирлигидир: *Болалар кўчага ўйнаб чиқиди*. Лекин бошқа «*ўйнаш*» лексемаси ҳам мавжуд бўлиб, у хусусий маънога эга. Бу маъно русча «*любовник*» // «*любовница*» сўзлари орқали берилади. Ушбу маънода «*ўйнаш*» сўзи алоҳида лексема сифатида тилда тайёрдир. *Ўхшаиш, қараиш, йўналиш, жўналиш, қурилиш, йиғилиш, таниш, кўриниш...* каби...бу сўзлар ҳам ихтисослашган маънога эга бўлган, яхлитланган (**фразеологиялашган** дейилмоқчи: А.Б.) ва лексемага айланган. Яхлитланиш натижасида нутқ бирликларининг тил бирликларига – лексемаларга ўтиши кунда содир бўлаётган фаол жараёндир»[8]. Дарҳақиқат, бундай фактлар тилда кўп. Лекин русча «*любовник*» // «*любовница*» маъносидаги «*ўйнаш*» ва кейин келтирилган «*ўхшаиш*», «*қараиш*» типидagi сўзларнинг фразеологиялашув даражаси ва бу жараёнга муносабатини бир хил деб бўлмайдди. «*Ўйнаш*» сўзи моделида ҳосил бўлган лексемаларнинг кейингиларини фразеологиялашган луғавий бирликлар қаторига кўшиш ҳозирча эрта. Чунки бундай сўзлар англатган маънолар сўз таркибидаги морфем қисмлар семантик мослиги ва уларнинг ўзаро муносабатига асосланган. Бу ўринда «*ўйнаш*» сўзи андозасида фразеологиялашган бошқа бир феъл шаклини эслаш тўғри ва ўринли бўларди. Бу сўз «*юриш*» (модели: «*феъл+иш=характ номи*») лексемасидир. «*Юриш*» сўзи фразеологиялашмаган маънога, яъни ўз маъносида «*юза бўйича олд ёхуд*

орқага қараб қилинган ҳаракат» маъносини англатади: *Машина текис йўлдан юрди; бемор юришдан тўхтади.* Бу сўзнинг фразеологиялашган муқобили («**юриш**») англатган маъно ҳам русча «**любовник**»// «**любовница**» сўзларининг ўзбекча муқобили –«**ўйнаш**»никига яқин. «*Икки жинсга мансуб шахснинг интим муносабати билан боғлиқ ҳатти-ҳаракати*»ни билдиради, «**севишмоқ**» сўзи билан деярли маънодош. Бу сўз рус тилида айни шу маънода ишлатилувчи «**ходить**» лексемасининг семантик калькаси дир. Масалан, «*Ўғлимиз қўшни қиз билан юраркан*». Икки шахснинг «яқин-яқин эмаслик» муносабатини билдирувчи «**чиқишмоқ**» (бўлишсиз шакли: «**чиқишмаслик**») феъли ҳам ҳозир фразеологиялашган лексемалар сафида туради.

Синтагматик фразеологиялашувнинг иккинчи кўринишида лексема таркиби унинг морфем бирликлари муносабати ва мажмуаси билан мутаносиб бўлади. Сўз таркибидаги ўзгаришларни, лексеманинг фразеологик маъносини тилнинг амалдаги қонун-қоидалари ёрдамида шарҳлаб бўлмайди. Сўз морфем қисмларга эркин ажралмайди, чунки морфемаларнинг, айниқса, улардан бири тилда расмийлашган шаклини инкор этади, уни тасаввур этиш қийин бўлади. Масалан, «*ҳар томонлама мукамал*» маъносидаги «**тўлақонли**»; таркибий қисмлари тилнинг синхрон ҳолатига кўра хиралашган «*бир зум*». «*дазмол*», «*авваламбор*», «*васваса*», «*жимжит*» [9] типдаги лексемалар ва улар маъносининг фразеологиялашуви ана шундай характерда.

Морфем-морфологик фразеологиялашувнинг, сўз морфем қисмлариаро мотивациянинг характериға кўра, “асосий мотивацияси сақланган” ва “асосий мотивацияси унутилган (сўнган) сўзлар” сингари турлари ҳам мавжудки, булар бошқа алоҳида илмий ахборот мавзусидир.

Хуллас, сўз морфем таркибига хос фразеологиялашув ва унинг жараёни бир-икки мақола билан тугал ечимига эга бўлмайди, балки бу масала замонавий тилшуносликнинг монографик режаларда ёритилиши зарур бўлган ўта долзарб муаммоларидан ҳисобланади.

#### Адабиётлар

1. Розенталь Д.Э., Теленкова М.А. Словарь-справочник лингвистических терминов. –М.: “Просвещение”, 1976. Б.516.
2. Касаткин Л.Л., Клобуков Е.В., Лекант П.А. Краткий справочник по современному русскому языку. Под ред. П.А.Леканта, -М.: “Высшая школа”, 1991. Б.60.
3. Бердиалиев А. Сўз таркиби ва шакл-маъно номуносаблиги. Монография. Бишкек, 2013.
4. Бердиалиев А. Ўша асар....
5. Гловинская М.Я. О зависимости морфемной членимости слова от степени его синтагматической фразеологизации // Развитие современного русского языка. 1972. –М.: Наука, 1975. Б.26 – 27.

6. Тошалиева С.И. Ўзбек тилида окказионал сўз ясалиши. НДА, Тошкент, 1998. Б. 16, 17.
7. Отамирзаева С., Йўлдошева Х., Маматов Ж. Қўшма сўз билан сўз бирикмасини фарқлашда паузанинг роли// Ўзбек тили тарққиёти масалалари. Илмий асарлар тўплами. Тошкент, 1992. Б.92.
8. Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. Тошкент: Ўқитувчи, 1995, 44-45 – бетлар.
9. Мисоллар А. Ҳожиёвнинг «Ўзбек тилида қўшма, жуфт ва такрорий сўзлар» китоби (Тошкент, 1963) дан олинди.

## O'ZBEK TERMINOLOGIYASINING LEKSIK-GENETIK XUSUSIYATLARI

*Suxanberdiyeva Sitara Sanjar qizi*

*Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti talabasi*  
[missbsivd@gmail.com](mailto:missbsivd@gmail.com)

**Annotatsiya.** O'zbek adabiy tili leksikasi tarkibidagi ajralmas bo'lakka aylanib ulgurgan terminologiya bugungi kunda jadal rivojlanib, o'zbek tili leksikasi boyishiga xizmat qilmoqda. Soha mutaxassislari terminologiya sohasini mufassal o'rganib, tilimiz leksikasining boy manbalar bilan boyishiga o'z hissasini qo'shmoqda. Zero, terminlar tilimizning o'ziga xos boyligidir.

**Kalit so'zlar:** terminologik leksika, o'zlashmalar, donor til, terminologik material, terminologik lug'atlar va tarixiy leksemalar.

**Abstract.** Terminology, which has become an integral part of the lexicon of the Uzbek literary language, is rapidly developing today and serves to enrich the lexicon of the Uzbek language. Specialists in the field study the field of terminology in detail and contribute to enriching the lexicon of our language with rich sources. After all, terms are a unique wealth of our language.

**Key words:** terminological lexicon, acquisitions, donor language, terminological material, terminological dictionaries and historical lexemes.

**Kirish:** Terminologiya tilshunoslikning terminlarni o'rganuvchi sohasi. Tor ma'noda ma'lum soha doirasidagi terminlar majmui. Terminlarning vujudga kelishi turli yo'llar bilan amalga oshiriladi. O'z navbatida u umumxalq tilining boyib borishiga xizmat qiladi. Tilning boyishi o'zga tillardan so'z olish, ichki boyish hisobiga ro'y beradi. Ba'zi o'zlashmalar donor tildan asl holda qabul qilinadi va kirib kelgan tili uchun ham norma bo'lib xizmat qiladi.

Terminologiyada ilmiy-texnikaviy inqilob davrida juda katta o'zgarishlar bo'lgan. Inqilob tilga turli yangi so'zlarni, terminlarni va til sohasiga doir o'zgarishlarni ham olib kirgan. Bunday jarayonlar, o'z navbatida, tilning boyishiga va unga yangidan yangi o'zgarishlari kirib kelishiga sabab bo'ladi. Donor tildan o'zlashgan so'zlar buning yorqin misolidir.

O'zbek tili terminologik leksikasining faollashish jarayoni respublikaning davlat qurilishi, iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy, madaniy va ma'naviy taraqqiyoti, shuningdek, ijtimoiy turmushning turfa jabhalariga doir talaygina yangi hodisa va

tushunchalarni ifodalash zaruriyati bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu sababli hozirgi paytda o‘ta tezlik bilan to‘lishib borayotgan qator terminologik tizimlarni yana ham takomillashtirish, yuqori bosqicha ko‘tarish o‘zbek terminologiyasi oldida turgan dolzarb, kechiktirib bo‘lmas masalalardan hisoblanadi.

Terminlarni maxsus leksika deb ham atash mumkin. Terminlarda umumiylik yoki sohaviy jihatdan xoslanganlik xususiyati bo‘ladi. Shuningdek, terminlarning uch turi farqlanadi:

- 1) Tarixiy-an‘anaviy terminlar: (*solliq, isitma*);
- 2) Terminologik tizimning boyishiga sabab bo‘lgan nisbatan yangi termin-o‘zlashmalar: (*pragmatika, bakteriya*);
- 3) O‘zbek tili so‘z yasovchi qoliplari negizida hosil qilingan terminlar: (*kesim, to‘ldiruvchi*);

Turkiy leksik (terminologik) materialning umumiyliги haqida aniq- ravshan tasavvurga ega bo‘lish maqsadida biz tomondan ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy terminlardan 503tasi ajratib olingan va ular ba‘zi qarindosh turkiy tillarning muvofiq leksik (terminologik) birliklari bilan qiyoslangan edi. Taqqoslash natijasida XI–XIV asr yozma manbalari tilida ishlatilgan 503 termindan 348 tasi uyg‘ur tilida, 230 tasi qozoq tilida, 244 tasi qirg‘iz tilida, 370 tasi turk tilida, 390 tasi o‘zbek tilida qo‘lanishda qolayotgani aniqlandi. (H.Dadaboyev)

O‘zbek terminologik leksikasining shakllanish manbalari ham bizga mavhum emas. U qadimgi turkiy til (VII-X), eski turkiy til (XI-XIV) va eski o‘zbek adabiy tili obidalariga borib taqaladi. Terminlar ham insonlarning ijtimoiy hayotidan kelib chiqib yuzaga kelgan. Jumladan, qadimda odamlar ko‘p sayohat qilganlari bois ularda osmon jismlari bilan bog‘liq savollar tug‘ila boshlaydi va terminlarning yuzaga kelishiga zamin yaratadi. Shuningdek, turli janglar ham terminologiyada harbiy terminlarning paydo bo‘lishi uchun asos vaziafasini o‘tagan. Insonlarning tabiat bilan qiziqishi biologik terminlarning paydo bo‘lishiga, umuman, insoniyatning ijtimoiylashuvi terminlarning taraqqiyotiga ham munosib omildir. Xulllas, genetik ko‘rinishi nuqtai nazaridan o‘zbek tilida qo‘llanuvchi terminlar: a) terminologiya tizimiga tayyor til birligi sifatida qabul qilingan so‘zlar; b) maxsus nom tarzida yasalgan so‘zlarga taqsimlanadi. Bunday ko‘rinishni muayyan lisoniy hodisa va vaziyatlarning mahsuli, deb baholash kerak bo‘ladi.

Tarixiy lug‘atlarda keltirilgan terminlarning qiyosiy tahlili

№	“DTS”	“Devonulug‘otitturk ”	“Attuhfat uzzakiyatu fil lug‘atit turkiya”	“Tarjumon” (XIV)
<b>ZOONIMLAR</b>				
1	O‘dirak- утка	SIG‘IR-SIGIR	JUNTAVLI-OLA-BULA OT	ASLAN - ARSLON
2	Irbich-леопард	KIRPI-JAYRA	SHO‘RSHAK-QARI TUYA	QAZ-G‘OZ
3	Īmya-коза	BULAN-	O‘QARCHIN-	TULLKU-

		SANDUVOCH	KAPTAR	TULKI
4	İqilach-ot	AZIG'-QIRG'IY	A:JG'IR-AYG'IR	O'KUZ-HO'KIZ
5	Kejik- олень	BUG'RA-NOR TUYA	SHISHAK-ECHKI BOLASI	AT-OT
6	Kersägu-лошадь	QAZ-G'OZ	JAPAG'LI-TOYCHA	QARLAG'ACH - QALDIRG'OC H
7	Orohitk-названиерыбы	YILON-ILON	BOTA-BO'TALOQ	SIRTLAN-SIRTLON
8	Ozunchi-волк-ябедник	TO'VA-TUYA	QODUQ-XO'TUK	QARTAL-BURGUT
9	Ćetük-кошка	JO'NAQ-ESHAK	TO'VA-TUYA	SARCHA-CHUMCHUQ
10	Qon-овца	JAG'AN-FIL	TAKA-ECHKI	BOG'A-BUG'U

O'n uch ma'noviy guruh asosida qiyosiy tahlil

№	Asar nomlari	At Tuhfatuz Zakiya	Tarjumon	Devonu lug'otit turk
1	Ijtimoiy-siyosiy terminlar	Aqtash-qul, tur-qonuq	Uchuzlik-arzonchilik, saray-saroy	
2	Harbiy terminlar	Utti,yutdi,sharu ,askar	Sunu-nayza, yiti-qilich	Su-askar,jag'i-dushman
3	Savdo-sotiq, va moliyaviy terminlar	Ajasi-hunarmand,		Janjuq-hamyon
4	Soliq va boj terminlari	Shuval-qop,	Sag`ish-hisob	Juy-yuk
5	Zoonimlar	Purcha-burga, itlaquz-qush	Yarasa-ko`rshapalak qartul burgut	Arslan-arslon
6	Astroponimlar	Tuna- kecha, asrakun-oldingi kun,kun-quyosh	Ulker-hulkar	Mushtari-yupeti ryulduzi
7	Anatomik terminlar	G`inirajak-qiyshiq dahan, bishko`krak	Kerpik-kiprtensisik,qo`ltuq-qo`ltiq	Yur-sulak,jamur-kurchak
8	Tibbiy terminlar	Inish-qovoqdan chiqadigan yara	Tikich-tepki,o`turnik-	Jamanig-yomonkassalik

			yo`tal	
9	Ma`dan nomlari	Guhar-gavhar, shirsha-shisha	Sircha-shisha,	Tuch-mis
10	Dunyoni 4 tomoni va vaqt bildiruvchi terminlar	Anju-juma, kindik, qovsuq-markaz	Tayin-saharvaqti, oylan-tushvaqti	Jish-yuqoritomon
11	Ilm-fanga oid terminlar	Naxyvanafy-bo`lishsizlik bo`limi, jazm tinish belgilari bo`limi	Yakilchi-rubobchi, bitikchi-yozuvchi	Jirag`u-ashulachi
12	Diniy tushunchalarni ifodalovchi terminlar	Rasul payg`ambar, tangri-Alloh	Tamu-jahannam, ug`an-Alloh	Javalach-payg`ambar
13	Ekologik terminlar	Talas-to`lqin, atrof muhit	Teniz-dengiz,	To`bi-shamol,jashin-chaqmoq

Shubhasiz, o`zbek terminologiyasi ilmiy-texnikaviy inqilob davri deb nom olgan XX asrda ham miqdor, ham sifat tomondan jiddiy o`zgarishlarni boshidan kechirdi. Bunday o`zgarishlar intralingvistik va ekstralingvistik omillar ta`siri ostida umum o`zbek adabiy tilida sodir bo`lgan jarayonlar yordamida aniqlanadi. (H.Dadaboyev) Fan va texnika orqali yangi terminlar ham vujudga kelmoqda. Ularning o`rganilishi, sohalar bo`yicha tasniflanishi murakkab jarayonni o`z ichiga oladi. Bugungi kunda nafaqat tarixiy, balki kalkalash orqali kirib kelgan terminlarni ham mufassal o`rganish talab etiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. "O`zbek terminologiyasi" – H. Dadaboyev.
2. "Hozirgi o`zbek adabiy tilining leksik qatlami" – E.Begmatov.
3. "Eski turkiy til leksikasi" – B.Abdushukurov.
4. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Terminologiya>
5. "Devoni lug`otit turk" .1-2-3-jildlar. – Mahmud Qoshg`ariy
6. "At-tuhfatuz zakiyatu fil-lugatit turkiyya"

### O`ZBEK TILI SO`Z TURKUMLARI PARADIGMASIDA TASVIRIY SO`ZLAR

*Normo`minov Sherzod To`ychiyevich*

*O`zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti dotsenti*

**Annotatsiya.** Maqolada turkiy tillarda tasviriy so`zlarning ko`psonliligi va ko`p funkcionalligi bilan bu so`z turkumining ot va fe`l qatoridagi lingvistik salohiyatga ega ekanligi tufayli ular alohida tipdagi mustaqil so`z turkumi sifatida bu turkumlarga yaqin turishi, tasviriy so`zlar til taraqqiyotining ibtidosida, ism va

fe'l turkumlari paydo bo'lishi bilan bir paytda shakllanganligi haqida asosli fikrlar bildiriladi. Shuningdek, til taraqqiyotining keyingi bosqichlarida tasviriy so'zlar ko'paya borgan hamda hozir o'zbekcha va turkcha kabi turkiy tillarda borliqdagi deyarli barcha narsa-hodisa va obrazga hamda tildagi qariyb barcha ot va fe'llarga taqlidan tasviriy so'z yasash imkoniyati vujudga kelganligi dalillanishiga harakat qilinadi.

**Kalit so'zlar:** so'z, leksema, so'z turkumlari, ot-fe'l, tasviriy so'zlar, obraz, taqlid, til tizimi, markaziy birlik, lingvistika.

Tilshunoslik fan bo'lib shakllangan eng qadimgi davrlardan boshlab Sharqda ham, G'arbda ham so'z turkumlari va ularning o'rtasidagi munosabatlar tilshunoslarning diqqat markazida bo'lib kelgani ma'lum. Bu hol so'z/leksemaning til tizimidagi markaziy birlik hamda uning obyektiv borliqdagi narsalarni anglashga xizmat qiluvchi tushunchani ifodalovchi til materiali ekanligi bilan bog'liq ekanini olimlar qayd etadilar. Turkiy tillarda tasviriy so'zlarning ko'psonliligi va ko'p funktsionalligi bilan bu so'z turkumining ot va fe'l qatoridagi lingvistik salohiyatga ega ekanligi tufayli ular alohida tipdagi mustaqil so'z turkumi sifatida bu turkumlarga yaqin turishi tilshunoslarga ma'lum. Binobarin, dastlabki tasviriy so'zlar til taraqqiyotining ibtidosida, ism va fe'l turkumlari paydo bo'lishi bilan bir paytda shakllangan ko'rinadi. Til taraqqiyotining keyingi bosqichlarida esa ular ko'paya borgan hamda hozir o'zbekcha va turkcha kabi turkiy tillarda borliqdagi deyarli barcha narsa-hodisa va obrazga hamda tildagi qariyb barcha ot va fe'llarga taqlidan tasviriy so'z yasash imkoniyati vujudga kelgan. Bu esa tasviriy so'zlar tarixiy kategoriyasi sifatida til taraqqiyotining ma'lum davrida maydonga kela boshlagan, tilning umumiy taraqqiyoti bilan birga boyib borgan deb xulosa qilish mumkin.[ Qo'ng'urov, 1980: 36].

Darvoqye, dastlabki tasviriy so'zlar til taraqqiyotining ibtidosida, ism va fe'l turkumlari paydo bo'lishi bilan bir paytda shakllangan shekilli, chunki ibtidoiy odamning sodda tafakkuri tashqi dunyodagi tovush va obrazlarni tilda taqlid uchun kerakli tovushlar kompleksi shakllangandan so'ng tasviriy so'zlar tarzida (taqlid, o'xshatish asosida) ijod qila boshlagan ko'rinadi. J.Eltazarov bu xususiyatni antik tilshunoslar, jumladan, Platon ham qayd qilib o'tganini bildiradi: "... ism narsaga qandaydir taqlid demakdir".[ Eltazarov, 2004: 132] Yana shunisi muhimki, inson tasviriy so'zni faqat taqlid uchun talaffuz qilmagan va qilmaydi, balki fonemalar yordamida shakllantirilgan so'z (tasviriy so'z) taqlid asosida ma'lum bir ovoz va holatni atab ko'rsatishga xizmat qiluvchi fonetik qobiq sifatida vujudga keladi. Shu tufayli tasviriy so'zlar hamda ism va fe'l orasida eng qadimgi davrda boshlangan relyasion aloqa tasviriy so'zlarning otga xoslangan va fe'lga xoslangan (ya'ni, ovozga taqlid so'zlarda - otga, harakat va holatga taqlid so'zlarda - fe'lga) ikki guruhini vujudga keltirgan ko'rinadiki, bu ularning otning va fe'lning (ot va yasovchi va kategorial (so'zshakl yasovchi va so'z o'zgartuvchi) qo'shimchalarini olishi va nutqda ana shu ikki so'z turkumi kabi qo'llanishiga zamin yasagan, shekilli.

O'zbek tilidagi tasviriy so'zlarning asosiy xususiyatlarini quyidagicha ta'riflab berish mumkin: tasviriy so'zlarning semantikasi juda rang-barang, shu bilan birga ularni tekshirish juda qiyin hamdir. Tasviriy so'zlar grammatik strukturasi tomonidan ham boshqa so'z turkumlaridan farq qiladi. Tasviriy so'zlar hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida asosan takroriy hamda juft formada qo'llanadi. Sodda tasviriy so'zlar bir lahzalik, keskinlikni bildirib, asosan yordamchi fe'llar bilan birikib keladi. Takroriy tasviriy so'zlar harakat yoki tovushning tabiatini, turli hususiyatini bildirishda sodda tasviriy so'zlardan farqlanadi: juft tasviriy so'zlar tovush yoki harakatning turli hil 68 o'zgarishlarga yuz tutgan holda takrorlanganligini davomiyligini ko'rsatadi. Sodda so'zlarga *-ir*, *-ang* struktura elementlarining qo'shilishi bilan ularning kengaygan shakli hosil bo'ladi. Boshqa so'z turkumlaridan qo'shimchalar orqali tasviriy so'zlar yasalmaydi. Ular uchun asosan ichki yasaliş xarakterlidir. Tasviriy so'zlardan har xil grammatik usullar bilan boshqa so'z turkumlarining (ayniqsa, ot va fe'llar) yasalişhi juda ko'p uchraydi. Tasviriy so'zlardan otlar affiksasiya, kompozisiya va sintaktik-morfologik yo'llar bilan yasaladi. Affiksasiya bular ichida asosiy o'rinni egallaydi. Ot yasash negizi bo'lib taqlid leksemasi keladi: 1) -ak : varrak, guldurak, bizbizak, dardarak kabi.

2) -a: jizza, do'mbira, dag'dag'a, vasvasa kabi.[O'zbek tili grammatikasi, 1976: 256].

Tasviriy so'zlarda substantivasiya hodisasi ham juda taraqqiy qilgan. Tasviriy so'zlardan fe'llar sintaktik (affiksasiya) va analitik yo'llar bilan yasaladi. Tasviriy so'zlardan fe'l yasashda *-la*, *-ra*, *-illa* affikslari faol ishtirok etadi.[Abdusalomov, 2011: 93]. [*taqlid+illa/ira=asos bildirgan tovush yoki obrazni harakat tarzida ifodalash*] qolipi faqat taqlid so'zlardan fe'l yasaydi: (*chirqillamoq*), (*chirsillamoq*), (*likillamoq*), (*guvillamoq*), (*shuvillamoq*), (*mo'ltillamoq*), (*bezillamoq*), (*yarqiramoq*), (*sirqiramoq*), (*mo'ltiramoq*), (*yaltiramoq*). [-illa] va [-ira] qo'shimchalari orasida ma'noviy farq kuzatilmaydi, balki ular qaysi so'zga qo'shilishi bilan farqlanadi, xolos.[Sayfullayeva, 2009: 181].

Shuningdek, tasviriy so'zlar a) o'zlarining leksik ma'nolariga ega; b) kishida umumiy taassurot hosil qilish darajasiga ko'tarila oladi. Bir tilda gapiruvchi hamma jamoa asosan ularni bir xilda tushunadi; v) o'zlariga xos qurilishga, formaga ega; g) sodda holda asosan yordamchi fe'llar bilan birga keladi; d) gapda ma'lum bo'lak vazifasini bajarib, boshqa gap bo'laklari bilan munosabatga kirisha oladi. Mana shunday xususiyatlarga ega bo'lgan so'zlarni tasviriy so'z deb hisoblanadi.[Qo'ng'urov, 1992: 56].

Ko'rinib turibdiki, turkiy tillar, shu jumladan, o'zbek tilining so'z turkumlari paradigmasi ichida tasviriy so'zlarning alohida o'rni bor. Chunki, turkiy tillardagi tasviriy so'zlar o'zlarining miqdori, leksik, grammatik xususiyatlari va semantikasi jihatidan boshqa tillardagi shunday so'zlar turkumidan keng, boy va rang-barangdir. Shu sababli bu so'z turkumining maqomi xususidagi mavjud qarashlarning eskirgani va yangilanishga muhtoj ekanligini ta'kidlab o'tmoqchimiz. Jumladan, mashhur turkolog N.A.Baskakov ham o'z vaqtida turkiy

tillardagi tasviriy soʻzlarning ot va feʼl yasashida katta rol oʻynashini (yasalishga asos boʻlishini) taʼkidlagani holda, agar anʼanaviy soʻz turkumlari tasnifi sxemalaridan chekingan holda muammoga yondashilsa, turkiy tillarda hatto ism turkumi ichida tasviriy ot va feʼl turkumida tasviriy feʼllar kabi toʻplar mavjud deb hisoblash mumkin ekanligini yozadi. [Baskakov, 1968: 235]. Haqiqatan ham tilimizda sof tasviriy soʻzlardan (*qars-qurs, tars-turs, yalt-yult, shivir-shivir...*) tashqari katta miqdordagi ismga oʻtgan (*qars ikki qoʻldan..., duv-duv gap, gurs-gurs qadam....*) va yasama feʼl oʻzagi sifatidagi (*qarsilladi, tarsilladi, yaltilladi, shivirladi...*) tasviriy soʻzlar mavjudki, bu hol mazkur soʻz turkumini Hind-Yevropa tillariga qiyosan taʼriflash hamda uning tildagi maqomini belgilashda anʼanaviy yondashuvlardan voz kechish lozimligini koʻrsatadi.

Shu bilan birga, tasviriy soʻzlarning mustaqil soʻzlar va boshqa turkumlarga xos soʻzlardan tubdan farq qiluvchi ham substansional, ham geneologik asosi bor: boshqa soʻzlar zot va tazohirni (nominasiya, atribusiya, predikasiya...), ular oʻrtasidagi munosabatni ifodalab, diaxroniyada va sinxroniyada oʻzaro geterogenetik (birining ikkinchisidan kelib chiqishi) aloqada boʻlsalar, tasviriy soʻz zot (substansiya)ning tazohirini emas, lisoniy (akustik) obrazini uning nomi sifatida yaratishi maʼlum. [Eltazarov, 2004: 132]. Shuningdek, ularda shakllanish, tilda amalda boʻlib turish uchun qandaydir motivasion asoslar mavjud (yaʼni tashqi olamdagi narsa, voqyea, hodisalar, ularning ovozi, harakati yasalish-shakllanish uchun model, qolip kabidir). Tasviriy soʻzlar hamda ism va feʼl oʻrtasidagi yaqinlik va farqlarni ham ayni ana shu nuqta belgilab beradi. Tashqi dunyodagi motivasion asosini yoʻqotayozgan tasviriy soʻzlar yoki nutqiy vaziyat tufayli maqomi yuksalgan (faollashtirilgan) tasviriy soʻzlar ot va feʼlga yaqinlashadi yoki aksincha. Ayni shu xususiyat tasviriy soʻzlarda maʼlum grammatik belgilar tizimi mavjud emasligini ham izohlab koʻrsatadi (ot va feʼl yasalishi uchun asos boʻlishdan tashqari).

Turkiy tillarning tasviriy soʻzlar shakllantirish tizimi shu qadar intensiv yasash qobiliyatiga egaki, bu hol aslida har qanday tovush, harakat va holatga tasviriy soʻzni vujudga keltirish imkonini beradi. Bunday intensivlik qatʼiy qoidalarni taqozo etuvchi grammatik belgilarning shakllanishiga toʻsiq boʻlishi tabiiy. Demak, tasviriy soʻzlar mustaqil soʻzlarning geterogenetik hosilasi emas, balki ular bilan qariyb teng qiymatga sohib soʻz turkumidir, ularning obyektiv reallik bilan aloqasi boshqa soʻz turkumlari kabi bilvosita emas, bevositadir.

Bundan tashqari, prof. R.Q.Qoʻngʻurovning 1980-yillarda amalga oshirgan tadqiqotlaridagi hisob-kitoblarga koʻra «Hozirgi oʻzbek adabiy tilining imlo lugʻatida oʻrtacha 13718 soʻzning 600 tasi tasviriy soʻz boʻlib, umumiy sonning 4,3 foizini tashkil qiladi. Yoki oʻzbekcha-ruscha lugʻatdagi 40000 soʻzning 1500 dan oshiqrogʻini tasviriy soʻzlar tashkil qiladi. [Qoʻngʻurov, 1980: 36]. Shuningdek, tadqiqotchi S.S.Mamadiyeva tomonidan amalga oshirilgan hisob-kitoblarga koʻra “Oʻzbek tilining izohli lugʻati” va “Oʻzbek tilining etimologik lugʻati” kabi qimmatli manbalardagi tasviriy soʻzlar miqdori quyidagicha:

1. O'TILning ma'lum bir qismini taqlidiy so'zlar tashkil qiladi. Lug'atda yakka, juft va takroriy shakldagi sof taqlidiy va tasviriy so'zlar 500 ga yaqin bo'lib bu umumiy sonning 0,8 foiziga to'g'ri keladi. Shu bilan birga, O'TIL da belgisi ko'rsatilmagan taqlidiy yoki tasviriy so'zlar ham uchraydi.

2. O'TILda tilimizdagi 3 ta sof taqlidiy so'zning etimologik izohi keltirilgan. Bular *dikang-dikang*, *lapang-lapang*, *likang-likang* so'zlaridir. Lekin lug'atda 26 ta ot, 27 ta sifat, 76 ta fe'l va 3 ta ravish turkumiga oid so'zlarning taqlidiy o'zaklardan yasalganligi etimologik jihatdan asoslab berilgan.[ Mamadiyeva, 2011: 67].

Xullas, o'zbek tilidagi va boshqa turkiy tillardagi tasviriy so'zlar o'zlarining kelib chiqishi va tildagi maqomi yuqorida ta'riflab o'tilgan xususiyatlar bilan ajralib turadi. Ular funksional-semantik va funksional-sintaktik jihatdan otlar va fe'llarga yaqin turadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1 Абдусаломов А.А. Тақлидий сўзлар лингвопоэтикаси: магистрлик диссертацияси. -Тошкент: ТошДПИ, 2011.
- 2 Баскаков Н.А. Двойственная природа слова и проблема частей речи // Вопросы теории частей речи (на материале языков различных типов). – Л.: Наука, 1968, с. 235.
- 3 Mamadiyeva S. S. Hozirgi o'zbek tilida taqlidiy so'zlarning leksikografik talqini (o'zbek tilining izohli lug'atlari misolida): magistrlik dissertatsiya. –Samarqand, SamDU, 2011.
- 4 Роль человеческого фактора в языке. Язык и картина мира. – М: Наука, 1988, с.93-94.
- 5 Сайфуллаева Р.Р., Менглиев Б.Р., Боқиева Г.Ҳ., Курбонова М.М., Юнусова З.Қ., Абузалова М.Қ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2006. – 391 б.
- 6 Ўзбек тили грамматикаси. I қисм. Морфология. –Тошкент. 1975. 602 б
- 7 Қўнғуров Р. Ҳозирги ўзбек тилида ўзгармайдиган сўзлар, II қисм. - Самарқанд: СамДУ нашри, 1980. 56 - б.
- 8 Қўнғуров Р. Нутқ маданияти ва услубият асослари.- Тошкент: Ўқитувчи, 1992, 55-56 б.
- 9 Элтазаров Ж.Д. Сўз туркумлари парадигмасида ўзаро алоқа ва кўчиш ҳоллари. Самарқанд – 2004. 132-б;

#### O'ZBEK PEDAGOGIKASI TARIXI TAKOMILINI DAVRLASHTIRISH MUAMOLARI

*Salaeva Muhabbat Saburovna*

*Urganch davlat universiteti professori, pedagogikva fanlari doktori*

[msalayeva@mail.ru](mailto:msalayeva@mail.ru)

**Annotatsiya.** Maqolada o'zbek pedagogikasi tarixi takomilini davrlashtirish muamolari muhokama qilinadi.

**Kalit soʻzlar:** pedagogika tarixi, jamiyat taraqqiyoti, qonuniyatlar, xalqning milliy-maʼrifiy meros, tarixiy rivojlanish, taʼlim-tarbiya nazariyasi, usul va uslublar, ilm-fan, boʻlajak oʻqituvchi, pedagogik madaniyat, mahorat, oʻzbek pedagogikasi tarixi, tarixiy davrlar, pedagogik fikrlar, maktab, pedagogik nazariyalar.

**Аннотация.** В статье рассматриваются проблемы периодизации истории узбекской педагогики.

**Ключевые слова:** история педагогики, развитие общества, законы, национально-образовательное наследие народа, историческое развитие, теория воспитания, методы и приемы, наука, будущий учитель, педагогическая культура, мастерство, история узбекской педагогики, исторические периоды, педагогические идеи, школа, педагогические теории.

**Abstract.** The article deals with the problems of periodization of the history of uzbek pedagogy.

**Keywords:** history of pedagogy, development of society, laws, national educational heritage of the people, historical development, theory of education, methods and techniques, science, future teacher, pedagogical culture, skill, history of uzbek pedagogy, historical periods, pedagogical ideas, school, pedagogical theories.

**Kirish.** Maʼlumki, pedagogika tarixi jamiyat taraqqiyotining umumiy qonuniyatlari, xalqning milliy maʼrifiy merosi va taʼlim-tarbiya sohasida erishilgan, jahon miqyosidagi yutuqlar asosida shakllangan hamda millatning muayyan tarixiy rivojlanish jarayonidagi talablariga javob beruvchi taʼlim-tarbiya nazariyasi, usul va uslublarini ifodalovchi ilm-fan majmuidir.

Boʻlajak har bir oʻqituvchida pedagogik madaniyat va mahoratni shakllantirish uchun oʻzbek pedagogikasi tarixini qadim zamonlardan tortib, to hozirgi kungacha boʻlgan turli tarixiy davrlarda pedagogik fikrlar, maktab va pedagogik nazariyalarning taraqqiyotini davrlar talabi asosida bilishlari talab etiladi. Ammo Oʻrta Osiyo xalqlarining pedagogika tarixining ibtidosi asrlar qaʼriga singib ketgan boʻlib, ular bosib oʻtgan necha ming yillik maʼnaviy kamolot pillapoyalarini aniqlash va davrlashtirish bugun uchun muhim muammodir.

Ammo milliy pedagogika tarixi bilan siyosiy, ijtimoiy, maʼnaviy, xatto madaniy hayot tarixi orasida uzviylik va muhim farqli jihatlar mavjud. Avvalo, milliy pedagogika tarixi oʻzbek xalqining pedagogik bilim va tajribalari, pedagogik fikrlari takomil jarayonlari bilan bogʻliqdir. Unda millatning maʼnaviy kamoloti zamonda, yaʼni uning butun tarixi davomida yuz beradi. Ammo u baʼzan shiddat bilan yuksalib borsa, baʼzan maʼlum darajada tanazzulga yuz tutishi ham mumkin. Bir narsa ayonki, tarix hodisalar, shaxslar, voqealar oʻtib ketadi, moddiy va maʼnaviy madaniyat unsurlari yemiriladi, taʼlim-tarbiya anʼanalari, tajribalari, taʼlim-tarbiyaga doir pedagogik qarashlari yuksalib, boyib, tobora kengroq koʻlam va teranroq mazmun kasb etib boraveradi. Millatning aksariyati maʼnaviy tanazzulga yuz tutgan fojeaviy sharoitlarda ham milliy maʼnaviyati va pedagogik

fikrlari yo'qolmaydi, ko'lam va mazmunda o'zi yetishgan kamolot bosqichini yo'qotmaydi.

Demak, milliy pedagogika taraqqiyoti hodisasi ham pedagogik-tarixiy, ham bugungi kunda mavjudligini saqlab turgan ko'p o'lchamli ijtimoiy voqelikdir.

**Maqola mazmunining asosiy bayoni.** Milliy pedagogika taraqqiyoti tarixining takomil bosqichlari qadimgi Turon, Mavorounnahr, Turkiston yoki mustaqil O'zbekiston deb ataluvchi o'lkamiz xalqlari madaniy-ma'rifiy taraqqiyot jarayoni bilan bevosita bog'liq va ushbu sahnda yuz beruvchi tarixiy-pedagogik hodisadir. Faqat madaniy-ma'rifiy taraqqiyot o'ta murakkab tarixiy hodisalar majmuini tashkil etsa, o'zbek milliy pedagogikasi taraqqiyot tarixini kamolot bosqichlari belgilashda va davrlashtirishda biz ulardan bugungi kungacha o'z dolzarbligini saqlab kelayotgan asosiy o'zak unsurlarini ajratib olmog'imiz kerak bo'ladi. Avval boshdan tan olish lozimki, yaxlit tarixiy-pedagogik jarayonning har qanday tasnifi shartli va noto'liqdir. Ammo, bu borada qandaydir o'zak tomirlari, asosiy ijtimoiy-pedagogik hodisa-jarayonidagi asosiy bo'g'inlar ajratib olinmasa, umuman, o'zbek pedagogikasi taraqqiyoti tarixini davrlashtirish to'g'risida ilmiy mulohaza yuritib bo'lmaydi.

Bizningcha, O'zbekistonda pedagogika tarixini o'rganishni va uning takomilini davrlashtirishni jahon xalqlari pedagogik g'oyalari, fikrlari taraqqiyoti bilan bog'liq holda yagona, umuminsoniy (jahoniy) pedagogik fikrlar rivojlanish jarayoni tarzida bayon etish maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuvda O'zbekiston tarixini davrlashtirishga asoslanib, har bir bosqichda, ya'ni davrda O'rta Osiyoda, O'zbekistonda, shuningdek, boshqa mintaqalarda pedagogik fikrlar taraqqiyoti bayon etiladi. Bu milliy pedagogika tarixini talabalar oson va qulay o'zlashtirishga imkon beradi.

Ma'lumki, jahon xalqlari tarixiy takomili hozirgi Yevropa istoriografiya ilmida 4 asosiy davrga ajratiladi:

1. Ibtidoiy jamoa davri;
2. Qadimgi dunyo davri;
3. O'rta asrlar davri;
4. Yangi davr.

Ammo, qadimshunoslar (arxeolog va paleontologlar) masalaga biroz o'zgacha qaraydilar. Ular:

3. Tosh asri;

2. Bronza asri;

3. Temir asri deb, ibtidoiy jamoa va qadimgi dunyoni uch bosqichga bo'lib o'rganadilar.

Biz yaxlit olib qarayotgan islomgacha ma'naviyatimiz va pedagogik fikrlar taraqqiyoti davri ushbu uch bosqichni qamrab, ilk o'rta asrlarga ham o'tadi.

Inson ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy kamolotida eng uzoq davom etgan bosqich tosh asri bo'lib, bu davrda inson va tabiat orasidagi munosabat nihoyatda yaqin bo'lgan. "Avesto"ning bizgacha saqlanib yetib kelgan to'rt qismidan biri "Vendidad" kitobining ikkinchi bobida Jamshid (asli Yima vaxishta – go'zal

Yima) haqidagi asotir (mif) bayon qilinadi. Ushbu asotir (mif) ning mazmuni quyidagicha:

Butun olamlar parvardigori Axura Mazda Sipiytman Zardushtga payg'ambarlik rutbasi inoyat bo'lgach, u tangriga murojaat qilib so'raydiki: "Ey butun dunyoning yaratuvchisi, muqaddas zot Axura Mazda (Oliy bilimlar egasi)! Sen mendan ilgari insonlarning qay biri bilan suhbat qilgansan, kimga ilk bor Axura Mazdaning muqaddas dinidan ta'lim bergansan!"

Oliy bilimlar egasi bo'lmish yagona tangri Axura Mazda unga shunday javob qiladi:

"Ey, Haq bandasi Zardusht! Sendan ilgari men ilk bor insonlardan Yima (Jamshid)ga, chorva va yilqi podalari egasi o'shal go'zal insonga xabar yo'lladim. Men unga: "Ey, Vivaxvanta o'g'li go'zal Yima! Sen mening dinimni o'rganib, uni himoya etishga tayyorgarlik ko'rgin" dedim. Ammo, ey, Zardusht, ul go'zal Yima shunday javob qildi: "Men bunday vazifa uchun yaratilmagan bo'lsam, o'qimagan bo'lsam, men din-e'tiqodni chuqur o'zlashtirish va himoya qilishga qodir emasman". SHunda, ey Zardusht, Men – Axura Mazda – unga buyurdim: "Agar sen, ey, Yima, mening dinimni o'zlashtirish va himoya qilishga tayyor bo'lmasang, unda men yaratgan dunyoni obod qil, kengaytir. Sen ushbu yer yuzini himoya qilishga, ehtiyotlashga va boshqarib turishga mas'ul bo'l!" Va, ey, Zardusht, ul go'zal Yima menga javob qildi: "Men sen yaratgan dunyoni obod qilaman, uni kengaytirishga, boshqarib borishga men tayyorman"<sup>33</sup>. SHundan co'ng 500 yil davomida Yima (Jamshid) yer yuzini obod qilib, hunarmandchilik, dexqonchilik, chorvachilikni rivojlantirdi. Loydan imoratlar bunyod etishni joriy qildi. Ammo umrining oxirida Jamshid yutuqlardan g'ururlanib ketib, kibrga berildi. O'zini "yaratuvchi" e'lon qilib, butun xalqni o'ziga sajda qilish, sig'inishni talab qila boshladi va shundan keyin daxshatli yovuz kuch – Aji Dahaka yurtga bostirib kirib, o'z hukmronligini o'rnatgan va ming yil yurti zulmat qoplagan ekan.

Ko'rinadiki, "Avesto" kitobida inson aqliy takomilidagi asotir (mif) tafakkur bosqichi ifodasini topgan. SHu sababli undagi voqealar bayoni ham asotir (mif) shaklida bo'lib, tarixiy voqeilik o'ziga xos talqin etiladi. Qanday bo'lganda ham "Avesto"ga ko'ra Jamshid davri shartli ravishda ajdodlarimiz ma'naviy-ma'rifiy kamolotini va milliy pedagogika taraqqiyoti tarixining birinchi bosqichi – tosh asriga ishora deb qabul qilish joizdir. Bu davr qancha muddat davom etgani haqida fanda turli bahslar ketmoqda. Lekin bir necha ming yillar davom etgani shubhasiz. Bu davrda inson turli tosh qurollar yasash va ulardan foydalanishni o'rgandi, kamon va o'q-yoy, ibtidoiy sopol idishlar kashf etildi. Ibtidoiy chorvachilik va dehqonchilik shakllandi, ilk uy xayvonlari va madaniy o'simliklar paydo bo'la boshladi. Bu davrda ajdodlarimiz asta-sekin tabiat va inson aro uyg'unlik mavjudligini his eta boshlashdi. Yaratuvchilik mehnati zavqini tuyishdi.

Ushbu yuksak ma'naviyat, madaniyat **empirik** pedagogik qarashlar takomili "Avesto"da o'z aksini topgandir. Bu davrda ilk shahar madaniyati, ta'lim maskanlari, ya'ni ibodatxonalar qoshida maktablar vujudga keldi. Turli hunarmand

<sup>33</sup>: Брагинский И.С. Из истории таджикской и персидской литературы. –М.: Наука, 1972. С.50-51.

toifalar ajralib chiqa boshladi. Yagona Axura Mazdaga e'tiqod yuzaga kela boshladi, inson shuuri ilk bor, ilohiy nur Koinot, ya'ni Quyosh nuridan bevosita bahramand bo'ldi. Asotir (mif) tafakkurni, qabilachilik xurofotlarini yengib o'tishga ilk qadam – ikkilanish, toyishlar bilan og'ushta birinchi **tetapoya** qadam – qo'yila boshlandi. “Avesto” kitobida aks etgan voqeilik yaxlit olganda ko'proq o'sha davrga mos keladi. Bu davrning eng buyuk ma'naviy va pedagogik fikrlar taraqqiyoti tarixining yutug'i ilk bor, garchi asotir (mif) ruhida **ilm va iymon uyg'unligi** shakllana boshlagan davr deyish mumkin. Agar “Mozdayasna”, “Axura Mazda” so'zlarida yashiringan ma'nolarni Qur'oni Karim “Baqara” surasining 225-oyati (“Oyat al-kursi”) mazmuni bilan ma'lum darajada muvofiq kelishiga e'tibor qiladigan bo'lsak, o'sha paytda ham insoniy bilimlar manbai yolg'iz ilohiy boqiy bilim deb tasavvur qilinganini sezamiz. Ammo u davrlar odamning aksariyati asotir (mif) tafakkur darajasida dunyoni tasavvur qilganliklari sababidan Zardusht “Goh”lari (munojatlari)dagi tavhid g'oyalari mushriklar adashuvlari bilan qorishib ketdi.

“Mozdayasna” e'tiqodining axloqiy tamal toshi – “ezgu o'y, ezgu kalom, ezgu amal” birligi qoidasi ham shu davrdan kelayotgan yana bir ulug' ma'naviy-ma'rifiy qadriyat va pedagogik merosimiz deyish mumkin.

O'zbek davlatchiligining shakllana borishi millatning shakllanishi bilan bevosita bog'liq hodisa. “Avesto” madaniyatining va pedagogik fikrlar taraqqiyotining tugal shakllanishi miloddan oldingi VII-VI asrlarda yakunlangan va balki shu davrlarda yozma matnga ko'chgan bo'lsa ehtimol. Har holda Iskandar Maqduniy (Aleksandr Makadonskiy) o'lkamizga lashkar tortib kelganda “Avesto”ning 12 ming koramol terisiga zarhal xarflar bilan boyitilgan to'liq yozma matni mavjud bo'lganligi turli qadim kitoblarda va Abu Rayxon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida ham qayd etiladi. Bizning mintaqada ilk davlatchilikning yuzaga kelishi ham ushbu davrlargacha boshlangan bo'lib, “Avesto”da Oliy tangri Axura Mazda yaratgan Ariana-Vaeja (Xorazm), Gava (So'g'diyona), Mouru (Marg'iyona), Baxdi (Baqtriya), Nisaya (Parfiya), Xaryva (Xiro), Xninta (Xuroson), Varina (Kaspiy dengizi janubi), Xafrud (Panjob hududi), Ranxa (Ganga daryosi sohili), Mesopotamiya (hozirgi Suriya va Iroq) kabi 16 ta serzamin o'lkalarda markazlashgan davlat boshqaruvi tizimi va ma'muriy huquqiy asoslari to'g'risida ma'lumotlar berilishi bejiz emas. Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek: “Biz uchun “Avesto” kitobi nafaqat qadimiy tarixiy yodgorlik, balki millatimizning va unga xos bo'lgan qadriyatlar va madaniyatning tomirlari ming-ming yillarga borib taqalishini tasdiqlaydigan tarixiy hujjat sifatida qadrlidir.

Bu nodir kitob bundan XX asr muqaddam ikki daryo oralig'ida, mana shu zaminda umrguzaronlik qilgan ajdodlarimizning biz avlodlarga qoldirgan ma'naviy, tarixiy merosidadir. “Avesto” ayni zamonda bu qadim o'lkada buyuk davlat, buyuk ma'naviyat, buyuk madaniyat bo'lganidan guvohlik beruvchi tarixiy hujjatdirki, uni hech kim inkor etolmaydi...

...Biz jahon maydonida kuni kecha paydo bo'lgan xalq emasmiz. Bizning millatimiz, xalqimiz ko'xna Xorazm zaminida "Avesto" paydo bo'lgan zamonlardan buyon o'z hayoti, o'z tarixi bilan yashab keladi. Xaqqoniy tarixni bilmasdan turib esa o'zlikni anglash mumkin emas. O'zlikni anglash tarixdan boshlanadi. Tariximiz xotirasiz kelajak yo'q"<sup>34</sup>.

Shunday qilib, yuqorida eslatib o'tilgan "Mozdayasna", ya'ni zardushtiylik e'tiqodi dastlab tarqalgan ushbu o'lkalar yagona madaniy mintaqa, keyincha Mavorounnahr va Xuroson deb atalgan o'lkani tashkil etganligi ma'lum bo'ladi. Shimolda Xorazmdan, janubda SHimoliy Xindistongacha, hozirgi Eronning shimoli-sharqidan Farg'ona vodiysi, Yettisuv o'lkasigacha, hozirgi O'zbekiston sarhadlari to'liq ushbu hudud ichida joylashgandir.

Mintaqadagi kichik davlatlar o'rnida miloddan oldingi III asrdan boshlab xunlar, so'ngra kushonlar imperiyasi milodiy era boshlarida hozirgi SHimoliy Xindiston va Turon o'lkalarini yagona hududga birlashtirishga muvaffaq bo'ldilar. Bu ikki yirik davlatchilik tajribasi turkiy xalqlar ishtiroki bilan bo'lgan bo'lsa, keyinroq borib turkiy elat o'z mustaqil imperiyasini tuzishga muvaffaq bo'ldi. Milodiy eraning V-VI asrlaridan boshlab, Qora dengiz bo'ylari va Dunay sohillaridan to janubiy Sibir va Mo'g'uliston yerlarigacha, Volga bo'ylari va O'rol tog'i etaklaridan hozirgi shimoliy Afg'onistongacha bo'lgan hududda Buyuk Turk xoqonligi shakllandi.

Bu ulug' imperiya goh yuksalish, goh tanazzul davrlarini boshdan kechirib, to milodiy eraning asri boshlarigacha mavjud bo'ldi. Ushbu davrda umumturk adabiy tili shakllandi, harbiy demokratiya qonunlari asta-sekin barqaror davlatchilik qoidalariga aylana bordi. Ta'lim-tarbiya maskanlari tashkil etilib, maxsus turkiy yozuv ishlab chiqildi va "O'g'uznoma", "Kultegin bitiklari", "To'nyo'quq bitigi", "Bilki Xoqon bitigi" singari yirik tarixiy-adabiy asrlar dunyoga keldi. Bizning nazarimizda, ushbu tarixiy –adabiy asarlar va toshbitiklar mazmunidan ajdodlarimiz tafakkur tarzi, turkiy elat islomdan oldinoq yagona Tangriga e'tiqod qilganini, yaxlit bir xalq sifatida o'zligini taniy boshlaganligini oydin his qilamiz va islom davridagi turkiy sulolalar yuksalishining ma'naviy omillariva tarixiy-pedagogik asoslarga ega ekanligi ayon bo'ladi.

Xullas, "Avesto"da tosh asri manaviyati va pedagogik fikrlar unsurlari aks etgan davrda asotir tafakkur bosqichida urug' jamoasi qabilalar bo'ladi, shuningdek, qabilalar ittifoqi shakllana boshlaydi. Ammo millat tushunchasi bu davrdan ancha keyin, o'lkalarda milliy davlat shakllanishi bilan bir paytda yuzaga keladi. Millatning o'z-o'zini anglab yeta boshlagani, turli turkiy elatlarning ( V-VII asrlarda) bir butun xalq ("budun") sifatida birlashuvi hayot va mamot masalasi bo'lib, yuzaga chiqqanligi toshbitiklar mazmunida aniq ifodalangandir.

Turon o'lkasida asotir tafakkurning mutloq hukmronligi aslida qay davrgacha bo'lganligini hozir aniq aytish qiyin, ammo milodiy era boshlanishidan ancha

<sup>34</sup> I.A.Karimovning "Avesto" kitobi yaratilganligining 2700 yilligiga bag'ishlanib barpo etilgan yodgorlik majmuasini ochish marosimidagi "Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal ulug'langan kitobi" mavzusidagi 2001 yil 3 noyabrdagi nutqi. //Xalq so'zi, 2001 yil, 6 noyabr

ilgariyoq boshlangan edi. Iskandar Maqduniy davridan SHarq va G'arb madaniyatlari, ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlari uyg'unligining yorqin timsoli ellinizm yo'nalishi shakllangan bo'lsa, keyinroq Mazdayasna e'tiqodini qayta isloh qilish orqali monaviylik bid'ati vujudga keldi. Kushonlar davrida Xindistondan Budda e'tiqodi tarqalib, Vizantiyadan nasroniylar ko'chib kela boshladilar. Sibiry va Mo'g'uliston turkiy xalqlari Ko'k tangri e'tiqodini takomillashtirib bordilar. O'lkamizda milliy birlik tamoyili kuchayib borishi e'tiqodlar xilma-xilligi bilan bir davrga to'ri keldi. Bunday murakkab ma'naviy, axloqiy, tarbiyaviy vaziyatning ham ijobiy, ham ma'lum darajada salbiy oqibatlari o'zini ko'rsatmoqda edi. Ijobiyliigi shunda ediki, ajdodlarimiz ongidan asotir tafakkur unsurlari asta-sekin siqib chiqarilib, milliy tafakkur va pedagogik qarashlar yetakchi mavqeiga ko'tarilib bordi. Salbiy jihati shundaki, e'tiqodda sobitlik, dunyoni idrok etishda yaxlit tasavvurlar, empirik bilimlar tizimi yo'q edi. Eski asotir tafakkurning inson ongidagi mutloq hukmronligi boy berilgach, faqat milliy birlik, yagona davlatchilikka intilishgina ma'naviyat va ta'lim-tarbiya sohasidagi umumiylikni ma'lum darajada saqlab turar edi. Tan olish kerakki, bunday bo'xronli holat faqat bizning Turon mintaqamizga xos bo'lib qolmay, balki butun insoniyat qarshisida ulug' bir ma'naviy-ma'rifiy tafakkurni yangilanishi bunyodga kelgandi.

Ahli bashar dunyoni, voqelikni, borliq mohiyatini to'liq va to'kis, muayyan va ravshan idrok etishi uchun yana bir ilohiy inoyat lozim edi. VIII asrda insoniyat hayotidagi bunday ilohiy inoyat bilan bog'liq manaviy-ma'rifiy uyg'onish Arabiston yarim orolidan islom dini ta'limotida dunyoga tarqaldi.

Islom ta'limoti asotir tafakkurga keskin va oxirgi zarbani berib, Qur'oni Karimdan "ilm" so'zi asosida ilk pedagogik tafakkur shakllantirdi.

Rasululloh Muhammad (sallallohu alayhi vassallam)ga ilk nozil bo'lgan 5 oyat Qur'oni Karimni 96-surasi ("Alaqi") ning birinchi oyatlari bo'lib shunday boshlanadi:

"Iqro' bi – ismi robbikal – lazi xalaq!" ("Yaratgan robbing nomi bilan o'qi!"). oradan bir oy o'tib, yana "o'qi!" so'zi qaytariladi. "Iqro' va robbikal akram, allazi allama bil qalam. Allama-l-insona ma-lam ya'lam". ("O'qi! Sening o'ta karamli Parvardigoring qalam vositasi bilan ta'lim berdi. Insonga u bilmagan narsalarni o'rgatadi").<sup>35</sup>

Demak, insonni o'qib-o'rganishga, ilm vositasi bilan dunyoni anglab yetishga targ'ib qiladi.

Shunday qilib, VIII asr ikkinchi yarmi – IX asr boshlaridan mintaqaning uch buyuk xalqi – arab, fors va turkiy elatlararo g'oyaviy-siyosiy qudratda o'ziga xos muvozanat holati vujudga keldi. Islom mintaqasi madaniyati va ilm-ma'rifatining, pedagogik fikrlar taraqqiyoti jarayonlari, avvalo, islom ta'lim-tarbiya va axloq asoslarining mukammal tizimi vujudga kelganligi, shariat va fiqh ilmi, hadisshunoslik, manbaashunoslik, matnshunoslik, lug'atshunoslik nazariyasi va amaliy tajribalarining shakllanishi, adab ilmi, dastlabki Qur'on tafsirlari, qiroat ilmi, she'riyat nazariyasi, sarfu nahv (grammatika), al-jabr, xandasa va boshqa

<sup>35</sup> Qur'oni Karim. Tarjima va izohlar muallifi Aлоуддин Мансур. – Т.: Чўлпон. 1992. 513-бет.

ilmlarga asos solina boshlanganligi bilan belgilanadi. Albatta, bunday buyuk ma'naviy-ma'rifiy yuksalishda mintaqaning barcha xalqlari, ayniqsa, arab, fors va turkiy millat vakillarining hissasi katta bo'ldi.

X-XII asrlar butun Islom mintaqasida ilm va madaniyatning eng gullab-yashnagan, ilg'or pedagogik fikrlarning avj nuqtasiga ko'tarilgan davri bo'ldi deyish mumkin. Milliy ma'naviyatimiz va pedagogik fikrlar taraqqiyoti tarixida mazkur bosqichni Islom ma'rifatchiligi deb nomlash ma'qul ko'rinadi. Chunki Abu Abdulloh ibn Muso al-Xorazmiy (783/87-847/50), Abu Nasr Mansur ibn Ali ibn Iroq (taxminan 1035 yilda vafot etgan), Abu Nasr Farobiy (873-950), Abu Mansur Muhammad al-Moturdiy (870-944), Abu Abdulloh Xorazmiy (vafoti 997 yil), Abu Ali ibn Sino (980-1037), Abu Rayxon Beruniy (973-1048), Abulqosim Mahmud ibn Umar az-Zamaxshariy (1075-1144), Sulaymon Boqirg'oniy (taxminan 1186 yili vafot etgan), Najmiddin Kubro (1145-1221) kabi mutafakkirlarning ilmiy faoliyati shu davrga to'g'ri keladi. Bu davr pedagogik fikrlari takomilining asosiy xislati aqlga, mantiqiy tafakkurga tayanish, islomgacha insoniyat yaratgan ma'naviy-pedagogik merosni o'zlashtirib, yangicha talqin qilish, aniq va tabiatga oid fanlarga qiziqishning behad kuchayishi edi. Bu ma'naviy-ma'rifiy va falsafiy-pedagogik tafakkur takomilida "Xaqiqat izlovchilar"ning turli yo'nalishlari: kalom, falsafa, botiniya va tasavvuf mukammal shakllandi. Bu yo'nalishlar keyingi asrlarda ham rivojlanishda davom etdi. Shuning uchun Islom mintaqasida ilm-fan va ilg'or pedagogik fikrlar rivojlanishini faqat X-XI asrlar bilan cheklash, albatta, mumkin emas. Ammo biz har bir bosqichning chegaralarini belgilashda muayyan shartlilikka yo'l qo'yib, millat ma'naviy kamolotining va ilg'or pedagogik-fikrlar takomilining yetakchi tamoyillarini va ichki mantiqiy rivojini nazarda tutdik.

Shuni ta'kidlash joizki, XI asrdan rivojlana boshlagan tasavvuf irfoni XII-XIII asrlarda o'zining oliy bosqichiga ko'tarilib, kubraviya va naqshbandiya tariqatida mukammal nihoya topdi. Tasavvuf tariqatlari ma'naviy poklanish yo'li bo'lib, o'zligidan (xudbinlikning barcha ko'rinishlaridan) pok bo'lgan inson ko'ngli Haq ziyosini o'zida akslantira boshlaydi. Komil inson - tom ma'nodagi ziyolidir. Ziyoli, ya'ni o'zligini anglab yetgan insonda imon, ilm va amal birligi vujudga keladi. Bunday inson o'zidan atrofga ziyo tarata boshlaydi, o'zga insonlar ruhini ham ma'rifatli etadi, ko'ngillarni nurlantiradi.

Shunday qilib, islom mintaqa milliy ma'naviyati va ilg'or pedagogik fikrlar taraqqiyoti doirasidagi takomilga yakun yasash oldidan bir muhim masalani aniqlashtirib olishga ehtiyoj bor. Gap shundaki, VIII asr ikkinchi yarmidan XVI asr boshlarigacha ilm-fan va ilg'or pedagogik qarashlar yagona mintaqa madaniyati hududida rivojlandi va yaxlit islom mintaqa ilg'or pedagogik fikrlarining uzviy qismi sifatidagina taraqqiy etdi. Bunday tarixiy-pedagogik taraqqiyot takomili holati, xususiyati nafaqat Yevropa, Uzoq Sharq, Janubiy Osiyo mintaqalari uchun ham xos edi.

Bu davr islom mintaqa ma'naviyati, ilm-fan va ilg'or pedagogik fikrlarning shakllanishi va takomiliga yaezilarli hissa qo'shgan 6 ta buyuk muhaddis Abu

Abdulloh Ismoil al-Buxoriy (810-870), Imom Muslim ibn al-Xajjoj (819-874), Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy (824-874), Abu Dovud Sulaymon (817-888), Ahmad an Nasoiy (830-935), Abu Iso Muhammad ibn Yazid ibn Mojja (824-864), islom ma'rifatchiligining dunyoga nomi taralgan Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Farobiy, Ibn Sino, Beruniy buyuk nomoyondalari, Mo'tazila yo'nalishining zabardast vakili, Qur'oni Karimning eng mo'tabar tavsiflaridan "Al-Kashshof"ning muallifi Mahmud az-Zamaxshariy (1075-1144), Kalom ilmida alohida yo'nalishga asos solgan Al-Moturdiy, butun islom dunyosi qozilarining asosiy kitobi bo'lmish fikh ilmining qomuslaridan "Hidoya fil-firu"ni yaratgan Burhoniddin Marg'inoniy (vafoti 1197 yil), tasavvufning uch buyuk tariqati –Yassaviya, Kubraviya, Naqshbandiya – Xojagon asoschilari – Najmiddin Kubro, Ahmad Yassaviy, Abduxoliq G'ijduvoni, Bahouddin Naqshband va boshqa yuzlab tasavvuf adabiyoti namoyondalari ham hozirgi O'zbekiston hududidan chiqqandir. Agar bugun biz Shimoliy Afrika va Ispaniya, Arabiston yarim oroli va Markaziy Osiyo hududlarida IX-XV asrlarda yashab o'tgan allomalarning pedagogik merosini bir-biridan alohida o'rgana boshlasak, tarixiy-ma'naviy voqelikni, pedagogik-tarixiy taraqqiyot takomilini hech qachon to'g'ri anglay olmaymiz va milliy pedagogika tarixi taraqqiyotini davrlashtirishni ham chalkashtirib yuboramiz.

Xullas, 7 asrdan (IX-XVI asrlar) oshiq vaqt davomida islom mintaqa ma'naviyat va pedagogik fikrlar taraqqiyoti takomilida yagona ma'naviy-ijodiy muhit shakllandi. Ushbu ma'naviy-ijodiy muhitda arab, fors va turkiy millatlarning o'ziga xos ma'naviy dunyosi va ilm-fan rivoji bir-biri bilan yaqinlashib, umumiy jihatlar va xususiyatlar kasb etdi.

XVI –XX asrlar milliy ma'naviyatimiz va pedagogik fikrlar takomilini ikki katta bosqichga ajratish mumkin. Ulardan birinchisi XVI-XVIII asrlarni qamrab oladi. Bu davrdagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayot, pedagogik qarashlar takomiliga qisqacha to'xtalib o'tadigan bo'lsak, islom madaniyati va ta'lim-tarbiya tizimi, ilg'or pedagogik fikrlarning ommalashuvi bosqichi, deb atash mumkin.

Ikkinchi bosqich – milliy pedagogik fikrlar taraqqiyotining Yangi davri Yevropa madaniyati, ilm-fani va ta'lim tizimi bilan bevosita to'qnashuviga oid bo'lib, bu jarayon boshlanishidanoq foje' bir tarzda – Qadimgi Turon xalqlarining chor Rossiyasi imperiyasi tomonidan bosib olinishi va 150 yillik mustamlaka holatida murakkab bir tarzda kechdi.

XIX-XX asrlar xalqimiz tarixidagi milliy turg'unlik, milliy parchalanish fojealari va yurning jonkuyar farzandlari Behbudiy, Fayzulla Xo'jaev, Fitrat va boshqa jadidlar ma'rifat vositasi bilan yenga olmagach, avval chor Rossiyasi mustabidlari, so'ng sovetlar (bol'sheviklar) bilan murosayu-madora qilishga majbur bo'ldilar va oxir-oqibatda, nafaqat xalqni ilm-ma'rifatli qilish ezgu niyatlari, balki tabarruk boshlari ham munofiqlar jodusida qirqildi. XX asr boshlarida yarq etgan Milliy uyg'onish harakati "Kommunistik proletar utopiyasi" yo'lida mutaassib va munofiq tuzum tomonidan ayovsiz mahv etildi.

Darhaqiqat, chor Rossiyasi imperiyasi o'zbek xalqlarining ma'rifati va ma'naviyatini turg'unlikda, qoloqlikda tutishga uringan bo'lsa, sobiq sovet tuzumi davrida bolshevik-shovinninglar "shaklan milliy, mazmunan sotsialistik", "sovet madaniyati va sovet pedagogikasi" niqobi ostida mahalliy xalqlarni o'z ona tili, milliy ma'naviyati va ta'lim-tarbiya an'alaridan butkul begonalashtirish siyosatini tutdilar. Shuningdek, madaniyat, maorif, mafkura sohasida faqat "markaz"ga ta'zim, tagi puch kommunistik g'oyasiga dalil-isbodsiz, shubhagumonsiz sajda qilish, munofiqona sano asosiy hukmron yo'nalish qilib belgilangan edi.

